

# МААМ



## МУНДАРИЖА СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

|                                                                                                                                                                   |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| MAQOM SAN'ATI – XALQIMIZNING MA'NAVIY DUNYOSI MUHRLANGAN OHANGLAR QOMUSI .....                                                                                    | 2  |
| <b>Ozodbek NAZARBEKOV</b> .....                                                                                                                                   | 2  |
| MAQOMDON USTOZ IS'HOQ RAJABOV<br><b>Oqilxon IBROHIMOV</b> .....                                                                                                   | 5  |
| MUNOJATSHUNOSLIKKA KIRISH<br><b>Ikromiddin OSTONAQULOV</b> .....                                                                                                  | 10 |
| MUMTOZ NAVOLAR QOMUSI - O'ZBEK MAQOMI<br><b>Ravshan YUNUSOV</b> .....                                                                                             | 16 |
| SHASHMAQOM<br><b>Баҳром ИРЗАЕВНИНГ</b> .....                                                                                                                      | 22 |
| ТЕОРИЯ ДВЕНАДЦАТИ МАКОМОВ: ВОЗРОЖДЕНИЕ ЗНАНИЙ О ВСЕЛЕННОЙ<br><b>Аслиддин НИЗАМОВ</b> .....                                                                        | 24 |
| CHASHMALAR SARCHASHMASI<br><b>Soibjon BEGMATOV</b> .....                                                                                                          | 29 |
| YOSH MAQOM IJROCHILARI TANLOVI<br><b>Shoxbozbek ABDUXOSHIMOV</b> .....                                                                                            | 34 |
| MARG'ILON MUSIQALI MAQOM TEATRI: JO'SHQIN IJOD DAVOM ETMOQDA<br><b>Aziz ZOKIROV</b> .....                                                                         | 40 |
| QORAQALPOQ DOSTONLARINING METRORITMIK ASOSLARI<br><b>Shaxida BERDIXANOVA</b> .....                                                                                | 47 |
| BASTAKORLIK O'ZBEK BASTAKORLIK MAKTABLARI SHAKLLANISHIGA DOIR<br><b>To'xtasin GAFURBEKOV</b> .....                                                                | 52 |
| G'AZALNING ZOHIRIY VA BOTINIY SHARHI .....                                                                                                                        | 54 |
| <b>Olimjon DAVLATOV</b> .....                                                                                                                                     | 54 |
| ARUZ ILMI SABOQLARI<br><b>Hamidulla BOLTABOEV</b> .....                                                                                                           | 56 |
| DOSTON VA MAQOM MUSHTARAKLIGI<br><b>Batir MATYAKUBOV</b> .....                                                                                                    | 61 |
| “MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA” O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORI QABUL QILINDI ..... | 74 |
| BAXSHICHILIK SAN'ATI YUNESKO RO'YXATIGA KIRITILDI .....                                                                                                           | 75 |
| “MILLIY BAXSHICHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI O'TKAZILDI .....                                     | 76 |
| “NAVOIYXONLIK” KECHASI .....                                                                                                                                      | 78 |
| YUNUSRAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTIDA DOKTORANTURA BOSQICHI OCHILDI .....                                                                | 79 |
| YUNUS RAJABIY TAVALLUDINING 125 YILLIGI MUNOSABATI BILAN XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA O'TKAZILADI .....                                                      | 80 |



# MAQOM SAN'ATI – XALQIMIZNING MA'NAVY DUNYOSI MUHURLANGAN OHANGLAR QOMUSI

**Ozodbek NAZARBEKOV,**

O'zbekiston respublikasi Madaniyat vaziri, Yunus Rajabiy nomidagi  
O'zMMSI rektori, "Maqom" jurnali Bosh muharriri.

"Maqom" ilmiy – uslubiy jurnali mushtariylariga!

Qadrdon xalqimiz musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Azalazaldan hozirgi xalq ijodiyotining eng sara namunalari ko'rinishida shakllanib, asrlar osha hayot atalmish buyuk tiriklik jarayoniga singib, xalq og'zaki ijodining yorqin namunalari sifatida rivojlanib kamol topib kelgan. Musiqani mislsiz ruhiy dunyo sifatida tasavvur qilishimizning asosiy omili ham shunda ekanligini anglaymiz. Zero bu uning buyukligi, ohanglarda mujassam topgan hayot, ma'naviy madad beruvchi samo' va borliq-mavjudotni anglanishida ko'mak beruvchi ilhombaxsh kuchida namoyon bo'ladi.

Biz o'tmish risolalaridan, manbalaridan bilamizki, musiqa - dunyo rivojlanishida o'zining ilmiy tafakkurlari bilan hissa qo'shgan har bir olimu fuzalolar diqqatida bo'lgan. Albatta ularning ko'pchiligi (Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Jomiy, Navoiy kabi daholar) o'z ijodiy yo'nalishlari bilan birga musiqiy mavzularda mumtoz risolalar, diltortar asarlar, falsafiy fikrlar bildirib kelajak avlod uchun qimmatli tafakkur mahsullarini qoldirib ketganlar. Chunki, musiqa san'atining turlari va cholg'ulari sadolari kamalakdek

rang barang. Eng muhimi hayotga, faoliyatga, xullas har bir boshlangan amalga kayfiyat va ishq uyg'otadigan ilohiy mo'jizadir. Shuning uchun bo'lsa kerak, azaldan uning imkoniyatlarini cheksizligi, namunalaridagi ohanglarning mo'jizakorligi, insoniyat kamolotiga xizmat qiluvchi xususiyatlarga ega ekanligi bilan xalqimiz ma'naviy kamolotida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu sababli butun bir musiqashunoslik ilmi vujudga kelgan. O'zbek milliy maqomlarini tarixini o'rganishda ham ko'plab manbalarga egamiz va bu ilmni rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Ilk nishona soni e'tiboringizga havola etilayotgan "Maqom" ilmiy-uslubiy jurnalining asosiy maqsadi, ana shu o'tmish allomalarining musiqiy ilmiy tadqiqotlarini, xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga aylangan an'alarini, avlodlar uchun fanda, ilmda va amaliyotda ibrat darajasida ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan va o'zining ilmiy-ma'naviy boyliklari bilan davrlar tafakkurini bezab kelayotgan ulkan merosimizni yosh avlodga anglatish, bahramand etishdan iboratdir. Ayniqsa hozirgi davrimizda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda buyuk xalqimizning boy ma'anaviy



dunyosi, yuksak ma'naviyatini azaliy an'analarini qayta tiklashga berilayotgan e'tiborlari, xalqimizning o'tmishda yaratilgan eng go'zal an'analar va ibratli ijodiyotidan kelajak avlodni bahramand etish har birimizning oliy maqsadimizdir. Musiqa ilmi tadqiqiga xizmat qiluvchi yangi jurnalimizga "Maqom" deb nom berganmizning ham zaminida o'ziga xos falsafasi bor. Avvalo, har bir ishning oliy "maqom"iga erishishga ishora bo'lsa; ikkinchidan moziydan darak beruvchi millatimiz namoyandalarning ilm-fanda yetishgan olamshumul amallarini "maqom"lar orqali tasnif etish; uchinchidan, o'tmish allomalar an'anasini zamon ruhiga mos tarzda talqin etib yoshlar tafakkuriga singdirish; badiiy adabiyot, mumtoz she'riyatda tarannum etilgan ma'naviy merosimizni "maqom" oraqi kelajak avlodlar qalbiga singdirishdir.

Unutmaslik kerakki, albatta, yangi zamon, yangi davr o'zining umumbashariy va milliy omillariga ega. Ularning davr taraqqiyot nafasi bilan hamohang rivojlantirish muhim masala. Bu o'rinda yoshlar uchun, mushtariylar uchun imkon yaratish yoki turtki berish, to'g'ri yo'lga solib ilhomlantirish bizning vazifamiz, qolaversa davrimiz talabi ekanligini doimo esda saqlashimiz lozim. Zotan, hozirgi "internet" davrida moziyning durlar dunyosini eslatish va ularga asoslanish kelajakda ulkan ijobiy samaralar berishi begumondir. Buning uchun bizda yetarli darajada merosimiz, azaliy an'analarimiz va buyuk ijro maktabimiz bor.

Meros o'zi nima? Meros - har bir xalq ma'naviyatining xazinasidir. U asrlar

davomida ijodkorlar, bunyodkorlar mehnatining samarasi sifatida bunyodga kelgan va xalq ijodiyotining milliy qadriyatlar asosida yaratilgan eng go'zal namunalar avlodlar tomonidan tan olinib, keyingilariga o'tib kelgan. Merosning buyuklashishi esa, xalq farovonligi, yurt tinchligi, ma'naviyati, ma'rifati rivojining inikosi demakdir. Bu o'z-o'zidan bo'lgan emas. Uning zaminida avvalo xalqning shunga moyilligi, intilishi, niyati, e'tiqodi, kuchi, qudrati va albatta rahnamoligi turadi. Pirovardida iste'dodlarning olamshumul kashfiyotlari, umumbashariyat ma'naviy dunyosini boyitishdagi ilmiy meroslarining ahamiyati turadi. Shu bois, har qanday iste'dod o'z mehnati bilan ushbu merosga o'z hissasini qo'sha olishi, davrlar osha yashab, ta'sir etib, rivojlanishi meros degan buyuk xazinadan joy olishiga asos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan bizning ajdodlarimizning ma'naviy dunyosi o'zining purma'noligi, samaraliligi, serqirraligi bilan alohida ajralib turadi.

Shu bois jurnalimizning ko'lamini iloji boricha kengaytirishga harakat qildik. Oddiy musiqiy ta'limdan boshlab toki olamshumul ilmiy tadqiqotlargaacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olish uchun mo'ljalladik. Eng muhimi, har bir rukn ilmiy asoslanishi, amaliyotda kamol topgan bo'lishi, ta'lim va ilmiy jarayon uchun aniq ma'lumotli asos bo'lishi va uning rivojiga xizmat qilishining muhimligi inobatga olinadi.

O'zi, aslida ham musiqa san'atimizning tarmoqlari ko'p va beqiyos milliy, ilmiy va amaliy an'analar negizida jilvalangan. Madaniyatimizning milliy qadriyatlari bilan sug'orilgan bebaho go'zalliklari, har



bir davr kesimida xalqimiz iste'dodlari ijodida ifodasini topgan. Eng oddiy kuylardan tortib toki, ular bolalarga xos bo'ladimi yoki to'y-marosimlari bilan bog'liqmi, mehnat jarayonini ifodalaydimi, ularning hammasini o'z qadri, joyi va ahamiyati bor. Chunki ularda toki mukammal "Shashmaqom" namunalarigacha xalqimizning ichki dunyosi, mazmunli hayoti, ijodi, ruhiyati, ma'naviyati, o'tmishi va kelajagi ana shu betakror ohanglarda mujassam topgan. Ohanglar ham o'zidan o'zi yaralmagan. Ularni xalq orasidan chiqqan iste'dodlar yaratganlar. Xalqimiz tomonidan kuylab kelingan. Eng sara, milliy an'analarga javob beradigan va eng qizig'i xalqimizning o'zi tomonidan e'tirof etilganlari avlodlar tomonidan davom ettirilgan. Shu bois bu jarayonga jurnalimizda alohida e'tibor qaratilib, ularni amaliy va ijodiy mezonlariga alohida ruknlar berilgan.

An'anaviy musiqa merosimizning yangi-yangi zamon ruhidagi namunalar bilan boyib, meros tarkibidan o'rin olayotgan namunalarni ham alohida rukn orqali yoritish ko'zda tutilgan. Buning sababi, ma'nan raso, shaklan mukammal va eng muhimi mazmunan milliy mezonlar asosida yaratilgan yangi ijodiy namunalar rivojlanish jarayonining asosi sifatida e'tiborga loyiqqligini ham aytish lozim. Aynan ana shu jarayon musiqamizning porloq yo'lini va ma'naviyatimizning isitqibolini belgilab kelgan. Bu jarayon jurnalimizning eng qiziqarli sahifalaridan o'rin oladi. Chunki rivojlanish mezonlarini amaliy namunalar bilan ko'rsatib, tahlil qilib beradigan holatlarda mushtariylarga taqdim etiladi.

Bizning xalqimiz boy musiqiy merosga ega dedik. Bu merosni yaratgan, ijro etib avlodlarga qoldirgan va biz uchun ibratga aylangan sozanda-yu xonanda va bastakorlarimiz talaygina. Ular bizning musiqamiz targ'iboti yo'lida ijod etgan san'atimiz namoyandalari hisoblanadi. Ular bashariyatni o'zlarining betakror san'atlari bilan mahliyo etgan, hayotlarining mazmuniga aylanib betakror meros qoldirishga erishgan. Ularning xalqimiz qoldirgan ijroviy meroslari doimo yangi avlod uchun ibrat sifatida xizmat qilib kelgan. Jurnalning alohida sahifasida siz mushtariylar xalqimizning ibratli san'atkorlari xususida doimiy tarzda asl va yangi ma'lumotlar bilan tanishib borasiz.

"Maqom" jurnali xalqaro jurnallar andozalari va mahalliy turdosh nashrlar tajribasiga tayangan holda o'ziga xos ilmiy yo'nalishiga ega bo'ladi. Asosiy urg'u maqom ilmi namoyandalari merosini targ'ib etishga beriladi va bu "Maqomdon" rubrikasi ostida e'lon qilib boriladi. Butun iste'dodini maqom ijrochiligiga baxshida qilgan, shu sababli mashhuri jahon bo'lgan hofiz va hofizalar ijod maktabi "Maqom mening taqdirimda" rubrikasi bilan o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Mohir sozanda va bastakorlar ijodi haqidagi qiziqarli maqolalar "Kel, ey mutrib" rubrikasi ostida jurnal sahifalaridan joy oladi.

Jurnalning asosiy vazifalaridan biri maqom san'ati tarixi, nazariyasi, ijro talqinlari, mumtoz merosimizning o'rganilmagan qirralarini ilmiy kashf etish bo'lib, "Yangi tadqiqotlar" rukni mana shu maqsadga kamarbastalik qiladi.



Maqom san'atining ashulalari sharq she'riyati bilan chambarchas bog'langan. Aruz vaznida bitilgan g'azallar maqom san'atining asosiy g'izosi sanaladi. Aruz vazni qonun-qoidalarini yaxshi bilmay turib, maqomiy qo'shiqlar ma'nosini bilib bo'lmaydi. Shu maqsadda "Mumtoz g'azallar tahlili", "Aruz saboqlari" ruknlarida ilmiy-ta'limiy maqolalar muntazam ravishda berib borilishi rejalashtirilgan.

Boshqa musiqiy nashrlardan farqli ravishda yosh tadqiqotchilarga yordam tariqasida "Retro" ruknida olimlarimizning noyob maqolalari originali izohlar bilan berib boriladi. Chunki, ko'pgina noyob ilmiy maqolalar muallifi va nomi maqoladan maqolaga, tadqiqotdan tadqiqotga ko'chib yurgani bilan asliyatini aksariyat tadqiqotchilar o'qish imkoniyatidan mahrumligi ham sir emas.

Biz faqat o'z maqom san'atimizni tadqiq etish va targ'ib etish bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Shuni inobatga olib "Jahon xalqlari maqom san'ati" ruknida xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy asarlariga ham munosib o'rin ajratamiz. Ayni kunlarda viloyatlarimizda

faoliyat ko'rsatayotgan namunali maqom ansambllari faoliyati va yutuqlari ham yoritib boriladi. Shuningdek, jurnalda iste'dodli yosh maqomchilar ijodiga doir materiallarni yoritish uchun "Yosh maqomchi" rukni tashkil etilgan.

Maqom san'ati tarixi, nazariyasi, amaliyoti, mumtoz adabiyot tadqiqi bilan shug'ullanuvchi tajribali va boshlovchi mualliflarimizni biz bilan hamkorlik qilishga chorlaymiz. Ular uchun tahririyatimiz dargohi hamisha ochiq. O'ylaymizki, "Maqom" ilmiy-uslubiy jurnali xalqimizning uzoq yillardan buyon kutgan va sog'ingan, musiqiy merosimiz taqdiri bilan o'rtoqlashadigan, yangi kelajak avlodimizning ma'naviy dunyosini shakllantiradigan mavzularda maslahatlashadigan, eng kerakli mavzularni yoritishda kengashadigan davriy ilmiy to'plam darajasiga ko'tariladi.

Yangi O'zbekistonga, uning san'atsevar xalqiga yangi jurnal muborak bo'lsin!

"Maqom" jurnali umrboqiy maqom san'atimiz xazinasini dunyoga ko'z-ko'z qilishga, millatimiz bulbullari bo'lmish otashqalb hofizlar va sohir qo'lli mohir mutriblar ijodini ilmiy jihatdan yoritishga doimo xodimu chokar!



## MAQOMDON USTOZ IS'HOQ RAJABOV

Oqilxon IBROHIMOV

san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Annotatsiya:** Qomusiy olim, o'zbek an'anaviy musiqasining yirik bilimdoni, san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Risqiyevich Rajabov boy ilmiy meros qoldirdi. Alloma o'zining maqomot masalalari va o'rta asrlarda bitilgan musiqa risolalariga oid salmoqli tadqiqotlari bilan musiqa ilmining maqomshunoslik, musiqiy manbashunoslik kabi fan tarmoqlari shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. I. R. Rajabovning maqom ta'limoti hozirgi kunga qadar ushbu mumtoz san'at mohiyatini anglash va tadqiq etish borasida ilmiy poydevor yanglig' muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so'zlar:** alloma, ashula, maqom, Shashmaqom, risola, usul, ritm, kuy, tasavvuf, manbashunoslik.

**Аннотация:** Ученый энциклопедист, крупнейший знаток узбекской традиционной музыки, доктор искусствоведения Исхак Рискиевич Раджабов оставил богатое научное наследие. Его перу принадлежат крупные научные работы, посвященные проблемам макомата и исследованию музыкальных трактатов средневековых авторов. Своими трудами он внес огромный вклад в становление таких отраслей музыковедческой науки, как макомоведение, музыкальное источниковедение. Его учение о макомах и по сей день служит фундаментальной научной основой при осмыслении и исследовании феномена этого классического музыкального искусства.

**Ключевые слова:** ученый, ашула, маком, Шашмаком, трактат, усуль, ритм, мелодия, тасаввув, источниковедение.

**Abstract:** The scientist encyclopedist, a great connoisseur of Uzbek traditional music, doctor of art criticism Iskhak Riskiyevich Radjabov left a rich scientific heritage. He is the author of major scientific works devoted to the problems of maqomat and the study of musical treatises of medieval authors. Through his works, he made a huge contribution to the formation of such branches of musicological science as maqomology, musical source studies. His teaching about maqoms still serves as a fundamental scientific basis for understanding and researching the phenomenon of this classical musical art.

**Keywords:** scientist, ashula, maqom, Shashmaqom, treatise, usul, rhythm, melody, tasavvuf, source study.

Mustaqil Vatanimizda chinakam qadr-qimmat topayotgan mumtoz maqomlarning ayni paytda jahon madaniyati uzra ham saodatli cho'qqilar sari yuksalishida yaqin o'tmishda yashab, murakkab shart-sharoitlarda o'zlarining ilmiy-amaliy faoliyatlari bilan bugungi hayratomuz ijodiy yutuqlarning tamal toshini qo'ygan ulug' ustozlarning xizmatlari beqiyos, albatta. Xususan, Rajabiylar sulolasining yirik namoyandasi, milliy musiqa merosimizning qomusiy

bilimdoni, san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Rizqievich Rajabov (1925-1982) yaratgan maqom ta'limoti bugungi o'zbek musiqashunosligida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni bir qadar anglash uchun ustoz olimning musiqa ilmi va amaliyoti jabhalarida bosib o'tgan sharafli yo'liga bir nazar tashlash kifoya.

Atoqli tanburchi-sozanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rizqi Rajabiy (1887-1977) oilasida tavallud topgan Is'hoq Rajabov padari



buzrukvoridan dutor va tanbur chertish mashqini olgan va kelgusida shu cholg'ularning mohir ijrochisi bo'lib tanilgan edi. Ota va o'g'ilning tanbur-dutor jo'rnovozligida magnit tasmalariga muhrlangan va hozirga kunda O'zR FA San'atshunoslik instituti fonoxazinasida saqlanayotgan "Miskin", "Nasrullo", "Munojot", "Abdurahmonbegi", "Samoi Dugoh", "Garduni va Ufari Segoh" kabi ko'plab mumtoz maqom kuylari shundan guvohlik beradi. "Is'hoq Rajabovning zavq bilan dutor yo tanbur chalib, biroz bo'g'iq, lekin latif tusli ovozda xirgoyi qilishi ko'plarga xush yoqar, manzur edi" [1:16].



qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi

O'rta Osiyo davlat universitetining Sharq tillari fakultetida tahsil olgan (1950 yili tamomlagan) hamda fors-tojik tili barobarida mumtoz she'riyat (aruz) qonun-qoidalarini mukammal o'zlashtirgan Is'hoq Rajabov maqom san'atining tarixiy va nazariy masalalarini o'rganishga doim chanqoq bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining aspiranti bo'lgan davrida institut qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan o'rta asrlarga oid arab imlosida bitilgan ko'plab musiqiy risolalarning asl, noyob nusxalarini bevosita o'qib o'rgandi va shu asnoda o'tmishdagi mualliflarning ilmiy asarlarini yuqori malakali darajada sharhlay oladigan mutaxassis ham bo'lib yetishdi. Bu intilishlarining samarasi o'laroq u 1955 yili Sharq musiqa risolalari tadqiqotiga doir nomzodlik dissertatsiyasini Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahridagi ixtisoslashgan Ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya

qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi

Is'hoq Rajabov 1955 yildan e'tiboran O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida ilmiy xodim bo'lib ishlarkan, maqom san'atini yanada teran ilmiy o'rganishga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji kundan-kun ortib bordi. Shu ixlosi uni San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutiga chorladi. Bu nufuzli dargohda 1961 yildan to umrining oxiriga qadar "Musiqi tarixi" sho'ba mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatdi va ulkan ilmiy ishlarni ro'yobga chiqardi. Jumladan, 1963 yili uning "Maqomlar masalasiga doir" nomli salmoqli ilmiy monografiyasi nashr etildi, shuningdek, "Qutbiddin ash-Sheroziy musiqiy risolasi", "Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati", "Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati" kabi qimmatli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi, ko'plab ilmiy va ommabop maqolalarni maxsus to'plam, Respublika gazeta va jurnallarida e'lon qildi. Ushbu



tadqiqotlar xozirgacha musiqa kasbiy ta'limi uchun eng muhim asos manbalar bo'lib xizmat qilmoqda.

1971 yili Is'hoq Rajabov Yerevan shahrida faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashgan Ilmiy kengashda "Maqomlar" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va "Musiqa san'ati" (17.00.02) ixtisosligi bo'yicha o'zbek olimlaridan birinchi bo'lib san'atshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Is'hoq Rajabov ilmiy merosida ustozona musiqaning eng murakkab va mukammal zuhuri bo'lgan maqomlar mavzui ustuvordir. Zotan, amakisi akademik Yunus Rajabiyning "Shashmaqom"ni to'plash va ijrosini yozib olish yo'lidagi amaliy faoliyati uning musiqashunoslik bilan maqsadli shug'ullanishi uchun poydevor vazifasini o'tagan edi. Bu borada chinakam qomusiy bilimga ega alloma qadim va navqiron bu san'atning tarixiy-nazariy masalalarini mushtarak etgan yangi ilmiy ta'limot yaratishga muvaffaq bo'ldi. Maqomlarni o'rganishda tub burilish nuqtasi bo'lgan bu ta'limotning asosiy mazmuni "Maqomlar masalasiga doir" ilmiy monografiyasida o'z aksini topgan.

Is'hoq Rajabovning ilmiy salohiyati bilan o'sha davr musiqashunosligida mavjud bir qator noaniq ma'lumotlarga oydinlik kiritildi, muammo bo'lib turgan jumboqlar o'z yechimini topdi. Quyida shulardan ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz. Chunonchi, ustoz-olimning "Maqomlar masalasiga doir" nomli monografik tadqiqoti nashr etilguniga qadar aksariyat olim va amaliyotchilar orasida o'zbek maqomlarining kelib

chiqish negizlarini to'g'ridan-to'g'ri arab-fors musiqasiga bog'lab qarash keng yoyilgan taxminlardan biri bo'lgan.

Bu taxmindan farqli o'laroq Is'hoq Rajabov maqomlarning xalq musiqasi negizida vujudga kelishi g'oyasini ilgari surdi. Zero, maqom turkumlari "umuman xalq musiqasi boyliklari bazasida yaratilgan va ular asosida doimo boyib takomillashib boradi hamda o'z navbatida xalq musiqa madaniyati taraqqiyotiga barakali ta'sir ko'rsatadi" [2:126].

Maqomdon olimning birlamchi yozma manbalarni atroflicha tahlili asosida kelgan mantiqiy xulosasiga ko'ra, "Shashmaqom" majmuasi "O'n ikki maqom" tizimining XVIII asrning birinchi yarmiga qadar davom etgan tadrijiy rivoji o'laroq o'zbek-tojik xalqlarining mustaqil musiqa janri sifatida Buxoro saroy madaniyatida uzil-kesil shakllangan [2:124-125].

Shuningdek, qayd etilgan monografik tadqiqotda "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" xususida ham qimmatli fikr-mulohazalar bildirilib, ularning "Shashmaqom" bilan o'zaro bog'lanish nisbatlariga oid malakali ko'rsatmalar bayon etilgan [2:244-268]. Qolaversa, Is'hoq Rajabovning samarali izlanishlari pirovardida o'zbek musiqashunosligi endilikda ma'lum va mashhur bo'lgan namudlar tizimining ilmiy tasnifiga ega bo'ldi. Ma'lumki, maqom asosiy aytimlari (Saraxbor, Talqin, Nasr kabi)ning mazmunan eng muhim nuqtalarini avjlar tashkil etadi. Lekin musiqa amaliyotida avj sifatida qo'llanib kelinayotgan namudlar, ularning kelib chiqish manbai, maxsus nomi va umumiy soni aniqlanmagan, binobarin, maqom





sho'balarning asl mazmun-mohiyati ham ilmiy jihatdan asoslab berilmagan edi.

Is'hoq Rajabovning salohiyati bilan bu qorong'u masalaga ham oydinlik kiritildi: "namud" tojikcha ko'rinish, kelish ma'nosidagi so'z bo'lib, muayyan kuy yoki ashulaning ma'lum parchasini boshqa ashula yo'llari tarkibidagi ko'rinishi demakdir. Namudlar, ko'pincha, maqom sho'balarning boshlanishidagi kuy jumllaridan olinadi va ular boshqa ashulalarning avji sifatida foydalaniladi" [2:158].

Xullas, qahramonimizning "Maqomlar masalasiga doir" ilmiy monografiyasi nashr yuzini ko'rgan vaqtdan e'tiboran, o'zbek musiqashunosligi maqomlarni tadqiq etishda yangi sifat bosqichiga yuksala boshladi. Is'hoq Rajabov erishgan ulkan ilmiy muvaffaqiyatlar zamirida ustozning maqomlarni ham ilmiy, ham amaliy jihatdan mukammal bilishi muhim omillardan bo'lganligi shubhasizdir. Aynan shu omillar ham bois qomusiy olim e'zozli amakisi, ulkan ishlarga "qo'l urgan" akademik Yunus Rajabiyning eng yaqin maslakdoshi bo'lgan.

Ma'lumki, 1990 yillarga kelib milliy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan musiqiy meros namunalarini atroflicha ilmiy o'rganish va obektiv yoritish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, endilikda maqomlar shaklu shamoyilini tasavvuf ta'limoti kesimida o'rganish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi quvonarlidir. Afsuski, Is'hoq Rajabov faoliyat ko'rsatgan davrda bunday imkoniyatlar bo'lmagan edi. Fikrimizcha, ustoz olim maqomlarning tasavvuf bilan bog'liq mazmun-mohiyatini teran anglagan, ammo, davr sharoitiga ko'ra, bu

mavzuni ochiq-oydin yozma holda oshkor etmagan. Biroq alloma bu boradagi muhim ma'noni o'quvchiga yetkazish yo'lida qarama-qarshi fikrlar asosiga qurilgan o'ziga xos bayon uslubini tanlab, xiradmand ish tutgan edi.

Shunday holatni quyida keltirilgan iqtibosda anglash mumkin: "XVI asrdan boshlab o'rta asr Sharq fani va madaniyatida islomning ta'siri kuchaya boradi. Shu davrlar ichida yaratilgan fan va san'atga oid risolalarda mistika ta'siri shuning uchun ham kuchlidir. Madaniyat va san'atning eng yaxshi asarlari feodal despotizmi hukmron bo'lgan og'ir sharoitda, madaniyat taraqqiyotiga to'siq bo'lib kelgan islom ideologiyasi (hozir bu so'zni "mafkurasi" deb ataymiz - Muallif) bilan kurashlarda yaratildi. Bu davrlarda ayniqsa musiqa qattiq ta'qib etilgan edi" [2:123].

Muallifning ushbu mulohazalarida bir-birini inkor etuvchi fikrlar qo'llangani ayon. Bunda, bir tomondan, islom ideologiyasi madaniyat taraqqiyotiga to'siq bo'lgani, ayniqsa, musiqa qattiq ta'qibda bo'lgani qayd etilsa, ikkinchi tomondan – aynan shu davrlarda madaniyat va san'atning eng yaxshi asarlari yaratilgani e'tirof qilinadi. Shunday to'siq va ta'qiblarga qaramay bu davrlarda, inchunin, musiqa san'atida "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari"ning birin-ketin yuzaga kelgani ajablanarlidir.

Holbuki, muallif ushbu maqomlarning har birini kitobning keyingi sahifalarida alohida-alohida boblarda maroq bilan tavsif etadi. Agar chindan ham islom mafkurasi madaniyat taraqqiyotiga to'siq bo'lib, musiqa qattiq ta'qib



ostiga olinganida hozirga qadar butun bashariyatni hayratga solayotgan mumtoz maqomlarni yaratish imkoni bo'lmadi, albatta. Aslida, fikrlar ifodasidagi bunday "nomantiqiy" bayon uslubi o'sha davr ilg'or ijodkorlari va olimlari tomonidan "san'atning sinfiyligi" ta'limotiga istehzo tarzida qo'llangan [3:8-9].

Shu o'rinda yuqorida keltirilgan iqtibosdagi "mistika" so'zini sharhlab o'tish joiz. Mutaxassislarga yaxshi ma'lumki, o'sha davr mafkurachilari tasavvufning barcha ko'rinishlariga birgina "mistika" so'zi bilan salbiy baho berishlari odat tusini olgan edi. Lekin Is'hoq Rajabov, nazarimizda, bu iborani qo'llash orqali boshqa bir muhim ma'noni ham ifodalashni, ya'ni zukko o'quvchi maqomlarning tasavvufga aloqadorlik jihatini fahmlab olishini ko'zlagan. Binobarin, shu maqsadda qo'llangan "mistika" iborasi ushbu matn kesimida ochqich yanglig' ahamiyatli so'zdir.

Is'hoq Rajabov o'zining ilmiy faoliyati davomida to'plagan boy ilmiy xazinasini va teran bilimni iqtidorli yoshlardan darig' tutmadi. Xususan, allomaning "Maqom asoslari" o'quv-uslubiy ishlanmasi va o'rta asr musiqiy risolalariga oid samarali ilmiy izlanishlari negizida maxsus ta'lim muassasalari o'quv tizimiga "Maqom asoslari" va "Musiqiy manbashunoslik" fanlari joriy etildi.

Olim "O'rta Osiyo xalqlarining musiqasi madaniyati bo'yicha manbashunoslik", "Maqom asoslari" kabi mazmunan yangi o'quv fanlariga oid alohida ishlab chiqqan dasturlari asosida 1972–1979 yillari Toshkent davlat konservatoriyasi talabalariga ma'ruzalar o'qidi, "Musiqashunoslik sinfi"

bo'yicha ustozlik qildi [4:23]. Shuningdek, Is'hoq Rajabov ilmiy rahbarligida Ravshan Yunusovning "Черты общности и различий в макомах мурамах" mavzuida bajargan nomzodlik dissertatsiyasi 1983 yili San'atshunoslik instituti huzuridagi ixtisoslashgan Ilmiy kengashda himoya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan. Bugungi kunda shogird Ravshan Yunusov professor maqomida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqasi san'ati instituti talabalariga "O'zbek musiqasi madaniyati" va "Sharq xalqlari maqomlari" o'quv fanlaridan saboq berib kelmoqda.

Atoqli maqomshunos olim Is'hoq Rajabovning ilmiy merosi va erishgan natijalari zamonaviy o'zbek musiqashunosligi uchun alohida qimmatli va qadrlidir. Zotan, allomaning samarali ilmiy izlanishlari soha rivojiga barakali ta'sir ko'rsatdi, serko'lam tadqiqotlari negizida maqomshunoslik va musiqiy manbashunoslik kabi fan tarmoqlariga asos solindi. Ustoz yaratgan ilmiy ta'limot maqomlar ("Buxoro Shashmaqomi", "Xorazm maqomlari", "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" va b.) mavzuida shu kunga qadar shakllangan ilmiy qarashlar hamda o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan bajarilayotgan yirik tadqiqotlarga poydevor yanglig' muhim zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda "Maqomlar" nomli yirik ilmiy asarining San'atshunoslik instituti olimlari tomonidan nashrga tayyorlanib, 2006 yili chop etilgani madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi.

Qomusiy olim, o'zbek an'anaviy musiqasining yirik bilimdoni, san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq



Rajabov asrlarga tatigulik boy ilmiy meros qoldirdi. Bejiz emaski, “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar” dasturida, jumladan, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Faxriddin Roziy, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy kabi allomalarning ilmiy merosi qatorida Is’hoq Rajabovning “Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug‘ati”

va “Maqom asoslari” qo‘lyozmalarini ham nashrga tayyorlab chop etish ishlari belgilab qo‘yilgan. Qolaversa, ikki jildlik “Maqom” ensiklopediyasini mazmunan tayyorlashda ham qomusiy alloma Is’hoq Rajabov yaratgan maqom ta’limoti o‘zining munosib aksini topmog‘i joiz. Shu kabi ishlarni amalga oshirish esa hozirgi davr o‘zbek musiqashunoslari oldida turgan muhim ilmiy vazifalardan biridir.

### *Adabiyotlar*

1. Oripov Z. Ustoz va olim. // “Rajabiyxonlik” ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–T., 1993.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.–T., O‘zadabiynashr, 1963.
3. Ibrohimov O. Maqomshunos alloma // Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O. Ibrohimov).–T., San’at, 2006.
4. Yunusov R. “Maqom asoslari” fani musiqa ta’limi tizimida.// “Rajabiyxonlik” ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–T., 1993.



## MUNOJATSHUNOSLIKKA KIRISH

**Ikromiddin OSTONAQULOV**

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti Munojot Yo'lchiyeva bilan tarix fanlari doktori, Turon FA akademigi ilmiy muloqoti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy muloqot-maqolada taniqli mumtoz ashulalar ijrochisi Munojot Yo'lchiyevaning ijodiy faoliyati bo'yicha matbuotda yoritilgan maqolalar mazmuni tasnif etilib, madaniy, estetik va ijtimoiy jihatdan tahlil etilgan. Undan adabiy tanqid, musiqashunoslik va san'atshunoslik sohasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

**Аннотация:** В данной научной статье-диалоге классифицируется содержание публикаций в прессе статей о творчестве известной классической музыки Муножат Юлчиевой и проводится их культурологический, эстетический и социальный анализ. Статью рекомендуют использовать для специалистов в области литературоведения, музыкаведения и искусствоведения.

**Abstract:** This scientific article-dialogue classifies the content of articles published in the press about the work of the famous classical singer Munojat Yulchieva and conducts their cultural, aesthetic and social analysis. The article is recommended for use by specialists in the field of literary criticism, musicology and art criticism.

**I. Ostonaqulov:** Munojotxon, avvalo, Sizni kechikib bo'lsa ham, Vatanimizning oliy nishoni - O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganingiz bilan chin yurakdan qutlayman. Bu oliy e'tirof izhori O'zbekiston fuqarosi uchun qanchalar aziz va qadrli ekanligini chuqur his etamiz. Sizning nomingiz ham adabiyot, san'at va madaniyat sohasi qahramonlari Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Zikir Muhammadjonov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Suima G'anieva, Ibrohim G'afurov kabi elimizning ardoqli farzandlari qatorida Vatan tarixi kitobiga oltin harflar bilan yozib qo'yildi.

**M. Yo'lchieva:** Suhbatimizni muborakbod bilan boshlaganingiz uchun tashakkur.

**I. Ostonaqulov:** "Maqom" jurnalining nishona sonida tabarrukan

siz haqingizda maqola berishni reja qilganimizga xayrixohlik bildirganingiz uchun ham rahmat aytishga burchlimiz. Siz bilan bu galgi suhbatimiz "avvalgilarga o'xshamas"ligini ta'kidlamoqchi edim. Zero, ilmiy jurnalimiz uchun muloqotimiz ham ilmiy yo'sinda bo'ladi. Bugun shu paytgacha Siz haqingizda matbuotda e'lon qilingan maqolalar, suhbatlar va interyular tarixi va saviyasi xususida mushohada yuritsak, shu bois suhbatimiz nomini "Munojotshunoslikka kirish" deb qo'ysak, qarshi bo'lmasangiz kerak?

**M. Yo'lchieva:** Mayli, noodatiy sarlovhangizda ham bir hikmat borligiga ishonaman. Shu paytda o'zim haqimda bosilgan materiallarni ko'z qorachig'imdek asrab yurganingga xursand bo'lib ketdim. Axir katta-kichik maqolalar mening ijod yo'limning o'ziga xos solnomalari, xalqimiz ziyolilarining



samimiy dil izhorlari, tarixiy hujjatlar hisoblanadi.

**I. Ostonaqulov:** Menga tanishish uchun taqdim etgan arxivgizni ko'zdan kechirar ekanman, ularning ko'plarini shaxsan avval o'qigan bo'lib chiqdim, faqat viloyat gazetolari va xorijdagilari men uchun yangilik bo'ldi. Ularni o'qirkanman, sizni ilk marta ko'rgan, qo'shiqlaringizni eshitgan damlarim yodimga tushdi (Siz haqingizda dastlab konservatoriyada birga o'qigan Ma'rufjon va Muxtorjon ismli musiqachi kursdoshlaringizdan - menga qarindosh ukalarimdan eshitgandim). Siz haqingizda berilgan ko'rsatuvlarni tomosha qilib, ijodingiz to'g'risida yozilgan maqolalarni o'qib kelganman. Shuning uchun qirq yillik ijod yo'lingizga manbaviy sayr qilsak. Aytingchi, ijodingiz uchun oddiy muxlislar so'zi sizga muhim bo'lganmi yoki san'atshunos, adabiyotshunoslar fikrlari muhim bo'lgan?

**M.Yo'lchieva:** Har ikki toifa so'zi, fikri muhim bo'lgan. Oddiy muxlislar so'zi va munosabatidan qanday qo'shiqlar kuylashim zarurligini aniqlab olganman bo'lsam, olimlar, shoir va adiblarning men haqimda yozgan publitsistik maqolalaridan ijod sirlari olamiga kirib borganman. Bilim olishga, o'z ustimda ishlashga harakat qilganman. Ularning mulohazalaridan ijodda va kasbiy pedagogik faoliyatimda foydalanaman, odamlar bilan muloqot madaniyatini o'rganaman. Masalan, shoir va yozuvchilar men haqimda yozishganda lirik she'riyat targ'ibotchisi, mumtoz shoirlarimizning mazmundor g'azallarini musiqa orqali xalqqa yetkazuvchi ijodkor ekanimga urg'u berishlarini his etib

turaman. Chunki ularning maqolalarida qo'shiq so'zining ma'nolari, unda bayon etilgan falsafiy tushunchalar talqiniga urg'u beradilar. Adabiyotshunoslar kuylayotgan g'azalim ma'nosini yurakdan his etib kuylashimni xohlashlarini bilib turaman. Bu kabi maqolalardagi e'tiroflar, istaklar, talablarning hammasi mening muallimlarim, saboq olarlarim sanaladi.

**I. Ostonaqulov:** Aksariyat maqolalarda Sizning biografiyangizga oid ma'lumotlar takror va takror eslatiladi, maqoladan maqolaga ko'chib yuradi. Ko'plari Siz biror bir unvon olgan yoki muhim konsert bergan vaqtlarda qozongan yutuqlaringiz aksadosi sifatida yozilgan bo'lib chiqadi. Jumladan, ko'plab maqolalarda "Munojot Yo'lchieva, 1960 yili 26 noyabrda Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi Shirmonbuloq qishlog'ida tug'ilgan. 1985 yili Toshkent davlat konservatoriyasini o'qib bitirgan. Unga 1991 yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni berilgan. 1994 yili "O'zbekiston xalq artisti" unvoni bilan taqdirlangan. 1995, 1997, 1999 yillari xalqaro konsertlarda ishtirok etib shuhrat qozongan. 1997 yili "Sharq taronalari" xalqaro festivalida oliy mukofot sohibasi bo'lgan.

1998 yili "El-yurt hurmati" ordeni berilgan. 2000 yildan "YuNESKOning insoniyat moddiy va nomoddiy merosini saqlash va e'lon qilish bo'limi" kollegiyasi a'zosi. 2001 yili "Ofarin" mukofoti sovrindori, 2004 yili "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni sohibasi, 2004 yili "BBC Word Misic Awards mukofotining Osiyo mintaqasi bo'yicha nominatsiya g'olibi. Uning ijodi



bo'yicha 2 ta film va 3 ta videofilm suratga olingan.

2021 yili Munojot Yo'lchievaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning farmoni bilan "O'zbekiston Qahramoni unvoni berilgan." deb yoziladi. Bu ma'lumotlar shunchaki, xabar emas, balki tarixiy manba sifatida hamisha matbuotchilar nazarida turishi kerak. Endi aniq bir maqolalarga munosabat bildirib o'tsangiz.

**M.Yo'lchieva:** Men haqimda "Saodat", "Guiston" kabi jurnallarda, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Xalq so'zi", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat" gazetalarida yozishgan. Har bir maqola asosan men bilan suhbatdan so'ng bitilgan. Keyingi yigirma yillikda nodavlat gazeta va nashrlarida ham turli intervyularim berib borilmoqda. Ularning bari men uchun aziz va qadrli. Menga ijodimning dastlabki paytlarida yozilgan maqolalar, intervyular ko'proq ta'sir ko'rsatgan. Chunki navqiron bo'lganim uchun ularni o'qib hayajonlanganman, xursand bo'lganman, muxbirlarning bergan savollariga shunchaki o'tkinchi ish uchun deb o'ylamasdan, balki ko'pchilik o'qiydi, imlo muxbirga tegishli bo'lsa ham, so'z meniki degan andisha bilan fikr yuritganman, Kelajakda shu kabi holatlar takrorlansa, qanday fikrlarni aytishim lozimligini chamalab borganman. Matbuotning iste'dodni tarbiyalashdagi xizmati shu bo'lsa kerak.

Xususan, o'zim uchun tabarruk maqolalar mashhur shoir va yozuvchilar tomonidan bitilgan maqolalar desam boshqa mualliflar ranjimaydi, deb umid qilaman. Masalan, 1986 yili "Saodat" jurnalining 11-sonida bosilgan iste'dodli shoir va jurnalist, bugungi kunda katta

olim darajasiga ko'tarilgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Mirzo Kenjabekning (Mirza Kenjaboev) "Munojot" maqolasi juda samimiy, aqlli va mehrli hayajon bilan bitilgan.

Bo'sh vaqtlarimda arxivimni varaqlab qolsam shoirimizning quyidagi so'zlarini qayta o'qib qolaman: "U avval ko'ngilli ikki insonning yorug' dunyoga munojoti edi. O'sdi. Qo'shiqlarga hamroh tutindi. Endi u butun o'zbek xalqining yoniq Munojotidir. U hofiza sifatida tanilgan saksoninchi yillarning boshlarida dunyoga kelgan qizaloqlarning ismi Munojot bo'ldi. Ne tong, qadim ohanglarga shaydolik tuyg'usini otonasi bu qizga bu qizga ismi bilan bergan ekanlar. Munojotni ko'proq kimlar tinglaydi va kimlar ko'proq yaxshi ko'radi? Munojotni, avvalo, o'z elini, o'z tilini, o'z musiqasini suyganlar qadrlaydilar. Olis zamonlardan kelayotgan to'lqin-to'lqin kuy va qo'shiqlar, avvalo, ko'ksida Vatani borlarni maftun etadi. Hafif, ya'ni vazni yengil kuylarga o'ch kishilar ham bugun bo'lmasa ertaga bu vazmin qo'shiqlarga, albatta qayriladilar. Xullas, Munojotni bedardlardan bo'lak hamma e'zozlaydi...

Munojot kuylayotganda O'zbekistonning barcha kengliklari ko'zga ko'rinaveradi. Daryolar buralib-buralib oqadi, sahrolar tebranadi, tog'lar to'lg'onadi, mudrayotgan daraxt shoxlaridan qorlar to'kiladi – bog'lar uyg'onadi. Ko'tarinki bir nido tilga keladi: Bu olamda she'ru qo'shiq bo'lmasa edi, hol ne kechar edi, ey ko'ngil!

Klassik ashulalarni aytish uchun ovozning o'zi yetarli emas, hofiz nazmni teran tushunmog'i, so'z qudratini dildan his etmog'i kerak. Munojot Yo'lchievani "O'zbek xalq musqasi"ning jild-jild



kitoblarida ko‘milgan taronalarga yor etgan barcha ustozlariga tashakkur aytmoq lozim. Navoiy, Fuzuliy, Uvaysiy, Huvaydo kabi shoirlarimizning o‘zmas g‘azallari Munojotning nomini ulkan anjumanlarga olib chiqdi. Anjuman – haqiqiy qo‘shiq yetib borgan yuraklardir. Bu yuraklarning tilagi bitta: Munojotning yonishlari bor bo‘lsin! Yurtimizda, O‘rta Osiyoda, umuman dunyoning biror burchagida fidoyi hofizamizni tinglaydigan qalblar bor ekan, xalqimiz “Bu bizning Munojotimizdir!” deb iftixor qiladi. Munojot kuylaydigan eng yaxshi qo‘shiqlar hali oldinda. Mirza Kenjaboev”.

**I. Ostonaqulov:** Naqadar huzurbaxsh so‘zlar!.. Siz bahona ijodkorning o‘z zamondoshlariga aytgan pandnomalari - bu! Zakovatli jurnalist o‘sha paytdayoq sizga butun xalqimiz tilidan oq fotiha bergan, sizning porloq kelajagingizni bashorat qilib, asosiy fikrni aytib qo‘ygan ekan. O‘tgan yillar esa bu bashoratni isbotladi.

**M. Yo‘lchieva:** Ha, hurmatli shoirimizga o‘sha paytlarda minnatdorchilik bildirganim yoki bildirmaganim yodimda yo‘q. Ammo, bugun samimiy, ustozona bildirilgan bu so‘zlar va tilaklar uchun u kishiga ta‘zim bajo aylayman, Umlari uzun bo‘lsin.

**I. Ostonaqulov:** Bu kabi samimiy fikrlar xalqimizning oydin va dilbar ijodkorlari, shoira va publitsistlari - O‘zbekiston xalq shoiri Oydin Hojieva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Qutlibeka Rahimboevalar qalamidan qog‘ozlarga to‘kilib, jurnallar sahifasidan manguga joy olgan. Bugun ularni o‘qib, sizni qaytadan kashf qilamiz, sohir jummalarni ko‘z yoshlarisiz o‘qib bo‘lmaydi.

Oydin opa “Hofizaning ovozi” maqolasida (“Saodat” jurnali, 1999 yil, 5-son) shunday so‘zlarni bitgan ekanlar: Ne qutlug‘ sahnalar, ne guldurosli olqishlarni ko‘rmadi Munojotxon? Ayniqsa, Vatan istiqloлга erishgach, Amerika, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Braziliyaning muxtasham konsert zallarida yangragan Munojot Yo‘lchieva qo‘shiqlari chindan mo‘jizaviy uchrashuvlar bo‘ldi. Buyuk mashshoqlar, hofizlar, daho ijrochilar san‘atiga baho bergan mazkur mamlakatlarning tomoshabinlari qudratli ovozida shiddatli tug‘yon va nafis hayajon balqigan bizning nozikkina, kamtargina, o‘zgarmas sochlari, fayzli chehrasi bilan sharqona ulug‘vor liboslari bilan suyumli Munojotxonimizni gullarga, guldestalarga chulg‘adilar. Mustaqil O‘zbekistonning bir timsoli deb tasannolar aytdilar... Parijning De Lyavil konsert zalida qo‘shiq aytarkan, sukunat va jimlikdan ba‘zan hofizaning o‘zi ham jinday xavotirga tushardi: Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Nodira, Furqat, Gadoyi, Haziniy, Abdulla Orif so‘zlari yolqini mahobatidan odam qalbi tilsimlanganday bo‘lardi.

Dunyoni qo‘shiq bilan zabt etish, yurak dunsini ovoz bilan egallash baxti hammaga ham nasib etavermaydi. Jahonga chiqadigan iste‘dodli farzandlari bor xalq saodatlidir, peshonasi yorug‘dir. Dunyoni maftun qilgan Halimaxonim, Tamaraxonim, Mukarramaxonim, Zulfiyaxonimdan so‘ng Munojotxonim va Yulduzxonim, Muyassarxonim va Nasibaxonim O‘zbekistonning yulduzi bo‘lib porlayapti. Munojotning shiddatkor, avji baland, tog‘ nasimiday mayin, jarangdor ovozida dunyoviy va ilohiy



ishq taronalari yangraydi. Bu maftunkor ovozga dutor, g'ijjak, chang va nay ergashadi, uchqun sochadi. Ovozning ipakday chiyranib, kumushday nur sochib, chinniday jarang berib, ud kabi nola qilishini, otashin baytlarga bu ovoz ziynat berishini, so'zni olovlantirishini his etadi tomoshabin - tinglovchi.

Munojot ashulalari tilidan, dinidan, millatidan qat'iy nazar barchaga tushunarlidir. Bugun o'zbek, O'zbekiston degan qutlug' nomni dunyoga tanitayotgan zamondoshlarimiz safida Munojot Yo'lchievaning borligidan suyinamiz. Xalq artisti, ikki o'g'ilning onasi, munis rafiqa va go'zal qalbli Inson, noyob iste'dod sohibasiga doim el-yurt hurmati yor bo'lsin, deymiz”.

**M. Yo'lchieva:** Ha, Oydin opa mening qo'shiqlarimdan ta'sirlanib shunday so'zlarni bitganlariga, bulbulnavo duolar qilganlariga tilim lol bo'lib qolgan. Bunday purma'no jumlar shodasini qanday to'qiy olar ekanlar? Xalq shoiri unvoni bu sohirqalam insonga bejiz berilmagan. Qutlibeka opa ham men haqimda salkam ocherk yozganlar, u ham “Saodat”da bosilib chiqqan.

**I. Ostonaqulov:** Onaxon jurnalimizning 1995 yil 5-sonida e'lon qilingan “Munojot” maqolasini aytmoqdasiz-da. Qutlibeka opa Xorazm vohasida tug'ilib, Farg'onada oliy ta'lim olgan! Mening fakultetdoshim. Ham Xorazm, ham vodiy ta'limini olgan ziyrak va fasohatli shoira juda ko'p ijodkorlar haqida o'ziga xos maqolalar yozgan. Har bir maqolasi qo'shiq kabi o'qiladi. Mana bu jumalarga razm solaylik: “Shirmonbuloq – ona yurt. Yorqishloq – “yor-yor” bilan borgan aziz

ostona... Toshkent – uni Munojot qilgan, munojotlariga najot bergan muqaddas qadamjo. O'zbekiston – Turkiston yodi qa'ridan qarog'iga suzib chiqaveradi. Munojotning ko'ziga yo'l ko'rindi: yo'l boshida farzandlari, eri, do'stlari...”

Vatanga muhabbat, elga farzandlik tuyg'usini bunchalar sodda jumalarda qo'g'irchoqdek so'zlar libosiga yo'rgaklab, o'quvchiga tortiq qilish uchun faqat Qutlibeka bo'lish lozim. Sizning Yorqishloqqa kelin bo'lib tushganingiz haqidagi ma'lumotni “yor-yor” bilan kirib borgan aziz ostona” jumalariga jo qilishda naqadar chiroyli tashbih ishlatilgan.

Sizning ijodingiz va shaxsiyatingiz to'g'risida Temur Ubaydullo, Qo'chqor Norqobul, Aleksandr Faynberg, Ruslan Shagaev, Mirzakarim Pirmatov, Adiba Umirova, Xulkar Tuymanova kabi jurnalist va shoirlar ham o'z vaqtida chiroqli maqolalar yozishgan. Ular bir joyga jamlansa katta kitob bo'ladi. Arxivimizda Ruslan Shagaevning ikki maqolasini ko'rdim. Jurnalistning didi baland, Milliy musiqamiz va sharqona ashulalarimizdan zavq olishi, sizning iste'dodingizga shaydoligi har bir satridan sezilib turadi. Fikrni lo'nda, aniq, faktlarga suyangan holda ifoda qiladi. Publitsistikani ilmiylik tamoyiliga bo'ysundira oladi.

“Oila davrasida” gazetasining “Fikrbazm” degan rubrikada siz bilan muxlislar savol-javobi jamlangan sahifa berilgan ekan. Sahifani nashrga tayyorlagan Umid Yoqubov uslubiga tan berdim. Mavzuga ham san'atshunoslik, ham sotsiologik jihatdn yondashilgan. Jamoatchilikning ijodingiz bo'yicha





fikrlari, ayrim baxsli masalalar muhokama qilingan. Siz ham anchagina “yuringizni bo’shatib” olgansiz.

**M.Yo’lchieva:** To’g’ri, bu savol-javob sahifasi 2014 yili 13 mart kuni bosilib chiqqan. “Mumtoz musiqa chalajon hujayrani tiriltiradi” deb nomlangan. O’shanda namanganlik bir talaba “Bilishimcha 80 desibeldan ziyod ovoz (tovush) quloq pardasi uchun juda shovqin hisoblanadi va tirik hujayralarni o’ldiradi. Ovoz kuchaytirgich yordamida tarqalgan tovush tungi klublarda 110 desibeldan ham oshadi. Hech ovozingiz necha desibel ekanligini o’lchab ko’rganmisiz?” deb savol bergan ekan. Bu savolga “Yo’q ovozim necha desiball ekani bilan qiziqib ko’rmaganman. Tovush kuchi 100 desibeldan oshgan kuy tirik hujayrani o’ldirsa, taralishi maromida ta’minlangan mumtoz kuyimiz chalajon hujayrani ham tiriltiradi. Fikrimcha, yoqimli ohang necha desibel bo’lishidan qat’iy nazar odamlarning miyasiga rohatbaxsh ta’sir etadi”.

**I. Ostonaqulov:** Asli bu savol kishi ovozing qancha darajada kuchli yoki kuchsiz ekani haqida emas, anjumanlarda kuy-qo’shiqlarni ovoz kuchaytirgich apparatlaridan foydalanish muammolariga tegishli bo’lgan ekan. Ochiq maydonlarda (stadion kabi ) ovoz kuchaytirgich moslamalari qancha yuqori qo’yilsa ham inson miyasiga salbiy ta’sir ko’rsata olmaydi. Ammo berk sahnalarda, to’yxonalarda kuy-qo’shiqlar yangraganda kolonkalarini bor bo’yicha ochib yuborish juda zarar keltiradi. Ayniqsa unga yaqin joyda o’tirgan odamga boshiga bolta bilan urgandan battar zarba uriladi.

Bu masalada tibbiyot xodimlari ko’p yozishadi. Bu borada men Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet Katta teatri binosi akustikasi zo’r bo’lgani uchun bemikrofon kuylanishiga qoyil qolaman. Afsuski, boshqa sahnalarimizda akustika muammosi umuman hisobga olinmagan. Toshkentda “Olimpiya” mehmonxonasi yaqinida doira shaklida qurilgan bir xonaqoh-masjid binosi bor, siz borib u yerda bemikrofon ashula aytib ko’ring, jarangdan hayratga tushasiz.

Shu sahifada yunusobodlik xonanda Mirzohid Mirsoatovning “Maqom ustasi bo’lish uchun yosh ijrochilarga qanday dastur yo qoidalarni aytgan bo’lardingiz?” degan savoliga san’at ta’limi muammolari doirasida muhim javobni aytgan ekansiz: “Ba’zan 10-12 yoshli musiqa maktabi o’quvchilari katta asarlarni ijro etayotganiga guvoh bo’lib, bir xursand bo’laman, bir achinaman. Negaki, odam zinadan bir bir bosib yuqoriga ko’tariladi, nihol birdaniga qattiq shamolga dosh bera olmaydi. Maqom aytish uchun tovushni sozlab, ong-qalbni shunga tayyorlab borish kerak. Bola yoshga mos asarni ijro etishi lozim. Maqom yo’lidagi ashulalarni aytirib kimnidir qoyil qoldirish uchun bolaning qalbiga, jismiga, ruhiyatiga, nutq apparatiga oxir yuk ortish yaramaydi. Buning o’rniga yosh iste’dodlar milliy cholg’ular va kuylar sirlarini o’rganishi, puxta musiqiy ta’lim olishi lozim. Sahna, ekran yoki katta davralarga shoshilish iste’dodni erta sindirib qo’yishi mumkin. Buni avvalo, yosh ijrochilarning ota-onasi va murabbiylari to’g’ri tushinishi, anglashi kerak”. Bu fikr san’atga aloqador



har qanday kishi uchun aytilgan desak xato bo'lmaydi.

**M.Yo'lchieva:** To'g'ri, shuning uchun ham musiqa va ashula san'atini yosh avlodga har tomonlama o'rgatish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa institutining alohida oliy ta'lim dargohi sifatida ta'sis etilishi zamirida ham mana shu oliy maqsad yotadi. Mana, endi musiqa va ashula san'atini yanada chuqur o'rganish va o'rgatishni yanada takomillashtirish niyatida "Maqom" jurnali ham tashkil etilmoqda. Bu jurnal yosh musiqashunos tadqiqotchilar ishlarini e'lon qilinishida yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Men haqidagi maqolalar, suhbatlar tarixiga sayr qilib, ancha-muncha masalalar xususida gaplashib qo'yibmiz. Meni quvontiradigan holat shuki, so'ngi yillarda maqomchi san'atkorlar ijodi, ijro uslubi bo'yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda. U shubhasiz yaqin kelajakda o'zining ijobiy samarasini beradi, ya'ni oliy san'at o'quv yurtlari, kollejlari va ixtisoslashtirilgan maktablari o'qituvchilarining ilmiy salohiyati yuqorilab boradi.

**I. Ostonaqulov:** Munojotxon, suhbatimiz so'ngida o'z muxlislaringiz va munojotshunoslaringizga qanday tilak va iltimosingiz bo'lsa, izhor qilsangiz.

**M.Yo'lchieva:** Bittagina iltimosim bor. Men haqimda iliq va samimiy so'zlarni yozishganda, maqom san'atini sharaflash uchun san'atning boshqa yo'nalishlarini huda-behuda pastga urmasalar. Qiyosda haddan oshmasalar. Yozayotganda kimnidir maqtash uchun kimnidir pastga urish hisobiga maqtash usuli adolatli bo'lmaydi. Har bir yo'nalishning o'z funksiyasi, maqsadi va uslubi bo'ladi. Birining o'rnini boshqasi bosolmaydi. Rang baranglik hikmati ham - mana shunda. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek "Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p..." Kimdir maqomni yoshligida, yana kimdir yoshi o'tgan sayin tinglaydi. Bu - ichki talab, ruhiy ehtiyoj hosilasi. Qo'shiq, mumtoz yoki zamonaviy bo'ladimi, avvalo inson kamolotiga xizmat qilsin, odamga kuch-quvvat, yashashga muhabbat hadya qilsin. San'atning mangu vazifasi ham aslida - shu.

**I. Ostonaqulov:** Bag'rikeng suhbat uchun katta rahmat, baxtimizga sog'-salomat bo'ling, oilangiz hamisha tinch va fayzli bo'lsin. Bosh Ustozingiz saodatmaob Shavkat Mirzaevga, sizga cholg'ularda jo'r bo'luvchisi mohir sozanda va mashshoqlarga, sevimli shogirdlaringizga ham tinglik-omonlik, ijodiy muvaffaqiyatlar yor bo'lsin.



## MUMTOZ NAVOLAR QOMUSI - O'ZBEK MAQOMI

**Ravshan YUNUSOV,**

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi,  
Yu.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa  
san'ati instituti professori

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek xalqi musiqiy hazinasida o'rin olgan mumtoz maqom san'ati haqida fikr yuritiladi. Uning boy tarixini o'rganish, bosib o'tgan rivojlanish yo'lini yoritish, janr xususiyatlarini tahlil qilishga oid ma'lumotlar sharhlanadi. Maqom turlaridan Buxoro "Shashmaqomi", Xorazm "Olti yarim maqomi", Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari hamda "yovvoyi maqom", dutor maqomlari, surnay maqom yo'llarining qomusiy xislatlariga urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** qadim, zamonaviy, an'ana, milliy, parda, maqom, mumtoz, ijod, ijro, bastakorlik, qomusiy, anjuman.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы макамов, занимающие достойное место в сокровищнице традиционного музыкального искусства узбекского народа. Уделяется внимание фактам его исторического развития, анализируются отличительные жанровые особенности. Вместе с тем выявляются энциклопедические свойства Бухарского "Шашмакома", Хорезмских макамов, Фергано-Ташкентских макомных циклов, а также других локальных видов узбекского макома.

**Ключевые слова:** древний, современный, традиция, национальные, лад, маком, классический, творчество, исполнение, энциклопедический, учение, форум.

**Abstract:** The article deals with the issues of maqoms, which occupy a worthy place in the treasury of the traditional musical art of the Uzbek people. Attention is paid to the facts of its historical development, the distinctive genre features are analyzed. At the same time, the encyclopedic properties of the Bukhara "Shashmaqom", Khorezm maqoms, Ferghana-Tashkent maqom cycles, as well as other local types of Uzbek maqom are revealed.

**Keywords:** ancient, modern, tradition, national, mode, maqom, classical, creativity, performance, encyclopedic, teaching, forum.

**21** lug'vor maqom san'ati Sharq tamadduni uzun tarixida ham, taqdiriga daxli bor xalqlarning hozirgi zamon kundalik madaniy hayotida ham ko'zga ko'rinarli o'rin egallaydi. Uning takomil ijod andozalari, puxta qonun-qoidalari, o'ziga xos ijrochilik an'analari, aslida, beqiyos badiiy va ilmiy salohiyatidan darak beradi. Hassos xonanda-yu sozandalar mumtoz maqom namunalarining noyob ijro talqinlarini mudom izlab topishda, iste'dodli bastakorlar esa milliy merosga tayanib yangi-yangi mualliflik asarlarini yaratishda qo'lga kiritgan yutuqlari alohida e'tirofqa loyiq. Binobarin, falsafasi teran, mazmun

doirasi keng, shakllari rang-barang, ifoda vositalari boy ashula va cholg'u yo'llarining chinakam gullab yashnashini kuzatish, undan bahramand bo'lish naqadar zavqli.

Musiqada maqom so'zi dastavval torli cholg'ular dastasida muayyan tovush hosil etiladigan "o'rin", "joy", ya'ni "parda" ma'nosida qo'llanilgani ma'lum. Taxminan XIV- asrdan e'tiboran mazkur atama tayanch tovushlar uyushmasi, tartiblashgan pardalar tizimi, keyinroq unga asoslangan ijod turi, navlari, mumtoz asarlar turkumi, muayyan musiqa uslubi kabi qator tushunchalarni



ham o'z ichiga oladi. Demakki, xalqaro miqyosda yaxshi tanilgan maqom kalimasi sharqona musiqa atamallari qatorida g'oyat serma'noligi bilan ajralib turadi. Maqom nomlarida yetib kelgan durdona bastakorlik mahsullarining esa umrboqiylik bag'ishlovchi xislatlari borligi nazarda tutiladi.

Jahon ilm-fani va madaniyatiga, xususan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa san'ati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan alloma ajdodlalarimiz Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub qomusiy tadqiqotlar, shuningdek Safiuddin Urmaviy, Mahmud Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Zaynulobiddin Husayniy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy va boshqalar yozib qoldirgan musiqaga oid risolalar mazmunida maqom tarixi va nazariyasi bir oz oydinlashgan ko'rinadi. Ya'ni, qariyb sakkiz asr mobaynida musiqaning fizik-akustik, falsafiy-estetik, ilmiy-nazariy va amaliy-ijrochiligiga tegishli masalalar muntazam ravishda yoritib borilgani qimmatli. Shunday ekan, zamonaviy maqomshunoslik fani asoschisi, atoqli manbashunos olim, ustoz Is'hoq Rajabov haqli ravishda: "... musiqa nazariyasini sharhlab berishdan maqsad uni jonli musiqa asarlari – maqomlar bilan bog'lashdan hamda musiqa amaliyotini umumlashtirib tushuntirib berishdan iborat edi", - deb izohlagan[1:11]. Bebaho yozma musiqiy yodgorliklar arab, fors va turkiy tilli xalqlar maqomotining rivojlanish jarayoni bosqichlarini aks ettiradi, albatta.

Markaziy Osiyo xalqlari musiqa san'atida kasb-korlikning yuzaga kelishi ilk davlatchilik paydo bo'lishiga asoslanib,

Kushon podsholigi davriga oid ashyoviy topilmalar bilan dalillangan. Zotan, og'zaki an'anadagi bastakorlik ijodiyoti shahar madaniyatiga xos badiiy voqelik sifatida gavdalanadi. Ammo uning hayotdagi mazmun-mohiyati yuz yilliklar osha Sharq mumtoz she'riyati bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Zero maqom ijodiyotida asosan ishqiy, falsafiy, ilohiy, pand-nasihati yo'sindagi go'zallikka yo'g'rilgan g'oya va mavzular baralla tarannum etiladi. Shu toifa katta-kichik hajmdagi aytilmalar, uzun-qisqa cholg'u navolar necha-necha avlod malakali tinglovchilarning eng qimmatli ko'ngil mulkiga aylanganini tasavvur etish qiyin emas.

Maqomlar musiqasi ovoz va soz vositasida, ularning yakka tartibda yoxud jo'rovoz va jo'rnavozlikdagi ko'rinishlarida jonlanavergan. U mahalliy xalqlar bitmas-tuganmas ijodiyotining she'riy va musiqiy manbalaridan oziqlanib rivojlanishda davom etgani qimmatlidir. Shuningdek, bu toifa bastakorlik mashqlari saroy marosimlariga moslangan taqdirda aynan maqom tafakkuri ta'siri ostida sayqallangani kuzatiladi. Har yangi zamonda yaralgan yoki qayta ijodiy talqin etilgan kuy va ashulalar maqomot sho'balariga xos parda tuzilmalari qobig'ida yashirin saqlanadi go'yo. Mumtoz kuy-ohanglar, ularning og'ir va yengil ijro yo'llari tartibli almashinuv harakatida ustozdan shogirdlar xotirasiga mantiqan silliq o'tib qoladi. Bunday asarlar oddiy va murakkab vazn-usullarda, katta va kichik shakllarda bo'lib, ijrochilikda shirador ijro bezaklari bilan yanada boyitib boriladi.



O'rta asr Islom Sharqi musiqiy ilm-fanida "O'n ikki maqom" tizim darajasida ishlab chiqilishi maqomot salohiyati xalqaro ko'lamda nufuzli bosqichga ko'tarilganini anglatadi. Xususan XIII- asrdan XVII- asr oxiriga qadar, ya'ni besh yuz yillik tarixiy davr mobaynida maqom mezonlari kasbiy musiqa ijodkorligi va ijrochiligi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. O'rnatilgan tartibga ko'ra, asosiy parda uyushmalari mukammal sanalib, har biri tabarruk nomi hamda mavqeiga yarashgulik o'ringa musharraf bo'ladi. Darvoqe, hali-hamon hamkasblar yodida e'zozlangan maqomning bosh ohangi tayanch pardalarning o'zaro nisbatidan yuzaga keltirilgani seziladi.

Shuningdek, turli vohalar musiqa amaliyotida maqom yo'llari erkin badihago'ylikda ham, turlicha vazn-usullarga moslangan holda ham qo'llanilaveradi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib saralangan namunalar saroylarda xizmat qilgan mashhur san'at ustalari hamda shahar ahli ziyolilari va davlatmand kishilar davrasida tanilgan xonanda-yu sozandalar xotirasiga og'zaki ravishda o'tadi. Va shu zamon, shu makonning ma'naviy ila ma'rifiy qadriyati sanalgan navobaxsh mulkiga qo'shiladi.

Turkiston zaminini Vatan deb bilgan qardosh o'zbek, tojik, uyg'ur xalqlari maqom/muqom san'atini ardoqlagan, ziyoli ahli ilmu ma'rifatini ko'zlab ish tutgan. Buni o'tmish zamonlardan qolgan jonli musiqiy yodgorliklardan, shu toifa javohirlarga to'la milliy meros boyligidan bilsa bo'ladi. Mumtoz kuy va ashulalarning tiniq ohanglari, ta'sirli kuy mavzulari, baland avjlari, o'ziga xos

ijro uslublari xalqchilligidan nishona. Ehtimol, hududiy hamda mahalliy-uslubiy jarayonlar kuchayishi natijasida amaliy musiqa ijodiyoti asta-sekin "O'n ikki maqom" tizimidan yiroqlashadi. Bundan oltmish yil muqaddam Is'hoq Rajabov ilk bor e'lon qilgan asosli xulosasi orqali Buxoro bastakorlari ishlov bergan maqomlar "Shashmaqom" nomi ostida XVIII- asr o'rtalarida uzil-kesil shakllangani isbotlandi.

XIX- asr boshlarida Xorazm vohasida Shashmaqom andozasidan kelib chiqqan holda "Olti yarim maqom" shakllangani, Farg'ona-Toshkentda tarqoq holdagi maqom yo'llari mashhur bo'lgani rost. Yana, uslubiy noyobligi bilan tanilgan katta ashulaga tutash "yovvoyi" maqom, xalqona surnay va dutor maqom kuylari mahalliy aholi madaniy-musiqiy hayotining ajralmas qismi bo'lgani e'tiborli. Nafaqat mazkur vohalarda, balki xalqaro, millatlararo miqyosda tasavvur etilgan maqomot xazinasi nihoyatda boy va rang-barang bo'lgani uchun hashamatli qomusga o'xshatilishi o'rinli bo'lsa kerak. Ammo unga jamlangan musiqa asarlarining manzarasi qit'alararo kenglikda bo'lsa-da, ta'bir joiz bo'lsa unib-o'sib chiqqan "urug'i" va "o'q ildizi" bir deyish mumkin. O'xshatishni davom ettirsak, antiqa meva "ko'chat"larini parvarishlab, har xil iqlimlarga moslantirib, unga o'zgacha navlarni payvandlab, shu kungi adabiy-musiqiy-uslubiy to'kin-sochinlikka erishilgan ko'rinadi. Turdosh va nomdosh asarlar tabiatida, ijodkorlik, xonandalik va cholg'uchilik singari jabhalarda talaygina o'zaro mushtaraklik hamda ayrim farqli alomatlar mavjudki, endilikda ular ajib



bir uyg'unlikda sharqonalikni yorqin namoyon etmoqda.

El-yurtimizda maqom ashula yo'llari asosan turkiy hamda forsiy mumtoz she'riyat dunyosi bilan uzviy bog'liq holda hayot kechirgan ekan, mazmun-ma'nosi tinglovchilarga xush yoqib, ko'ngil ozug'iga, malhamiga aylanadi. Yozma an'anada

Nazm, og'zakida esa Navolarning yaqin hamkorligida yaralgan ashulalar uzluksiz ravishda sayqal topayotgani tabiiy hol. Musiqiy vositalar ezgu orzu-umidlarga qanot bag'ishlab, nozik qalb kechinmalari ham kishini maftun etmay qolmaydi. Ma'noli so'z, go'zal ovoz, jo'r bo'luvchi soz o'zaro uyg'un holatda ehtirosga to'la kuch-qudratini ko'rsata boshlaydi. Hazrati Inson o'y-fikrlari, his va tuyg'ulari, turfa ruhiy holati ila kayfiyatlarining lazzatbaxsh ifodasini topgandek bo'ladi. Tayanch musiqiy tovushlarning o'zaro nisbatlaridan kelib chiqqan holda, hosil bo'lgan ohanglar rivoji, kuy mavzulari goh "yovvoyi" yo'lda, ko'proq esa turli xil vazn-usullar shaklida bayon etilishi odat tusiga kiradi. Ijro bezaklarini qo'llash masalasida birmuncha erkinlikni afzal ko'rish ham an'ana tusini yo'qotmaydi. Ilhombaxsh maqom ijodkorligi, ashula bilan cholg'u ijrochiligi va tinglovining sirlarini o'rganish, jumboqlarini yechish maqsadida ilmiy izlanishlarga qo'l urilayotgani taxsinga sazovor.

Maqom tuzilmalari avlodan-avlodga o'tib borgan vaziyatda son va sifat ko'rsatgichlarida, ozmi-ko'pmi, o'zgarishlar, noaniqliklar kuzatiladi. Har holda aksar mumtoz namunalar



Abdurauf Fitrat

Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Marg'ilon, Xo'jand, Qo'qon, Toshkent va boshqa yirik shaharlar madaniyati tarkibida, asosan yirik saroylar madaniy-musiqiy muhitida nafaqat saqlandi, balki yangi-yangi ijodiy ila ijroviy talqinlari, yondashuvlari misolida ko'paydi va rivoj topdi.

Eslaylik, 1920-yillar avvalida alloma Fitrat jonkuyarligi bilan V.A.Uspenskiy tomonidan Shashmaqom majmuasi nota yozuvida muhrlanib, musiqa ta'limi qo'lga kiritilgan yutuqlardan so'ng maqom merosi taqdirida yana bir bor qiyin, bilimdonlari uchun, ehtimol, eng og'ir damlar keladi. Afsuski, soxta siyosiy mafkuraning qarshi turishi sababli yo'qotish va buzilishlar kuchayib, badiiy an'analarning uzilishiga olib keldi.


O'zbekiston musiqa madaniyatining o'tgan XX- asrda bosib o'tgan yo'li mazmundor va ayni paytda murakkab ko'rinadi. Sinfy kurash niqobidagi yovuz g'oyalarning tazyiqi, begona kimsalar ashaddiy qarshiligidan qat'i nazar, maqom durdonalarini yig'ib-terib asrashga, xazinasini tiklab but qilishga erishilgani favqulodda qimmatli natija bo'ldi. Bunda fidoyi san'at darg'asi, maqom mulki xazinaboni, akademik Yunus Rajabiy olib borgan tashkiliy, ilmiy, ijodiy sa'y-harakatlari, san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Rajabovning musiqiy manbashunoslik va maqomshunoslikka oid malakali kashfiyotlari mazkur masalada hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.



Zotan, soha yo'nalishlari siyosiy-mafkuraviy g'oyalarga qaratilgan, o'zaro nomutanosib holatga tushdi. Mustaqillikka qadar milliy qadriyatlar qatorida an'anaviy musiqa san'atiga, uning maqom qatlamiga jamiyatimiz ziddiyatli rasmiy munosabatdan xalos bo'lolmadi. Endilikda mustamlaka davri musiqiy hayotini qayta tahliliy o'rganish, xolisona baho berish, bundan adolatli xulosalar chiqarish lozim ko'rindi. Maqola mavzusidan kelib chiqqan holda muhim bir tushunchani ilgari surishni lozim bildik. O'sha davrning imkonlari cheklangan shart-sharoitlaridan qat'i nazar ikki nafar maqom fidoyisi, Yunus Rajabiy olib borgan serqirra ilmiy-ijodiy ishlari, unga bevosita bog'liq holda Is'hoq Rajabov amalga oshirishga muvaffaq bo'lgan chuqur va halol ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq, o'zbek maqomi ta'limoti yaraldi.

O'zbek bastakorlik ijodiyotining tarixiy kuzatilish davri taxminan bir yarim ming yillikni qamrab olgan bo'lsa-da, bunda avvalgi zamon shakllanish jarayoni, so'ngra yakka tartibdagi mualliflik davrlari hisobga olinmagan. Shu boisdan XX- asr bastakorlik ijodiyoti alohida mavzu ila masalalar sirasiga kiradi. Mumtoz maqom namunalarini tizimli-tartibli ravishda ijro etishda va o'rgatishda, saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazishda maqom san'atiga teng keladigan timsolni topish amri mahol.

O'zbek xalqi mumtoz musiqiy boylklari asrlar osha saralanib avaylab asralgan ulkan xazinaga jamlangandek. Unga bog'liq maqom ijrochiligi malakali ustoz saboqlarini olishi shart bo'lgan



*Turg'un Alimatov*

murakkab soha yo'nalishlaridandir. Durдона asarlarni tinglab uning ma'no-mazmunini tushunish, barkamol ijrolaridan bahramand bo'lish uchun muayyan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi, albatta. Qabul qilinishi nisbatan qiyin sanalgan misollar ko'paygan sari, savodxon tinglovchi tomonidan ijrochilar oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib boradi. Hozirgi kunda o'zbek maqomi qayta jonlanishi pallasida ekan, kuzatilayotgan baland-pastliklar kam emas. Ammo ijroda har xil sinovli o'zgartishlardan qat'i nazar ko'hna va navqiron maqom san'ati milliy musiqa madaniyatimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilayotganini inkor etib bo'lmaydi.

O'zbekistonda kasbiy musiqa ijodi va ijrochiligining yuzaga kelishi, maqom san'ati shonli tarixi, iste'moldagi milliy cholg'ular, o'tmish va zamondosh san'atkorlarning ijodiy faoliyati doim katta qiziqish uyg'otib kelgan. Ayniqsa maqom mulkiga tegishli dolzarb masalalar so'nggi yillarda jamiyatimiz diqqatini jalb etayotgani e'tiborlidir.

1970-yillarda respublikamizda maqom ta'limini yo'lga qo'yishda Fayzulla Karomatov jonbozlik ko'rsatgan



ekan, keyingi o'n yilliklar davomida maxsus musiqa ta'limi tizimiga deyarli to'liq holda singishga ulgurdi. Darhaqiqat, o'sha kezlari maqom ijodi, ilmi, ta'limi va targ'iboti quvonarli samaralar bera boshladi. Bu sohada amalga oshirilayotgan tizimli-tartibli sa'y-harakatlar respublikamiz madaniyat va san'at jamoatchiligi tomonidan olqishlandi.

Yangilana yotgan O'zbekistonda milliy maqom san'ati munosib e'zoz topib, jozibador va xalqchil ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Jumladan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2018 yilda Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumani ilk bor o'tkazilishi shundan yaqqol dalolat berdi. Nufuzli tadbir ijtimoiy-madaniy hayotimizda hashamatli, ishtirokchi-yu tomoshabinlar uchun unutilmas, tarixan esa misli ko'rinmagan voqea bo'ldi. Chinakam ommaviy bayramga aylangan ijodiy anjuman hassos san'at ustalariga ham, ustoz-murabbiy va iqtidorli shogirdlarga ham, nazariyotchi olim va ma'rifatchilarga ham, muhimi – san'atsevar xalqimizga, uzoq-yaqindan tashrif buyurgan aziz mehmonlarga g'oyatda manzur keldi.

Xalqaro anjumanning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti so'zlagan nutqida maqom ravnaqi konsepsiyasi urg'ulangani sezildi. Unda ilgari surilgan qimmatli g'oyalar, anjuman oldida turgan buyuk maqsad va vazifalar naqadar dolzarbligi



O'zbekiston Qahramoni  
Munajat Yo'lchiyeva

ham ayon bo'ldi. Jumladan oliy martabali notiq: "... biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda", - deya go'zal tashbeh ila ta'rifini berdi. U Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilmu ma'rifati, islomiy qadriyatlardan oziqlangan

o'zbek maqom san'ati gullab yashnashini e'tirof etgan holda, adolatli bahosini ham berdi: " - ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz".

Sh. M. Mirziyoev xalqaro maqom anjumani oldiga qo'yilgan olijanob maqsadlarga to'xtalar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tishni afzal ko'rди: "Bu noyob boylikni ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylash, undan dunyo ahlini bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish turli qit'a va mamlakatlar vakillarini bu go'zal maskanda mujassam etgan anjumanimizning asosiy maqsadidir".

Davlatimiz rahbari o'qib eshittirgan yorqin nutqning keyingi bandlari esa mazmunan va mohiyatan O'zbekistonda madaniyat va san'at jabhalarida amalga oshirilajak harakatlar strategiyasining bosh bandlari kabi yangradi. Xususan: "Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak.





Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak.

Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur".

Yurtimizda "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil etilishi, bir yil muqaddam Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'z faoliyatini boshlashi, viloyatlarda tuzilgan Maqom ansambllari konsert ishlarini olib borishi, respublika miqyosida berilayotgan konsertlar, shuningdek

ilmiy konferensiyalar, kasb tanlovlari muvaffaqiyatli o'tkazib kelinayotgani yuqorida e'lon qilingan dasturulamal ro'yobga chiqayotganining yorqin hayotiy tasdig'idir.

San'atsevar xalqimizning ko'hna va navqiron, ko'p zamonlar ila avlodlar osha nafis go'zalliklarni yaratib, ko'ngillarni yashnatib, dillarni yayratib kelayotgan maftunkor maqom san'ati uchinchi bor "Uyg'onish" davriga dadil kirib kelmoqda.

#### Adabiyot

1. Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. "O'zadabiynashr", Toshkent, 1963 y.



# Shashmaqom

Баҳром Ирзаевнинг  
“Ўзбек мусиқа маданияти тарихи саҳифаларидан”  
Тошкент “Akademnashr” 2017  
китобидан олинган

Ўзбек маданиятининг, ўзбек ҳаётининг ҳалигача тадқиқ этилмаган жиҳатларидан бири ўзбек мусиқасидир. Буюк инқилобдан сўнгра ўзбек ўлкасининг ҳар томонида мусиқамизни тиргизмак, эски мусиқа асарларини йўқолишдан қутқармоқ, сақламоқ учун тебранишлар, ҳаракатлар бўлгани, мактаблар очилгани маълумдир.

Бу мактабларнинг биттаси Бухорода очилган “Шарқ мусиқаси” мактабидир. Рус мусиқа олимларидан В.А. Успенский Бухоро маориф назоратининг чақириши билан Шарқ мусиқа мактабида бир йилдан ортиқ ишлади. Эски тарихий мусиқий асарларни “нота”га олди.

В.А. Успенский томонидан ёзилган мана шул ноталар Бухоро ҳукумати томонидан Масковда “Шашмақом – шесть музыкальных поэм” исми билан олти дафтарда босилиб чиқди. Бунинг бир нусхаси идорамизга келди.

Ш а ш м а қ о м м а ж м у а с и 128 бетда ёзилган, 105 куйдан иборатдир. Ношири Бухоро маориф назорати, босилишига назорат қилган Фитрат ҳам Н.Н.Миронов.

Шашмақомдоғи олти асосий мақом – Бузрук, Рост, Наво, Дугоҳ, Сегоҳ, Ироқ мақомлари бўлиб, ҳар бир мақом мушкилот (соддагина чолғу), наср (қўшиқ билан чолғу), уфор (тониш билан

чолғу)лардан иборат учга бўлинган. Ҳар бир бўлим неча куйларга тақсим этилган. Ҳар бир куйни ёзғонда нотанинг бош томонидан шул куйнинг усули ҳам кўрсатиб борилган.

Мусиқамиз дунёсида шундай муҳим бир асарни бор этган Бухоро ҳукуматиға ҳам Успенскийға биз ташаккур қиламиз. Ўзбек мусиқасига оид тегаран маълумотларни билганимиз учун бу асарнинг аслиға мувофиқ чиққаниға жуда яхши ишонганимизни билдирамыз. Анға ғайрат ҳам куч сарф этилиб бор этилган бу муҳим асарнинг бизча маълум бир камчилиги бўлган. Мусиқамизнинг тарихини, илмий асосларини, усулларини, чолғуларимизнинг турларини кўрсатиб бир муқаддима ёзилмаган. Ҳатто бу тўғрида бир икки хатгина маълумот ҳам берилмаган. Мана бу ҳол мазкур муҳим асар учун катта бир камчилик, кенг бир бўшлиқдир. Биз бу бўшлиқни тўлдирмоқ учун журналнинг келгуси сониде Шашмақом мажмуасини асос тутиб, мусиқамизға оид тафсилли бир мақола киргузишға тиришамиз.

Маориф ва ўқитувчи 1925 йил  
№2 сонли газетанинг  
“Шашмақом” номли мақоласи.  
Муаллиф – ФИТРАТ



Ата Гало-Абду-Гало



В. А. Успенский



Ата Джалал-Задик-Назирон

# ШЕСТЬ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПОЭМ

(маком)

Записанных В. А. УСПЕНКИМ  
в БУХАРЕ.

# شەش مەقام

|         |   |     |        |
|---------|---|-----|--------|
| بو زروك | ۱ | 1-я | БУЗРУК |
| راست    | ۲ | 2-я | РОСТ   |
| نا وا   | ۳ | 3-я | НАВО   |
| دو گاه  | ۴ | 4-я | ДУ-ГО  |
| سیگاہ   | ۵ | 5-я | СЕ-ГО  |
| عیراق   | ۶ | 6-я | ИРАК   |

ПОД РЕДАКЦИЕЙ

Фитрата и Н. Н. Миронова.

Изданіе Народнаго Назарата Просвещения Бухареспублики.  
1924.



## ТЕОРИЯ ДВЕНАДЦАТИ МАКОМОВ: ВОЗРОЖДЕНИЕ ЗНАНИЙ О ВСЕЛЕННОЙ

**Аслиддин Низамов,**

доктор искусствоведения,  
заведующий отделом искусствоведения  
Национальной Академии наук  
Республики Таджикистан

**Аннотация:** "В статье рассматриваются вопросы, связанные с теорией мирового порядка и отражения законов общемировой гармонии на происходящие процессы в духовной жизни человека. Ученые Востока всегда стремились к познанию объективных закономерностей звездного мира и нередко применяли результаты своих наблюдений при исследовании основ музыкальной теории. В частности, средневековые астрологи часто связывали характеристику двенадцати знаков зодиака с художественным творчеством и таким образом подобные заключения проникали и на страницы музыкальных трактатов. Неслучайно в период формирования классической музыкальной науки доисламский термин "Гох" (место, стоянка) был заменен арабским "маком" (место). Так, 12 "астрологические дома" стали прототипом 12 макомов и маком Рост был определен как "первый дом" (Первый маком). В статье приводятся высказывания ряда авторитетных ученых (Газали Ибн Сино, Бируни, Тамбурист Арутин и др.) об универсальной сущности собственно звуковых сочинений в том числе и Двенадцати макомов.

**Ключевые слова:** гармония, вселенная, макомы, Руми, макрои микрокосмос, астрология, Восток, Абу али ибн Сино, Бируни, Улугбек, Фараби, "квадриум", "Гот"-ы, Тамбурист Арутин, Сократ, Имам Газали, Самоъ, раги, зикр, Хафиз, суфизм, парда, Хазрат Иноятхон, Джами, Наваи, буддизм, Герат, музыка, мистицизм, меональное, танбур, Двенадцать макомов, Шашмаком, астрономия.

**Abstract:** "The article deals with issues related to the theory of world order and the reflection of the laws of global harmony on ongoing processes in the spiritual life of a person. The scientists of the East have always strived for knowledge of the objective laws of the stellar world and often used the results of their observations in the study of the foundations of musical theory. In particular, medieval astrologers often associated the characteristics of the twelve signs of the zodiac with artistic creativity, and thus such conclusions also penetrated the pages of musical treatises. It is no coincidence that during the formation of classical music science, the pre-Islamic term "Goh" (place, parking lot) was replaced by the Arabic "maqom" (place). So, 12 "astrological houses" became the prototype of 12 maqoms and maqom growth was defined as the "first house" (First maqom). The article contains the statements of a number of authoritative scientists (Ibn Sino, Biruni, Tamburist Arutin's ghazels, etc.) about the universal essence of the actual sound compositions, including the Twelve Maqoms.

**Keywords:** harmony, universe, maqoms, Rumi, macro and microcosm, astrology, East, Abu Ali Ibn Sino, Biruni, Ulugbek, Farabi, "quadrium", "Goths", Tamburist Arutin, Socrates, Imam Ghazali, Samo, raga, dhikr, Hafiz, Sufism, parda, Hazrat Inoyatkhon, Jami, Navai, Buddhism, Herat, music, mysticism, meonal, tanbur, Twelve maqoms, Shashmaqom, astronomy.



Общеизвестно, что существующий особый порядок и гармония вселенной имеет постоянное и прямое воздействие и на нашу планету и следовательно на человека. Великие умы истории всегда подчеркивали, что человек (инсон) является частью природы. Великий мудрец Джалолиддин Руми в поэме «Маснави маънави» определил сущность человека как индивидуума в качестве «олами сагир» (микро-космос) по соотношению вселенной (макро-космос).

Можно сказать, что на сегодняшний день данная теория уже не вызывает сомнений и все большее число научных воззрений подтверждают, что законы и свойства общемировой гармонии всецело находят отражение на все происходящее в жизни планеты и людей.

«Илми нуджум» (астрономия или знания о звездах) на всем протяжении развития теоретической и практической научной мысли на Востоке (в том числе и в Средней Азии) всегда почитался как одно из возможностей познать не только характеристику небосвода, но и вычислить необходимые, вполне прагматические заключения, получаемые в результате постоянных наблюдений за движениями небесных тел. Именно таким образом восточные мудрецы определяли и двенадцать месяцев и 365 дней в году. Древняя астрология давало человеку возможность эмпирически познать окружающий мир, но следует признать, что наряду с астрологией средневековые ученые занимались вполне серьезно астрономической наукой.

Из содержания многочисленных трудов великих энциклопедистов Средней Азии такие как Абу али Ибн

Сино, Абу Райхон Беруни и др. известно, что уже в 9-10 вв. им стали известны теоретические измышления древнегреческой науки о якобы «звучании» небесных тел. Первым (возможно) откликнулся на эти высказывания Ибн Сино, который будучи великим естествоиспытателем, вступил в спор о правомерности теории о том, что планеты при постоянном своем кружении якобы издают при этом особые звуки [1: 26].

Однако позже, в течении многих последующих столетий ученые, поэты, знатоки музыкальной теории, мудрецы-астрологи постоянно напоминали читателям о том, что двенадцать кругов зодиака со всеми своими качествами имеют влияние на мировоззрение индивидуума. Великий Улугбек более пятисот лет тому назад составил «Зиджи Курагони», открыл более 1018 звезд, это было научное открытие, однако вполне естественно, что затем этими знаниями начали пользоваться и астрологи.

Общеизвестно, что средневековые ученые (Ибн Сино, Фараби и др.) по традиции включали музыкальную науку в состав математического «квадриума» - (арифметика, геометрия, астрономия, музыка) и составляли собственную музыкальную теорию строго по законам математики («Риёзиёт»). Не исключено, что именно вследствие этого, мнение астрологов, их наблюдения и всевозможные заключения о движении небесных тел стали незаметно проникать и в страницы музыкальных трактатов.

Эмпирические знания о двенадцати знаках зодиака, которые расположены особым образом и которые имеют различные характеристики в конечном



плане повлияли и на формирование практики и теории системы двенадцати макомов. Поначалу еще в авестийских текстах появились «Гат»-ы («Гос»-ы) в качестве названия гимнических песнопений. Эти названия позже в среднеперсидском языке бытовали как «Goh», но уже в значении «место расположения», «времени действия», «времени суток» (sahargoh, begoh) и т.д.

С распространением арабского языка в практику входит использование термина «маком» в том же значении как место расположения. Как известно, «маком» - слово арабское, которое означает «место», «стоянка», однако этот термин вошел в обиход намного позже времени формирования самих двенадцати макомов. До этого, как уже было сказано, существовал термин «Goh», и можно предположить, что вполне закономерным является сохранение в системе терминологии двенадцати макомов именно «гох» до нашего времени сохранил свое достойное место (дугох, сегох, чоргох и т.д.) [2:32,33]

Знатоки «илми нуджум» (астрономия) утверждают, что в процессе происхождения «двенадцати преобразований» земля и вся вселенная после шести первых становятся грубее, а после следующих шести - больше уточненными и духовными, причем это касается и самого человека.

К примеру в книге «Таърихи Табари» (История Табари) читаем: «Всевышний период существования сего мира («онгох») определяет как двенадцать месторасположений (гох)» [3:23]

Издrevле известно, что звуковые волны сами по себе оказывают глубокое влияние на психологию и физиологию человека. Звуковой, тональный резонанс всегда использовалось как лечебное средство и всевозможных ме-

дитаций. Однако полагают, что звуковые вибрации могут быть здоровыми или разрушительными.

В процессе формирования искусства макомов (двенадцати и позже шести макомов) веками вырабатывалась особая культура «создания» звука, эстетика звуковых сочетаний, посредством которых передавалась художественная информация о жизненных явлениях (наряду со словом, символизмов поэзии и т.д.). Обратите внимание: совсем не случайно что все макомы первоначально начинаются с исполнения развернутого инструментального вступления – Мушкилот. Надо только внимательно вслушиваться в начальные такты любого из Таснифов, и вы тут же обнаружите этот особый, тонкий прием «разработки» одного звука, когда из недр одного выбранного тона зарождается мелодическая модель (лейт-тема) самого макома.

В астрологии двенадцать знаков зодиака связывают с так называемыми «астрологическими домами», которых также насчитывается двенадцать. Каждому из этих домов присваивается свои качества (например, первый Дом – это дом Бога, откуда человек родом, второй – это материальный мир и т.д.). Возможно поэтому, неудивительно, что в музыкальных трактатах маком Рост (т.е. первый маком) связывают именно с «первым домом» (зодиакальный круг Хамал). Очень интересно, что буквально точно такое определения всем 12 астрологическим домам можно встретить в энциклопедии Воджид Алихона Мульмали (19в.) «Матлаъ-ул-улум ва мальмаъ-ул-фунун» [4:99]

Другой известный теоретик макомов Тамбурист Арутин также обращается к данной теории и первый Дом астрологии определяет как Дом



Славы! Арутин пишет: «Три мудреца – Сукрат, Келан, и Шит сочинили шесть новых макамов в противовес шести макамам, созданными старинными мастерами (стр. 61): то есть в противовес Рахави создали Панджгох, Мухайяр – Сабо, Шаъноз – Ёиджоз, Аджам – Исфакон, Тахир – Бусалик, Гардония – Бастанигор. Он также обращает внимание на вопрос о сущности музыки вообще: «Знаменитый спросил: в самом танбуре ли, в его пэрдэ и в струнах или мизрабах (таится) музыка? Сукрот ответил: Она таится и в танбуре и в его пэрдэ и в струнах и в мизрабах и во мне и в тебе» [ 5:61-63 ].

Понятно, что в данном случае Тамбурист Арутин подчеркивает универсальную сущность собственно звуковых созданий и доказывает, что звуки изначально заложены в форме определенных мелодий, напевов или символов в сердце человека, т.е. звук – явление извечное (азали!). В этих умозаключениях Арутин как бы повторяет известные высказывания Имама Газали (12 в.), который писал об этом, что тайна звуков изначально присутствует в сердце человека, и когда он слушает музыку, пробуждается в его памяти именно та – изначальная тайна, заложённая Богом [6:473 ].

В традициях восточного музицирования слушание музыки (Самоъ) удивительным образом подразумевало выход слушателя за пределы собственного «я», или наоборот, углубление в собственную внутреннюю сущность. Это можно свободно наблюдать на примере исполнения и слушания индийских раг. Она становилась той точкой, в которой пересекались макрокосмос и микрокосмос. Обращение к музыке делало человека существом,

приближенным к божеству именно по той причине, что в ней скрывалась неизреченная тайна. Джалолиддин Балхи (Руми) об этом явлении пишет весьма конкретно:

*«Сирр тинҳон аст андар зеру бам,  
Фоиш агар гӯям, ҷаҳон барҳам занам».*  
(В высоких, низких звуках заложена тайна,  
Если открою сию тайну, мир разрушится).

Великий мудрец в этих строках прямо указывает на какую-то тайну, но предупреждает, что нельзя прикоснуться к ней, иначе произойдет «столкновение двух миров» (реального и «меонального»)

Подобная практика приобщения к мировой тайне у суфиев называется "Зикр" - известный способ получения желаемых результатов (достижения Бога - Нақ!) с помощью многократного повторения нескольких словесных формул. Эти слова считаются священными еще и потому, что обладают психологическим значением, их неоднократные повторения производят определенный эффект.

В процессе слушания музыки (конечно, в первую очередь макамов) человек приобщался к миру божественного, и, следовательно определенным образом постигал ту самую тайну – о себе, о вселенной и т.д. Общеизвестно, что стремления к познанию тайн природы и сущности самой жизни всегда было присуще в духовном мире и в культуре наших предков. Суфийские течения, стихи Хафиза, которого называют знатоком «лисон-ул-гайб» (язык тайны), трактат «Кашф-ал-махчуб», труды по астрономии, тайнописания и т.д., глубокий и весьма сложный символизм в стихах Джалолиддина Балхи (Руми) и т.д. – все это говорит о том, что великими



умами наших предков всегда принимались попытки «открыть завесу (здесь «парда»- букв. «завеса» в значении макома) над тайнами природы и жизни».

Подобное стремление к познанию «тайного» (наряду с «явным»), всегда глубоко тревожила душу человека и преображала его сущность. Глубокий смысл такой позиции отражал мнение, согласно которому суть приобщения к тайному знанию состояла в умении слиться с божеством. (в суфизме – «расидан ба Ньяк»!!) Так, в учении веданты познание глубин собственной сущности открывает возможность слияния с Брахманом, в результате чего человек находит гармонию бытия.

Тамбурист Арутин дает как бы полную картину происхождения музыки: «Каждый из этих мудрецов усвоил авазэ одной из планет: авазэ Солнца (Чаргях) усвоил Зат, авазэ Венеры (Сегях) усвоил Фат, авазэ Меркурия усвоил Джем, авазэ Луны (Рост) усвоил Эм, авазэ Марса (Наво)... и добавляет: «Каждая из планет меняет свой авазэ (высоту?) находясь в Доме Славы» [ 5:57].

В известном трактате «Бухур-ал-алхон» (Метрика мелодий) читаем: «Овен (Нямал) – от него произошел маком Рост (аз хазрати Одам), от Асада – Бузрук, от Акраба (Скорпион) – Ушшок (аз хазрати Мусо), от Водолея (Далв) – Наво и т.д.».

Воздействие звуков, вообще музыки на энергетическом (а следовательно и на информационном) уровне всегда обсуждалось средневековыми учёными. Например, исследование вопроса воздействия различных музыкальных ладов и ритмов на эмоциональном уровне занимает многие страницы известных музыкальных трактатов. Мышление, эмоциональные образы, выражаемое через мако-

мы, всегда были свободными от всего случайного. Музыка всегда воспринималась в качестве средства, с помощью которого человек устанавливал контакт с Вселенной. Хазрат Инаят Хан в своем трактате "Мистицизм музыки" пишет о том, что музыка - высшая среди других форм искусства. Известно, что как в Индии, так и в культуре Средней Азии, музыка не считалась искусством развлечения.

«Музыка есть не только величайший предмет в жизни, но она есть сама жизнь. Хафиз Ширази, великий суфийский поэт сказал: "Многие говорят, что жизнь вошла в человеческое тело с помощью музыки, но истина заключается в том, что жизнь сама есть музыка".

Общеизвестно, что есть логически-рациональный способ познания, которое конечно объективно по своей природе. Но есть и духовно-мистический путь к знаниям, носящий сугубо субъективный характер, она открывает истину каждого человека. Получается, что если рациональный путь познания – это для всех, то тогда духовно-мистический путь следует признать путь познания для избранных. Именно по этой причине все теоретики суфизма настаивают на то, что слушание музыки – это удел «избранных» (хоса). Более того, они отстаивают идею о том, что слушание музыки или вообще получение знания через Самоь (т.е. через музыку) для «неизбранных» («авом») - вредны!

Беда в том, что в одном из отрезков нашей великой истории, а конкретнее, в период правления мангытских ханов музыка, в том числе и макомы вошли в сферу бытовых развлечений имущественного класса. Простой народ был совсем изолирован. Именно





в это время музыка макомов несколько «отошла» от своего истинного призвания. А ведь чуть раньше, еще в Герате при непосредственном руководстве Мавлоно Абдуррахмана Джамии и великого визиря Алишера Навои бытовала богатая традиция проведения пиршеств (базм) ученых, поэтов, музыкантов, которые неделями проводили праздники исполнения и слушания настоящей музыки.

Как предварительный итог можно утверждать, что в музыке Востока звук - это не просто акустическое явление, а категория философского порядка. Ведь мир, который нас окружает, наполнен вибрациями-звуками и звук является основой самого мироздания. Звук, по восточной философии (например по буддистским и конфуцианским воззрениям), - это нечто всеобъемлющее, пронизывающее все сущее, он предназначен выполнять высочайшую миссию - поддерживать гармонию на Небе и Земле. Следовательно,

в нашей музыкальной культуре музыка, в том числе и музыка макомов, является неким конечным продуктом творческого акта, в котором посредством использования чарующих форм звуко-извлечений воссоздается картина, изображающая «макро и микро космос».

Создание и слушание музыки, как и любое другое обращение с музыкой удивительным образом сочетало в себе как бы выход за пределы земного бытия, в просторы космоса, и одновременно углубление в собственную внутреннюю сущность. Она становилась той точкой, в которой пересекались макрокосмос и микрокосмос. Сегодня мы имеем все возможности исследовать музыку макомов в качестве уникального продукта творческой мысли наших предков, нам только еще предстоит глубже исследовать существующие законы звуковой мудрости Двенадцати макомов.

#### **Литература:**

1. Абу али Ибн Сино. Джавомеъу илм-ал-муסיкий. Каир, 1956 (на ар. языке)
2. А. Низамов. Суфизм в контексте музыкальной культуры народов Центральной Азии. Душанбе, 2000.
3. Таърихи Табари (История Табари). В 3-х т., т.1. Душанбе, 1972.
4. Воджид Алихон Муджмали. «Матлаъ-ул-улум ва маджмаъ-ул-фунун», изд. в Лакънау, Индия (на таджикском языке).
5. Тамбурист Арутин. Руководство по восточной музыке. Ереван, 1968.
6. Газали Абухомида. Кимиёи саодат (Эликсир счастья). Т.1. (О понятии Самоъ). Тегеран, 1359.



## CHASHMALAR SARCHASHMASI

**Soibjon BEGMATOV,**O'zbek milliy maqom san'ati markazi bosh direktori,  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Annatsiya:** Maqolada o'tmishda yashab ijod etgan musiqa bilimdonlari, xalq bastakorlari ijodining mahsuli, xalqimiz ma'naviy dunyosining ohanglardagi in'ikosi ekanligi, ularning shakllanish davridan boshlab rivojlanish mezonlaridagi o'ziga xos mumtoz shaklu-shamoili, ilmiy va amaliy tartib qoidalari, shuningdek, ushbu san'atda mujassamlangan ilohiy, tarixiy, nazariy va amaliy mezonlar, XXI asrga kelib maqomlarimizning qayta jonlanishi ham kelajak avlod tarbiyasiga katta e'tibor qaratilishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqom, ilm, nazariya, an'ana, ijrochilik, risola, uslub, maqomot, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Fitrat, sozanda, xonanda, ustoz-shogird, bastakorlik, mumtoz, chashma, musiqa.

**Аннотация:** В статье рассматривается творчество знатоков музыки прошлого, творчество народных композиторов, отражение в напевах духовного мира нашего народа, их неповторимые классические формы, научные и практические закономерности развития со времени их становления, а также, божественные, исторические, теоретические и практические критерии, воплощенные в этом искусстве, возрождение макомного искусства в XXI веке и большое внимание, уделяемое воспитанию будущих поколений.

**Ключевые слова:** Макам, наука, теория, традиция, исполнение, трактат, стиль, макамат, Фароби, Ибн Сино, Навои, Фитрат, музыкант, певец, учитель-ученик, композиция, классика, родник, музыка

**Abstract:** The article deals with the work of music connoisseurs of the past, the work of folk composers, the reflection of the spiritual world of our people in melodies, their unique classical forms, scientific and practical rules of development from the time of their formation, as well as, the divine, historical, theoretical and practical criteria embodied in this art, the revival of our Maqom in the XXI century and the great attention paid to the education of future generations.

**Keywords:** Maqom, science, theory, tradition, performance, pamphlet, style, authority, Farobi, Ibn Sino, Navoi, Fitrat, musician, singer, teacher-student, composition, classical, spring, music.

**M**aqom - insoniyat ma'naviy dunyosini shakliy, ma'rifiy, amaliy, aqliy va ruhiy unsurlarining go'zal uyg'unlikdagi falsafiy kamolotini shakllantiruvchi va ilhomlantiruvchi manba – ruhiy ozuqadir. Negizi ilohiy, ijodiyoti ilmiy, amaliyoti esa mumtozlik asoslarni o'zida mujassam etishligi bilan xarakterlanadi. Zero, ushbu omillar milliy qadriyatlar samo'sidan bunyod bo'lishi, asl milliy urfiy an'analarni o'zida mujassam etishi va insoniyat kamolotida "Nasri Allohiy" qabilida qalblarni quvvatlantirishi bilan qadri

hisoblanadi. Ushbu san'at muqaddasligining ham zaminida ana shunday ma'nolarga boy qadriyatlar, sirli ohanglar olami jamlanganligi bilan ahamiyatlidir. O'zbek xalqining bunday ma'naviy ne'matdan bahramand bo'lishining o'zi ham katta baxtdir. Zero, ma'naviyati buyuk xalqlarning merosida mumtoz musiqasi bor, mumtoz musiqasining gultoji bo'lgan yetakchi janri - maqomoti bor.

Ma'lumki, maqomlar o'tmishda yashab ijod etgan bilimli, ilmi xonanda, sozanda va bastakorlar ijodida kamol topgan mukammal janrdir. Ularning shakllanish



davridan boshlab rivojlanish mezonlarida o'ziga xos shakl-shamoili, tartib qoidalari va ijrochilik an'analari yuzaga kelgan. Eng muhimi musiqa san'atining nazariy omillari asosida, qadriyatlar negizida va milliy an'analarning go'zal uyg'unligida ijod etilib, avlodlar ijro amaliyotida charxlanib, asrlar osha avaylab-asrab, xalqimizni bahramand etib kelmoqda. Maqomlarning rivojlanishiga uning ijodiyoti va ayniqsa ijro amaliyotiga bo'lgan munosabatning ahamiyat katta. Chunki, maqom tarkibida mujassamlangan bir qator ilohiy, tarixiy, ma'naviy, madaniy, nazariy va amaliy mezonlardagi hayotiy xususiyatlarining ahamiyati buyukdir. Ularning insoniyat ma'naviy dunyosini shakllantirilishida eng muhim hisoblangan jihatlar, ya'ni ruhiy ozuqa sifatida quvvatlantirish, ma'rifatidan bahramand etish, qalbida ishq - muhabbat, fidoyilik, sadoqat, ulug'vorlik tuyg'ularini ilhomlantirish kabi xislatlar o'z aksini topgan.

Azaldan musiqa amaliyotini bezab, yangidan yangi ijod namunalari bilan boyib kelayotgan musiqaning sir-sinoatlari, nazariy asoslarini ilmiy tadqiq etishni boshlab bergan va ilmda Muallimi soniy nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy o'zining "Katta musiqa kitobi" ("Kitabul musiqa al-Kabir")ning boshlanish qismida musiqiy yetuklikning asosiy omillari haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Xususan: -"Inson har bir nazariy san'at (sohasi)da yetuklikka uch holat orqali erishadi.. Uchinchi holat – bu ilmda uchraydigan qiyin (masalalarni) anglash, boshqa nazariyotchilarning (bu haqdagi) qarashlarini tekshira bilish, ularni ichidan to'g'ri va noto'g'rilarni

ajratish, to'g'risini topib, noto'g'risini tuzata olish quvvatiga ega bo'lish".[1:6]. Bundan anglash mumkinki, xalqimizning mumtoz musiqa namunalari bo'lmish maqom san'atiga bo'lgan azaliy an'analari, ularning asrlar osha bizgacha yetib kelayotganligining asosiy sabablaridan biri, ustozlarning merosga bo'lgan ana shunday munosabatining natijasidir.

An'ananing asrlar osha rivojida maqom bilimdonlari, ustozlari, xonanda-yu sozandalari doimo rioya qilib kelganliklari ushbu sohaning ibratidir. Zero, shu an'anaga asoslanib maqomlar o'z shaklu-shamoili, qadriyati va an'anasi, ijrochilik maktabi, ijro uslubini saqlab kelgan. XX asr maqomdon olimi Is'hoq Rajabov o'zining tadqiqotlarida alohida qayd etgan va unga asoslanishini vazifa qilib ko'rsatgan omili ham xuddi ana shu Farobiyning yetuklik mezonining uchinchi holatini asosiy g'oyasidir. Ya'ni, musiqashunos olim Is'hoq Rajabov buni o'zining "Maqomlar masalasiga doir" (Yangi nashri "Maqomlar") kitobida har bir maqom ustoziga eslatma sifatida qo'yidagilarni bayon etadi: - "Shashmaqom cholg'u, ashula bo'limidagi kuy va ashula yo'llarining eshituvchilarga to'g'ri yetib borishi, ularga zavq va lazzat bag'ishlay olishi ularni boshqa musiqa asarlari kabi yaxshi ijro etilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shashmaqom va boshqa yirik shakldagi xalq musiqa asarlarini ijro etishda cholg'uchi va hofiz maxsus malaka hosil qilgan bo'lishi, maqomlarni ijro etish mahoratini yuksak darajada egallagan bo'lishi lozim. Sifatsiz ijro etish maqom yo'llari haqida noto'g'ri tasavvur qoldirishi mumkin"[6:296] –



deb, zamonaviy yondoshuv bilan Forobiy ta'limotini nechog'lik muhimligini zamon ruhida talqin etadi.

Shu bois bo'lsa kerak maqom, amalda va ilmda yetuklikni talab etadigan, shakllanib urfga aylangan qoidalar asosida rivojlantiradigan, xalqimizning ma'naviy dunyosini ohanglarda in'ikos etadigan san'at namunasi ekanligini doimo esda saqlashimizni talab etadi. Ushbu qoida, maqomlarning ijodida va ijrosida har tomonlama soflik hamda mukammallikni garovi sifatida xizmat qilishi begumondir. Eng avvalo bu xislatlar maqom so'zining bir qator ma'nolarida o'z ifodasini topganligi, ularning xilma-xil ichki yo'nalishlarga ishorasi sifatida ham rahnamolik qiladi. Chunonchi, maqom so'zi - joy, istiqomat o'rni, parda, shakl, janr, tovushqatorlad, kuy, ohang, asar, turkum, uslub kabi manolarni anglatadi. Har bir so'zga ohang kesimida ijodiy yondoshilsa, o'sha Forobiyning - "Musiqqa san'ati, bir so'z bilan aytganda, kuylarni va ularni muloyimlashtiruvchi, ularga yetuklik va ko'rk bag'ishlovchi narsalarni o'zida qamrab olgan san'atdir" deb ko'zlagan fikri va e'tirofi naqadar haqiqat ekanligiga iqror bo'lamiz. Demak, maqomlarning ijodi va ularning munosib rivojlanishi zamon va makon qabilidagi munosabatlarda shakllanadi va rivojini topadi.

Shu bois bo'lsa kerak Ibn Sino o'zining ta'limotida musiqiy ohangning ta'sirini kuchaytirishni va ohanglarda qo'llaniladigan rang-barang jozibalarni va ohangdosh jilolarning ahamiyatiga katta e'tibor qaratadi. Har bir tovushdan 3-4 sado rangini hosil qilish

mumkinligini uqtirib o'tadi. Ibn Sino musiqqa ta'limotida sof tabiiy parda tizimiga katta ahamiyat qaratadi. Asosiy mezon, purma'no kuylarning ohangdoshlik asosidagi tarannumi deb ta'kidlaydi. Qanchalar tovushlar munosabati musaffo va (obertonlar) rang-barang bo'lsa, shunchalar tarannum tusi boy va mazmunli bo'lishi uqtiriladi.

Navoiy ta'biri bilan aytganda - "...ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdin oziq oladi. Yoqimli ovozu mahorat bilan kuylaydigan xonandadan dard ahlining o'ti yana alanganadi. Agar go'zal bo'lsa, hissiyot ahlining o'rtasida qiyomat ko'tariladi..." [2:29] deb, ohangning go'zal sadolanishini ahamiyati, ovoz sinoatidagi sir-asrori, ijro sofligini muhimligi insoniyatga olam-olam ma'naviy ozuqa berishga qodirligini ta'riflab beradi. Lekin, buning uchun har tomonlama mukammallik talab etilishi begumondir. Mukammallikning esa bir qator tabiiy va amaliy talablari mavjud. Albatta musiqqa san'ati ustalarining talqinida yetuklik kasb etishini Hazrat Navoiyning quyidagi ta'rifidan anglab olish mumkin. Ya'ni, mutafakkir shoir o'zining "Holati Pahlavon Muhammad" asarida - "...Ul jumladin advor va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xub ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg'ub. Ul daqiq fanda qo'shish va sa'y ko'rguzub, daxli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar va g'azallar tasnif qilur erdi va xo'b aytur erdi." [3:90] - kabi ta'rif ila zamon musiqachisi, ijodkori amalini tahlilini keltiradi. Unda iste'dod, bilim va ilm, harakat, idrok, ijod, ovozning



mahoratli talqinlarini mukammalligi qayd etib o'tadi. Qolaversa, mumtoz musiqa ilmi va amaliyotining nafaqat ijrolari yoki talqinlari bilan, balki jarayonni ilmiy-nazariy uyg'unlikda va muvofiq holda rivojlanishi lozimligini, Hazrat Navoiy o'zining asarlarida atroflicha bayon etib beradi.

Musiqa san'ati namoyandalarining bunday yetuklik darajasida kamolotga erishishligi xususida keltirilgan asarlardan tashqari "Holati Sayid Hasan Ardasher"[4:58,59], "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois" asarlarida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tganligini e'tirof etish mumkin. Zero, -"Tarbiya -ta'lim ishlarining boshida turgan Alisher Navoiy" [5:47] o'z zamonasining ilg'or ijodkorlari, shoiru fuzalolari sozandayu xonandalariga musiqa haqida risolalar, davrining mumtoz musiqa namunalaridan naqshlar va amallar, qavl va g'azallar bog'lashliklariga buyurgan. Bir qator musiqiy risolalar, turkumiy naqsh va savtlar bitilgan. Lekin, ilmiy nuqtai nazaridan Navoiyning iltimosiga ko'ra, ustoz Abdurahmon Jomiy hazratlari tomonidan bir mukammal "Musiqiy risola" bitiladi va bu risola hozirgi davrgacha o'zining mavqeini saqlab kelayotganligi barchaga ayondir. Bu ham har bir davrning ustozlari, bilimdon olimlarining ijodi ibrat darajasida o'rganilishiga va rahnamo bo'lishligiga bir dalili isbotdir.

Maqom san'atini zamonaviy jarayonda asrab-avaylash, avlodlardan og'zaki an'anada o'tib kelayotgan bebaho Shashmaqom namunalarini, davrining bilimdonlari bo'lgan ustoz san'atkorlar ijrosida grammafonga yozib

olinishi, yozma manbalarini yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan insonlardan biri Abdurauf Fitratdir. Uning say'i harakatlari samarasida xalqimizning kelajak avlodlariga maqom san'ati muhrlangan 3 ulkan manba meros bo'lib qoldi. Shashmaqomning grammafondagi ovoz yozuvi, Shashmaqomning nota yozuvi kitobi (Muallif V.Uspenskiy, "Шесть музыкальных поем") va "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobi. Bu ilmiy va amaliy meroslar maqomot ta'limotida dasturi amaldir. Ayniqsa uning tarixiy-nazariy kitobi maqomshunoslikdagi o'ziga xos darsliklardan biri sifatida e'tirof etib kelinadi.

Abdurauf Fitrat avvalo musiqiy risolanavislik an'anasini XX asrda davom ettirishga muvaffaq bo'lgan. Risolada musiqa tarixi, mumtoz usullar tizimi, musiqiy cholg'ular ta'rifi va musiqa tarixi kabi tarmoqlar asosli yoritilgan. Maqomlarimizning shakllanish jarayoni o'ziga xos tarixiy ma'lumotlar bilan yoritiladi. Xususan shakllanish jarayonining Temuriylar davri bilan izohlab yozadi: "Temurdan burun ham O'rta Osiyoda asoslarini arab-erondan olgan musiqiy san'ati bor edi. Biroq Temurning buyrug'i bilan har tomondan keltirilgan ixtisoschi olimlarning g'ayratlari bilan bu san'at birdan jonlandi, oyoqqa bosti. Islom sharqining har tomonidan keltirilgan cholg'ular, cholg'uchilar bizning bu kungi klassik musiqiyimizning yuksalishiga, ko'tarilishiga xizmat qildilar. Oz zamonda yerlilardan ulug' musiqiyshunoslar yetishdilar. Hatto "Tuhfatu-s-surur"ning (Hofiz Darvesh Ali Changiy



asari) aytishiga ko'ra mashhur Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqiy olimlaridan sanalgan" [7:40].

Ushbu berilgan ta'riflarning barchasi maqom san'atining azaliy an'analarini ifodalovchi, ma'naviy dunyosini aks etuvchi va asoslarini tashkil etuvchi tarixiy voqe'liklar davomida tarixga muhrlangan ayrim ijodiy jarayonlarning tafsilotlaridir. Ularning barchasi xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida Maqomot ummonida saqlanib kelinmoqda. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar maqomlarning azaliy an'analarini hayotga tadbiiq etilishidagi yetukliklarga bo'lgan ishoralar, ijod namunalari, ijro mahoratlari va ilmu-amaliyotning naqadar ahamiyatli ekanligidir. Qolaversa, o'zbek milliy maqomotining nechog'lik ulkan ummon kabi buyukligini ko'rsatadi. Ushbu ummon davrlar osha o'zining azaliy an'analarini saqlab, turli mintaqalardagi maqom navlari ko'rinishida xalqimizning ma'naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.SMirziyoevning tashabbuslari bilan XXI asrga kelib ushbu san'atga yangi nigoh bilan qarash, qayta tiklash, milliy qadriyatlarni zamon ruhi bilan rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ya'ni, O'zbekistonda bunga ilk bor yangicha munosabatni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshlab berdilar. Uchinchi Renesans ilk bor maqom san'atini qayta tiklash va azaliy an'analar asosida yangi namunalarni yaratish lozimligi bilan boshlab berildi. 4 yil davomida mumtoz musiqaning rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan 30 ga yaqin qaror va

farmonlar e'lon qilindi. Bularda maqom san'atining rivojlanish jarayoniga xos asosiy tamoyillar – tashkiliy, ilmiy-tadqiqot va amaliy yo'nalishlar, ta'lim mezonlari to'liq va aniq belgilab berildi. Bosh tamoyillari – o'zbek milliy maqom san'atini saqlash va muhofaza qilish, rivojlantirish va targ'ib qilishdan iborat.

Maqom san'ati xalqimiz hayotining ohanglarda muhrlangan va azaliy qadriyatlari asosida vujudga kelgan ma'naviy boyligidir. Maqomlarni asosli o'rganish, ularni azaliy an'analarini va boy falsafiy mezonlarini anglash uchun asos bo'lishi begumondir.

Shu bois bo'lsa kerak O'zbekiston Prezidenti tomonidan maqom san'ati ijrochiligi, ijodiyoti, ta'lim mezonlari tubdan yangilandi. Xalqimizni maqom sehridan bahramand etadigan maqom chashmalarini yaratilishi, maqom san'atining yangi islohotlarini amaliyotga joriy etilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Eng avvalo Respublikamizda ilk bor "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi sifatida - maqom san'atining ilmiy jihatidan o'rganish, tarixiy va nazariy asoslarini qayta tadqiq etish, ijrochilik yo'nalishlari amaliyoti bo'yicha turli maqom anjumanlari, festivallar, tanlovlar tashkil etish. Maqomlarni tadqiqoti bo'yicha risolalar, o'quv adabiyotlar nota to'plamlar yaratish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etishdir.

O'tgan 4 yil davomida olib borilgan faoliyat o'z samarasini namoyon etdi. Ta'lim jarayoni isloh qilindi, amaliyot esa qaytadan jonlandi. Maxsus adabiyotlar yaratilib, xalqimizning ma'anviy chanqog'ini qondiradigan



maqom chashmalari bunyod etildi. Ya'ni, 2018 yilda Respublikamizning barcha viloyatlarida namunaviy maqom ansambllari, Shahrisabz shahrida dunyoda ilk marotaba maqomot san'atiga bag'ishlangan "Xalqaro maqom san'ati anjumani", 2019 yili Marg'ilon shahrida Musiqali maqom teatri, 2020 yilda O'zbekistonning 3 ta mintaqasida - Farg'ona, Buxoro va Xorazmda Maxsus maqomga ixtisoslashgan maktab-internatlari va Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etildi.

Bulardan muddao:

- Maqom san'atining an'analariga asoslanib, azaliy an'analarini saqlab qolish;

- maqomlarning asl namunalarini o'rganib, zamonga mos holda rivojlantirish;

- maqom ijrochiligidagi ustoz-shogird an'analarini tiklash;

- maqom ijodiyotida bastakorlik an'analarini davom ettirishni rag'batlantirish;

- yosh avlodni mumtoz merosga ehtirom ruhida munosib tarbiyalash va qalbiga singdirishdir.

- mumtoz she'riy adabiyotda tarannum etilgan umuminsoniy ezgu g'oyalarni musiqa jo'rligida targ'ib va tashviq etish.

Maqom jurnalining ushbu ruknida siz mushtariylar, zamonamizga kelib

yangitdan qaror topgan maqom chashmalarining – namunali maqom ansambllari faoliyati haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib borasiz. Yurtimizda ushbu bebaho san'atning ilmiy rivoji, amaliy kamoloti xususida olib borilayotgan zamonaviy qarashlar va ilmiy tadqiqotlarni kuzatishga muyassar bo'lasiz. Zero, maqom xalqimiz ma'naviyatining sarchashmasi, iqboli kamolotining manbai, kelajagimiz umidi va ohanglarda muhrlangan milliy g'ururidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr al-Farobiy. Kitabul-musiqa al-Kabir kitobidan, arabchadan tarjima A.F.Nazarov // Musiqa ijodiyoti masalalari // T., 1990 y.

2. Navoiy. A. Mahbub ul-Qulub. T., 1983 y

3. Navoiy. A. Holati Pahlavon Muhammad. T., 1967 y.

4. Navoiy. A. Hamsat ul-mutaxayyirin, T.1967 y.

5. Matyoqubov. O. Maqomot. T., 2004 y.

6. Rajabov I. "Maqomlar", T., 2006 y.

7. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993 (1926) y.



## YOSH MAQOM IJROCHILARI TANLOVI

**Shoxbozbek Abduxoshimov,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti matbuot kotibi, musiqashunos.

**Annotatsiya:** Maqolada maqom san'ati ijrochilari tanlovlari tarixi va ularning yosh iste'dodlarni kashf etishdagi ahamiyati, xususan 2020 yildan boshlab Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" ko'rik-tanlovining o'tkazilishi mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'z:** maqom, iste'dod, san'at, ijrochi

**Аннотация:** В статье освещена история конкурсов исполнителей маком искусства и их значение в раскрытии молодых талантов, в частности, суть проведения с 2020 года смотр-конкурса "юные исполнители макома" имени Юнуса Раджаби.

**Ключевое слово:** макам, талант, искусство, исполнитель

**Abstract:** The article explains the history of the Maqom performers' competitions and their role in the discovery of young talents, in particular, the importance of the competition "Young maqom performers" named after Yunus Rajabi from 2020.

**Keyword:** maqom, talent, art, performer.

40  
MAQOM ilmiy-uslubiy jurnali / mart (2022/1)

**M**a'lumki, maqom san'ati uzoq tarixga ega. Ushbu mumtoz san'at turi avlodan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib bizning davrga qadar yetib kelgani bejiz emas. Uning bugungi kungada yetib kelishi, ijro etilishi, o'rganilishi va o'rgatilishi, bir so'z bilan aytganda rivojlanishi, hech shubhasiz, maqom ijrochilarining beqiyos xizmatlari natijasi sifatida baholanishi joiz. Aynan maqom ijrochilari ushbu mumtoz san'at turining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgani ham hech kimga sir emas. Zero, eng mohir ijrochilar bir vaqtning o'zida ijodkorlik bilan ham shug'ullangani haqidagi tarixiy misollar talaygina.

Mumtoz maqom san'atining an'alarini navbatdagi bosqichda rivojlantirish, yosh va yangi maqom ijrochilarini kashf etish hamda munosib rag'batlantirish maqsadida 1983-yili fevral oyida maqom ijrochilarining

I Respublika tanlovi o'tkazilgani mamlakatimiz musiqiy hayotida katta va muhim voqea bo'lgan edi. Ulkan ilmiy salohiyat sohibi bo'lgan tashkilotchi, musiqashunos olim Fayzulla Karomatov tashabbusi va boshchiligida tashkil etilib, har 4 yilda bir marotaba o'tkazilishi belgilangan ushbu ilk tanlovda butun Respublikadan jami 38 nafar yosh maqom ijrochilari o'z san'atlarini namoyish etgan bo'lsa, ulardan umumiy 9 nafari g'olib va sovrindor bo'lgan. Ushbu tanlovning eng katta yutuqlaridan biri sifatida unda g'olib va sovrindor bo'lgan san'atkorlarning kelgusi ijodiy faoliyatlari ham muvaffaqiyatli va mamlakatimiz musiqiy hayoti uchun manfaatli bo'lganini e'tirof etish lozim. Misol uchun, ilk tanlovning 1-o'rin sohiblari bo'lgan Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov va Rahmatjon Qurbonovlarning





kelgusi ijodiy faoliyatlari musiqiy jamiyatimiz vakillariga yaxshi ma'lum. Bundan tashqari 2-o'rin sohiblari bo'lgan Rifatilla Qosimov, Abdurahim Hamidov, Yo'ldosh Tojiyev; 3-o'rin sohiblari bo'lgan Hurriyat Isroilova, Mehri Hojimatova (Bekjonova) va ayniqsa, Mahmudjon Tojiboyevlarning ham mumtoz maqom san'ati rivojiga qo'shgan va qo'shayotgan hissalar salmoqlidir. Maqom ijrochilari tanlovining ilk bora tashkil etilib katta muvaffaqiyat qozonishi, beg'araz va ezgu maqsadi hamda g'olib va sovrindorlarning munosib kelgusi faoliyati ushbu tarixiy tanlovning katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lishiga sabab bo'ldi deyish mumkin.

1987-yilda o'tkazilgan maqom ijrochilarining II Respublika tanlovi

ham mumtoz maqom an'analarini munosib davom ettira olish salohiyatiga ega bo'lgan jami 63 ta yosh xonanda va sozandalardan umumiy 15 nafar noyob musiqiy iste'dod sohiblarining kashf etilishi bilan ahamiyatli. Ayni shu tanlovda g'olib va sovrindor bo'lgan Ahmadjon Dadayev, Matrasul Matyoqubov, Abdurahmon Xoltojiyev, Mahmudjon Tojiboyev va Mashrab Ermatov (1-o'rin sohiblari), Murodjon Norqo'ziyev, Matluba Dadaboyeva, Erkin Ro'zimatov (2-o'rin sohiblari), Rahmatilla Samadov (3-o'rin) kabi qator salohiyatli hofizu sozandalarning munosib va holisona e'tirofi tanlov nufuzini yanada oshirdi.

O'zbekiston mustaqilligi arafasida (1991-yil) o'tkazilgan maqom



*I Respublika maqom ijrochilari tanlovining g'olib va sovrindorlari*



ijrochilari tanlovining qamrovi yanada kengaydi. Endilikda tanlov “mintaqaviy” degan nom olib, qo’shni Tojikistondan kelgan yosh maqom ijrochilariga ham ishtirok eta olish imkoniyatini taqdim etdi. Bu galgi tanlovning yana bir ahamiyatli jihatlaridan biri sifatida shuni e’tirof etish joizki, aynan III Maqom ijrochilari tanlovidan e’tiboran unga ulug’ maqomdon ustoz Yunus Rajabiyning tabarruk nomi berilganidir. F.Karomatov boshchiligidagi hakamlar hay’ati Tohir Qahhorov, Azamat Otajonov, O’lmas Olloberganov, Abduvali Abdurashidov kabi mahoratli hofiz va sozandalarga g’olib va sovrindorlikni taqdim etgan edi.

Yunus Rajabiy nomidagi IV maqom ijrochilari tanlovi bilan eng nufuzli va yagona maqom musobaqasi o’z rivojida davom etib, ayni shu tanlovda unga “Xalqaro” maqomi berilgan edi. Tanlovning mazkur soniga qadar barcha cholg’u sozlari va xonandalar uchun umumiy o’rinlar ajratilgan bo’lsa, ayni ushbu tanlovdan e’tiboran xonanda va cholg’uchilar uchun alohida o’rinlar ajratildi. Shuningdek, sozandalar uchun 6 ta cholg’u guruhlari bo’yicha (g’ijjak; nay, qo’shnay, surnay; tanbur, dutor, sato; qashqar rubobi, ud; chang, qonun; doyra, nog’ora), xonandalar ovozi bo’yicha ham 2 ta yo’nalishda (erkak, ayol) alohida o’rinlar joriy etildi. Bundan tashqari, shu tanlovdan boshlab sozandalar ansamblining ham ishtirok etish imkoniyati tug’ildi. 1995-yilning aprel-may oylarida bo’lib o’tgan ushbu tanlovda Gran-pri darajasi ham joriy etilib, uning ilk sohibi taniqli va mahoratli g’ijjakchi O’tkir Qodirov bo’ldi. 30 ga yaqin g’olib

va sovrindorlar qatorida R.Haydarova, S.Jo’rayev, M.Karimova, O’.Olloberganov, S.Niyozov, T.Qo’ziyev, Sh.Murodov, N.Pirmatova, S.Azizboyev va S.Usmonov kabi bugungi kunda ham o’z ijodiy faoliyatini munosib davom ettirib kelayotgan hofiz va sozandalar bor. Qolaversa, tanlovda yangi nominatsiya – “Umid” sovrini joriy etilib, u g’olib yoki sovrindor bo’la olmagan iqtidorli va umidli yosh maqom ijrochilariga ishonch va rag’bat timsoli sifatida taqdim etildi.

1999-yilda o’tkazilgan maqom ijrochilari tanlovining V sonidan e’tiboran ushbu tanlov Respublika miqyosidagi tanlovga aylantirildi. Abduhoshim Ismoilov boshchiligidagi hakamlar hay’ati M.Rahmatova, Sh.Matyoqubov, X.Oripov, O’.Rasulov, G.Mamazoitova, A.Jalilov kabi taniqli hofiz va sozandalarni g’olib va sovrindor deb topdi.

2003-yilda o’tkazilgan Yunus Rajabiy nomidagi VI Respublika maqom ijrochilari tanlovi yana ustoz F.Karomatov boshchiligida tashkil etildi. O.Matchonov, N.Qodirov, M.Voisov, I.Arabov, B.Kenjayeov, E.Ahmedov va boshqa hofiz-sozandalar g’olib va sovrindor bo’lgandan so’ng ushbu tanlov 18 yil davomida afsuski, o’tkazilmay qoldi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning barcha sohalar qatori madaniyat va san’atga, xususan, mumtoz maqom san’atiga qaratayotgan diqqat-e’tiborlari samarasi o’laroq, 2017-yilning 17-noyabr kuni qabul qilingan “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3391 asosida maqom san’ati o’z tarixiy rivojlanishida yangi bosqichga



*Qayta tiklangan Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” tanlovining taqdirlash marosimidan so‘ng (2021)*

ko‘tarildi desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi 237-qarori asosida Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” ko‘rik-tanlovi qayta tiklandi. Ayni shu qaror asosida tanlovning Nizomi tasdiqlanib, uning 2020-yildan boshlab har 2 yilda bir marotaba (aprel oyida) Toshkent shahrida o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi. Tanlovning asosiy maqsadi esa “... maqom ijrochiligi madaniyatini yanada yuksak darajaga ko‘tarish, milliy maqom san‘atini dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni kashf etish, rag‘batlantirish va ularning ijodini targ‘ib etish, yoshlar orasida maqom san‘atiga bo‘lgan qiziqishni oshirish” ekanligi asoslab qo‘yildi. Ushbu tanlovda 17 yoshdan 35 yoshgacha

bo‘lgan ijrochilar 9 ta yo‘nalish bo‘yicha bellashadilar.

2020-yilda o‘tkazilishi kerak bo‘lgan, lekin pandemiya sabab 1 yil kechikib o‘tkazilgan ushbu nufuzli tanlovda 100 dan ortiq yosh maqom ijrochilari o‘zaro bellashgan bo‘lsa, ulardan 41 nafarini O‘zbekiston xalq artisti A.Ismoilov boshchiligidagi hakamlar hay‘ati g‘olib va sovrindor deb topdi. Ular orasida “Maqom xonandaligi” (erkak ovoz) yo‘nalishi bo‘yicha mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritgan 2 nafar eng qobiliyatli xonandalarning tanlov doirasidagi har bir chiqishlari tinglovchitomoshabinlarda o‘zgacha taasurot qoldirgani bor gap. Darhaqiqat, ular 3 ta bosqich (tur)dan tashkil topgan ushbu tanlovda murakkab maqom namunalaridan tortib, mumtoz xalq ashulalari-yu yetuk bastakorlarning sara



ijod namunalarigacha barkamol milliy musiqamiz durdonalarini maromiga yetkazib ijro etdilar. Soʻz yuritmoqchi boʻlayotganimiz, gʻolib xonandalarning ikkisi ham Fargʻona vodiysi ijrochilik maktabi davomchilari hisoblanib, oʻzlari mansub hofizlik maktabi anʼanalarini munosib davom ettira olish salohiyatiga ega yosh maqom ijrochilaridir.

Ulardan birinchisi Abbosjon Gʻafforov 1992-yilning oktyabr oyida Fargʻona viloyati Uchkoʻprik tumanining Chang qishlogʻida tugʻilgan boʻlsa, ikkinchisi Lazizbek Muxtorov 1997-yilning noyabr oyida Buvayda tumanining Mangʻit qishlogʻida tavallud topgan. Milliy musiqa sanʼatimizga bolaligidan mehr qoʻygan ushbu yosh hofizlar bugungi kunda Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati institutining magistratura bosqichida tahsil olmoqdalar.

Abbosjon Gʻafforov Qoʻqon shahar tasviriy va amaliy sanʼat kollejini muvaffaqiyatli tamomlab, 2012-yilda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining “Anʼnaviy xonandalik” yoʻnalishiga grant asosida qabul qilinganidan soʻng, OʻzDK professor-oʻqituvchilari Mahmudjon Tojiboyev, Muhabbat Salixova va Shavkat Matyoqubovlar sinfida oʻz bilim va koʻnikmalarini muntazam boyitib borgan. Talabalik yillarida Oʻzbekiston xalq hofizi Oʻlmas Saidjonov rahbarligidagi Oʻzbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi “Mumtoz” ansamblida Oʻzbekiston xalq hofizi Mahmudjon Yoʻldoshev kabi zamonamizning mashhur sanʼatkorlari bilan bir safda ijod qilgan boʻlsa, bugungi kunda Oʻzbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov boshchiligidagi Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblida mehnat faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Handwritten text at the bottom of the page, likely a signature or date, including the number 7 and the year 1404.



Ovoz imkoniyatlari, musiqiy bilim va ko'nikmalari asosida shakllangan bo'lajak hofizning ijro uslubi Farg'ona vodiysida yashab ijod etgan O'zbekiston xalq hofizlari Erka Qori Yusupov, Rasulqori Mamadaliyev, Jo'raxon Sultonov va ayniqsa, Ma'murjon Uzoqov yaratgan ijro uslubiga xosdir. A.G'afforovning 2015-yili Farg'onada o'tkazilgan Ma'murjon Uzoqov xotirasiga bag'ishlangan Respublika ko'rik-tanlovida sovrindor bo'lgani ham bejiz emas.

Lazizbek Muxtorov esa o'quvchi va talabalik yillari haqida shunday deydi: "dastlab Buvayda tumanida joylashgan Rasulqori Mamadaliyev nomidagi 17-sonli BMSMda, keyinchalik,

O'zDK huzuridagi Iqtidorli bolalar akademik litseyida O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev sinfida tahsil oldim. Ustozimning ijro yo'nalishi, ularning otalarcha mehribonligi va kezi kelsa, talabchan bo'lishlari menga juda yoqardi. M.Tojiboyevning menga eng yoqadigan fazilatlari ularning serqirra san'atkor bo'lganliklaridir. Ustozim boshchiligida "Yosh ijrochilar" Respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etib, sovrindor bo'ldim. Litseyni tugatishim bilan oq (2017-yil) O'zbekiston davlat konservatoriyasining "An'anaviy xonandalik" yo'nalishiga o'qishga kirdim. U yerda ham ustozim M.Tojiboyev sinfida tahsil olib, maqom ijrochiligi borasidagi



*O'zbekiston xalq hofizi Isroiljon Vahobov Abbasjon G'afforov va Lazizbek Muxtorovga g'oliblik sovrinini topshirmoqda*



bilim va ko'nikmalarimni muntazam oshirib bordim”.

Farg'ona ijrochilik maktabining munosib davomchisi hisoblangan L.Muxtorovning ijro uslubida Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliyev va ayniqsa, Mahmudjon Tojiboyevning ijro yo'li yaqqol seziladi. Darhaqiqat, yosh hofiz ustoz M.Tojiboyev ijro uslubining yutuqli jihatlarini puxta o'zlashtirgan bo'lib, bugungi kunda u Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblida o'z ijodiy faoliyatini olib bormoqda, mumtoz maqom san'ati pillapoyalaridan asta-sekinlik ila yuqorilamoqda.

Qayta tashkil etilgan Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” ko'rik-tanlovining ilk g'olib xonandalari ijro dasturida belgilangan noyob qobiliyat va mahorat talab etadigan murakkab ashulalarni zamonamizning ustoz-maqomdonlariga manzur eta bildilar. Ulardan birinchisi tanlovda Shashmaqom Buzruk maqomidan Nasrullovi (taronalari bilan), xalq ashulalaridan Girya, Buzruk maqomi 2-guruh sho'balaridan Mo'g'ulchayi Buzruk (4 ta shohobchasi bilan), M.Mirzayev tomonidan Furqat g'azaliga bastalangan “Yo'lingda” kabi asarlarni ijro etgan bo'lsa, ikkinchisi Shashmaqom Buzruk maqomidan Talqini Uzzol (taronasi bilan), Cho'li Iroq ashulasi, Dugoh maqomidan Mo'g'ulchayi Dugoh, Huvaydo g'azaliga M.Bahodirov musiqasi bilan aytiladigan “Na qildim” kabi durdona namunalarni, shartli asarlardan Saraxbori Navo (taronalari bilan) va Sarparda asarini ijro etdilar.

Hakamlar hay'atining bir ovozdan e'tirof etishicha yangi O'zbekistonimizda qayta tiklangan va har yerda Yunus Rajabiy nomidagi “I Yosh maqom ijrochilari” ko'rik-tanlovi deya e'lon qilinayotgan (aslida esa, yettinchi bor o'tkazilayotgan) tanlovning ishtirokchilari ancha yoshardi. Darhaqiqat, Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ta'kidlaganidek, ushbu tanlov maqomga A.G'afforov va L.Muxtorov kabi “yangi qon”larning kiritilishida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanlovga yosh maqom ijrochilari katta qiziqish bildirayotgani hurmatli Prezidentimizning sohaga shaxsan e'tiborlari va hukumatning ushbu tanlovni tashkil etish to'g'risidagi tegishli qarorida belgilangan “yoshlar orasida maqom san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish” yo'lidagi ilk odimlar samarasidir. Qarorda belgilangan tanlovning asosiy maqsadlaridan bo'lmish “iqtidorli yoshlarni kashf etish va rag'batlantirish” ishlari munosib ado etilganini tan olish kerak. Zero, ushbu tanlov g'oliblarining barchasi noyob ijrochilik qobiliyatiga ega bo'lib, ular keng jamoatchilik uchun hali uncha tanish bo'lmagan - yangi va yosh maqom ijrochilaridir. Lekin, milliy maqom san'atini dunyo sahnalariga olib chiqish hamda tanlov g'olib va sovrindorlarining ijodini munosib targ'ib etish kabi ustuvor vazifalarning ijrosi borasida ham qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina. Bu borada g'olib va sovrindorlarning o'z ijod namunalari yoki tanlovdagi ishtirokini muayyan vaqt davomida radio to'lqinlari hamda televideniya orqali e'firla uzatish masalasi yuzasidan imtiyozli yoki mutlaqo xolisona



namoyish etish imkoniyatini ham yaratish ayni muddao. Nazarimda, bu imkoniyat yoshlarning tanlovga bo'lgan qiziqishini oshirish barobarida g'olib va sovrindorlar ijodining targ'ib etilishi kabi asosiy maqsadlarni ham amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Taklif o'rnida yana shuni aytish mumkinki, "Umid" sovrinining tiklanishi ham to'g'ri va o'rinli ish bo'lar edi. Chunki, ushbu sovrinning g'oyasi va maqsadi haqiqatda bugun ham dolzarb. Bundan tashqari, tanlov nominatsiyalariga "Xonandalar ansambli"ni ham qo'shishning payti kelgan ko'rinadi. Agar, ushbu ish amalga oshsa, tanlov

nominatsiyalarining soni 10 taga yetkaziladi, ya'ni, uning qamrovi ham bir qadar kengayadi. Ushbu tanlov shu zayl rivojlanish va kengayishda bardavom bo'lsa, "Xalqaro" maqomiga sazovor bo'lib, butun Sharq mamlakatlarning yosh maqom ijrochilarini do'stlik rishtalari ila bog'lab, eng nufuzli, asl sharqona tanlovga aylansa, ne ajab. Zero, hukumat qarorida belgilangan "milliy maqom san'atini dunyo sahnalariga olib chiqish"dek sharaflig maqsadni ro'yobga chiqishi uchun mavjud barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanish o'ta muhim.



## MARG'ILON MUSIQALI MAQOM TEATRI: JO'SHQIN IJOD DAVOM ETMOQDA

**Aziz ZOKIROV,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori

**Annatsiya:** Maqolada yangidan tashkil etilgan Marg'ilon musiqali maqom teatri faoliyati, asosiy maqsadi, ijtimoiy vazifalari, sahnalantirilgan va namoyish qilingan asarlar ijrosi, jamoaning yutuqlari ochib berilgan. Navqiron ijodxonada misolida teatr san'atida maqomlardan foydalanish istiqbollari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Musiqali maqom ansambli, mumtoz kuylar, teatrlashtirilgan asarlar, milliy ma'naviyat, Marg'ilon madaniy muhiti, rejessyor mehnati.


**Аннотация:** В статье рассказывается об открытии, организации деятельности, коллективе и творчестве Маргиланского музыкального театра маком, гастрольной деятельности театра.

**Ключевые слова:** маком, макомнқй спектакл, театр, презентация.

**Abstract:** The article describes the opening, organization of activities, team and creativity of the Margilan musical theater makom, touring activities of the theater.

**Keywords:** maqom, maqom performance, theater, presentation.

2018 yilning 6-10 sentabr kunlari o'zbek milliy maqom san'ati tarixida olamshumul voqea yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Shahrisabzda "Xalqaro maqom san'ati" anjumani bo'lib o'tdi. Yurtboshimiz anjumanda "Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz, o'rganishimiz va uni buzilmagan holatda yosh avlod ongiga singdirishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur", degan konseptual fikrni bildirdilar.



Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 6-7 may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida yana bir bor maqom san'atini rivojlantirishga





alohida to'xtalib o'tib, zarur topshiriqlar berdi. Natijada 2019 yil 5 sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek milliy maqom san'ati markazi huzuridagi Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 732-sonli qarori e'lon qilindi. Mazkur topshiriq va qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 555-sonli buyrug'iga asosan, 2019 yil 29 noyabr kuni Marg'ilon shahar musiqali maqom teatrining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Marg'ilon shahar musiqali maqom teatriga badiiy jihatdan yuksak asarlarni sahnalashtirish, teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlari orqali maqom san'atini targ'ib qilish, shuningdek, qiziqchilik va askiya san'atining sahnaviy syujetlarini rivojlantirish va takomillashtirish, yuqori malakali maqom va teatr san'ati ijodkorlarining imkoniyatlarini namoyish etish, maqom ijrochiligi yo'nalishida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini oshirishga ko'maklashish, aktyorlik mahorati va maqom san'ati ijrochiligi bo'yicha maqom, teatr va san'at muassasalarining ijodiy xodimlari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining maqom teatri yo'nalishida amaliyot o'tashlarini tashkil etish; xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish, chet eldan malakali mutaxassislarni jalb etgan holda trening, mahorat darslari, maqom teatri san'ati bilan bog'liq o'quv-tajriba mashg'ulotlari hamda maxsus loyihalarni amalga

oshirish; mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyatini amalga oshirish, festival, ko'rik-tanlov, maqom kechalari, uchrashuvlar, ijodiy kechalar, qiziqchilik va askiya tomoshalari hamda boshqa tomosha tadbirlarini tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

O'zbek teatri san'atida yangilik sifatida teatr san'atiga maqom san'atining uyg'unlashuvi ila Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri o'z faoliyatini boshladi. Respublika madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi teatr arboblari uyushmasi, O'zbek milliy maqom san'ati markazi yakdillik bilan teatrga 2007 yildan boshlab Farg'ona viloyat qo'g'irchoq teatrida, 2016 yildan Farg'ona viloyat drama teatrida, 2017 yildan Farg'ona viloyat Islom Karimov nomidagi Teatr-konsert saroyi direktori lavozimlarida ishlab kelgan Tavakkal Mamajonovich Sultonov tayinlangan edi. Tavakkal Sultonov uzoq yillik teatr sohasidagi ish tajribasi hamda ustozlar tomonidan berilgan maslahat va takliflarga suyangan holda maqom teatriga, o'z ishining ustasi bo'lgan, yetuk mutaxassis darajasiga intilib ijod qiluvchi teatr aktyorlari va maqom san'ati sozanda va xonandalaridan tashkil topgan ijodkorlarni yig'ib, yangi Maqom teatrida butun bir "Ijodiy ansambl" yakdilligini tashkil etdi (Ayni kunlarda Farg'ona viloyat qo'g'irchoq teatri rahbari lavozimida ishlayotgan bo'lsa ham T.Sultonov o'z tajribalarini qadrdon jamoasi bilan o'rtoqlashishda davom etmoqda).

ijodiy xodimlardir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, kuldirish darg'asi Mamasiddiq Sherayev boshchiligida bir qator yoshlar qiziqchilik va askiyachilik san'tini rivojlantirish, askiya san'atini yoshlar va kelajak avlodga meros etib qoldirish uchun askiyaning sahnaviy syujetlarining yangi ko'rinishlari mavzusida ijod qilib kelmoqdalar.

Teatrning ilk sahna asari sahnalashtiruvchi rejissyor S.Meliyev va sahnalashtiruvchi rassom F.Qo'chqorovlar tomonidan shoir va

dramaturg Turob To'laning "Shashmaqom" asari asosida sahnalashtirilgan maqom-spektakli bo'ldi. Mazkur maqom-spektakli jamoatchilik tomonidan katta olqishlar bilan kutib olindi.

2020 yil 10-15 dekabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan yosh rejissyorlarning "Debyut" respublika ko'rik-festivalida maqom teatri muallif SH.Murodovning "Muhabbat bo'stoni" asari asosida sahnalashtirilgan "Muhabbat bo'stoni" maqom-spektakli bilan ishtirok etdi. Ko'rik-festival natijasiga ko'ra, "Muhabbat bo'stoni" maqom-spektaklini sahnalashtiruvchi rejissyori, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filiali "Musiqali






teatr rejissyorligi” yoʻnalishi talabasi X.Egamberdiyev faxrli I-oʻrin bilan taqdirlandi.

Hozirgi kunda Margʻilon shahar musiqali maqom teatri repeptuaridan: Turob Toʻlaning “Shashmaqom” spektakli (sahnalashtiruvchi rejisyor

– Sayfiddin Meliyev), Hayitmat Rasulning “Muhabbat sultoni” asari asosida “Munojot” maqom-spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Sayfiddin Meliyev), Shokir Murodovning “Muhabbat boʻstoni ” asari asosida “Muhabbat boʻstoni” maqom-konsert





spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Xo‘jamberdi Egamberdiyev), Nurullo Abbosxonning “Navoiy” maqom spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Doston Haqberdiyev), Muhammasiddiq Sherayev, Marat Azimovning “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?” deb nomlangan askiya-konsert kechasi, teatrning maqom ansabli tomonidan tayyorlangan “Maqom tarovati” maqom-konsert dasturi (sahnalashtiruvchi – Bahodir To‘xtasinov), Mahmud Tojiboyev, Hayitmat Rasul asari “Maqomi Tanho” maqom-spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Doston Haqberdiyev) singari asarlar o‘rin olgan.

Mustaqil Marg‘ilon musiqali maqom teatri qisqa vaqt ichida bir

qator muvoffaqiyatlarga erishdi. Kimsanboy (G‘ulomqodir) Sobirovning teatlardagi uzoq yillik ijodiy izlanishlari munosib baholanib, “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. Teaktrning artist sozandasi Shoira Nazarova 2021 yili “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mamasiddiq Sherayev 2021 yili “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

2021 yili maqom teatrining Oliy toifadagi vokal artisti Botir Sultonov Respublika madaniyat vazirlining o‘zbek teatri san‘ati rivojiga qo‘shgan samarali hissasi uchun “Teatr fidoyisi” faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi.

2021 yili 6 dekabrda to‘rtinchi “Yoshlar teatri san‘ati” xalqaro forumida namoyish



etilgan Nurillo Abbasxonning “Navoiy” maqom spektakli tomoshabinlar oqishiga sazovor bo‘ldi.

2021 yili 17-23 dekabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Navoiy siymosi va asarlari - sahnada” respublika teatrlari ko‘rik festivali doirasida muvaffaqiyatli ishtirok etdi hamda uch nominatsiya bo‘yicha - “Eng yaxshi sahna asari” nominatsiyasi bo‘yicha 1-darajali diplom, “Eng yaxshi asar mullifi” nominatsiyasi bo‘yicha 1-darajali diplom, “Navoiy rolini eng yaxshi talqin etgan aktyor” nominatsiyasi bo‘yicha 1-darajali diplomlarni qo‘lga kiritib, oliy sovrin sohibiga aylandi.

Teatrning drama artisti Azizbek Isroilov “Navoiy obrazining eng yaxshi talqini uchun” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Teatrning “Maqom tarovati va askiya nashidasi” deb nomlangan maqom va

askiya konsert dasturida ijro etilgan mumtoz kuy-qo‘shiqlar va askiyalar ham ko‘plab tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo‘ldi.

2022 yil teatr jamoasi uchun ham barakali boshlandi. Jumladan, adabiyotshunos Otabek Jo‘raboyev senariysi asosida ulug‘ o‘zbek shoiri Muqimiy ijodiga bag‘ishlangan “Ko‘nglim sandadur yoxud Qo‘qon ushshog‘i” nomli musiqali maqom spektakl tomoshabinlar e‘tiboriga havola qilindi.

Spektaklda Muqimiy hayoti va ijodi uchun xarakterli bo‘lgan ijtimoiy-madaniy voqealar tarixiy jihatdan to‘g‘ri va haqqoniy namoyish etilgan. Musiqiy dramatik asarda Muqimiy lirikasi va yumori, xalq askiya san‘ati qorishiq holda butun bir kompozitsion yechimda maqomiy kuylar jo‘rligida tarannum qilinganligini alohida ta’kidlash kerak.



Sahnalashtiruvchi rejessyor O'zDSMI magistri Doston Haqberdiyev, sahnalashtiruvchi rassom Ixtiyor G'oyipov, raqslarni sahnalashtirgan Farangiz Lutfullayeva shoir she'rlari bilan aytiladigan mumtoz ashulalarni o'ziga xos tarzda tomoshabinga armug'on qilish yo'lida ijodiy hamkorlik qilishdi. Muqimiy so'zi bilan aytiladigan "Miskin", "Sho'xi parivash", "Tanovar", "Ey, chehrasi tobonim", "Ayrilmasin", "Adolat tanovari", "Bormukan?", "Parvonaman", "Yolg'iz", "Qalandar-I" nomi ila mashhur bo'lgan mumtoz va xalqona qo'shiqlar yangi ovozlarda talqinida jarang sochdi. Muhimi, tomoshabin bu mumtoz qo'shiqlarni bugun emas, huddi shoir yashagan davrda tinglayotgandek ruhiy holatga tushadi. Shuningdek, Uvaysiy, Yusuf Saryomiy, Furqat g'azallari bilan ijro etilgan asarlar ham spektakl kompozitsiyasiga o'zgacha ruh bag'ishladi.

Ta'kidlash kerakki, tomoshabinlar bu asar orqali "Muqimiy" taxallusi bir yerda muqim yashovchigina emas, balki

bir so'zda, bir e'tiqodda muqim turuvchi inson degan ma'noni ham bildirishini anglab yetishdi.

Asarda Muqimiy, Muqimiyning onasi, Furqat, Zavqiy, Muhyi hoji, Orif samovar, Pristav, Dodhoh, Muhammadjon hofiz, Faxrinniso va boshqa obrazlar iste'dodli aktyor va aktrisalardan tomonidan mahorat bilan ochib berildi. Spektaklda bot bot ijro etib turilgan "Segoh" maqomidan "Garduni segoh" kuyi o'ziga xos mazmun tashigan.

Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri bilan O'zbekiston san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filiali o'rtasida ijodiy hamkorlik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Institutning o'ndan ortiq talabalari teatr bilan mehnat shartnomalarini tuzishgan. Talabalar o'qish bilan birgalikda amaliyot tarzida, teatrdan o'z ijodiy faoliyatlarini olib borishmoqda. Teatr ma'muriyati institut bilan kelgusidagi ijodiy hamkorlikka katta umid bog'lamoqda.



## QORAQALPOQ DOSTONLARINING METRORITMIK ASOSLARI

**Shaxida BERDIXANOVA,**Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti  
"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi,  
"Doston ijrochiligi" kafedrasida mudiri v.b.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ilk bor dostonlarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish asosida qoraqalpoq epik merosining qahramonlik va lirik doston nomalariga xos metroritmik asoslari tadqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** doston, jirov, baxshi, metroritm

**Аннотация:** В данной статье впервые исследуются метrorитмические основы каракалпакского эпического наследия на основе сравнительно-типологического изучения дастанов, выявляется специфика метра и ритмообразования в напевах героических и лирических дастанов.

**Ключевые слова:** дастан, жырау, бахсы, метrorитм

**Abstract:** In this article, for the first time, the meter-rhythmic foundations of the Karakalpak epic heritage are studied based on a comparative typological study of dastans, the specifics of meter and rhythm formation in the melodies of heroic and lyrical dastans are revealed.

**Keywords:** epos, djirau, bakhshi, metro rhythm.

Yurtimizda madaniyat, xususan musiqa san'atini rivojlantirishga va epik merosni qayta tiklashga so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. "Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati avvalo, uning og'zaki ijodi – folklor san'ati, xalq eposi orqali jonlanadi va milliy qadriyatlar hamda an'analarni avaylab-asrash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi"[1.]. Bu esa qoraqalpoq xalqi boy ma'naviy merosining tayanch asosini tashkil etuvchi xalq og'zaki ijodiyotini tadqiq qilish masalasini dolzarbligini kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi, 2020-yil 27-maydagi PF-6000 son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 17-maydagi PQ 3391 son "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 8-avgustdagi PQ 3178-son, "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida", PQ 3920 son "O'zbekiston





Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 1-noyabrdagi PQ 3990-son "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmon va qarorlarida, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon musiqa madaniyatida asrlar osha shakllangan milliy an'analarni qayta tiklash, avaylab-asrash va targ'ib etish masalasi yanada dolzarb bo'lib, ular orasida musiqa merosini rivojlantirish muhim omil bo'lmoqda. Jahon ilmida dostonlarning hozirgi kunga qadar asosan tarixiy, filologik, adabiyotshunoslik, estetika sohalaridagi mezonlar va me'yorlar asosida tahlillangan. Buning zamirida musiqa san'atiga doir masalalar, jumladan, Markaziy Osiyo musiqa madaniyati, og'zaki xalq ijodining ma'naviy merosi, doston san'ati, dostonchilik ijodiyoti, an'anaviy ijrochiligiga oid xalqaro miqyosdagi musiqiy ilmiy farazlar ommalashishiga asos bo'lmoqda.

Dunyo musiqa ilmida milliy musiqa merosimizni ilmiy, musiqiy nazariy jihatlarini tadqiq etish, metroritm qonuniyatlarini o'rganish, musiqashunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib, bu, doston nomalarida shakllangan metr va ritmning o'zaro ta'siri orqali milliy musiqa ohangini o'ziga xosligini aniqlash zaruratini keltirib chiqardi. Qoraqalpoq xalq epik musiqa

ijodiyoti, uning etnogenezi, janr-uslub, ijrochilik va dostonlarning musiqiy xususiyatlari kam o'rganilgan jabhalardan biri bo'lganligi sababli, nazariy musiqashunoslik sohasida maxsus ilmiy tadqiqot olib borilishini taqozo etmoqda.

Qoraqalpoq an'anaviy musiqasining epik merosini musiqiy-nazariy jihatdan yoritish masalalari deyarli tadqiq etilmagan mavzular sirasiga kiradi. Mazkur jabhani yoritish uchun eposni o'rganishga bag'ishlangan katta miqdordagi ilmiy, tarixiy, badiiy adabiyot jalb etilib, epik asarlar tahlili bilan bog'liq filologik va etnomusiqashunoslik ishlari, og'zaki xalq san'ati muammolari qayd etilgan ilmiy adabiyotlar va maqolalar, qoraqalpoq she'riyati va folkloriga bag'ishlangan monografiyalar, nashrlar ko'rib chiqildi. Epik janrni o'rganishda tarixiy-nazariy, falsafiy-estetik, etimologik, qiyosiy-tipologik jabhalarning umumiy masalalari, shuningdek, uning badiiy-tasviriy va she'riy asoslari spesifikasi A.Lord, V.Jirmunskiy, X.Zarifov, M.Xamrayev, X.Xamrayev va boshqalar ishlarida qayd etilgan.

Mazkur mavzu uchun K.Ayimbetov, N.Davkarayev, I.Sagitov va K.Maqsetovlar ishlarida yoritilgan qoraqalpoq epik merosi tadqiqotlari alohida qiymatga ega [2.].

Turkiy tilli xalqlar qo'shiqlarining metroritmini o'rganishga asos solganlardan biri V.Belyayevdir. Uning yondashuvi asosida Qadimgi Yunon va o'rta asrlar Sharq mutafakkirlari ishlarida bayon etilgan she'rning bo'g'inritmini o'rganish metodi yotadi. Turli xil etnomadaniyatlarga mansub xalq qo'shiqlarini tadqiq etish davomida V.Belyayev tomonidan ilgari surilgan holatlar, nazariy musiqashunoslik



sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qoraqalpoq xalq madaniyati o'tgan asr boshlarida tadqiq etilganda ko'plab Markaziy Osiyo davlatlarida bo'lgani kabi rus folklorchi-filolog olimlarning roli ulkan bo'ldi, ular tomonidan qoraqalpoq dostonlari, rivoyatlari, maqollari, pand-nasihatlari va h.k.ni to'plash hamda nashr etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan edi. XX asrning 20-yillariga qadar dostonlarning bir nechta variantlari to'planib, chop etildi. Bu borada epik merosni to'plash va nashr etishga asos solgan A.Divayev va I.Belyayev kabi olimlarning nomlarini alohida e'tirof etish lozim.

XX asrning 50-yillariga qadar alohida dostonlar yozib olingan bo'lsa, keyinchalik dostonlar variantlarini ham to'plash boshlandi [3:12-13]. 1959-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filiali ochilishi munosabati bilan Tarix, til va adabiyot instituti tashkil etildi. Mazkur institut huzurida folklor sektori ish boshladi, u qoraqalpoq folklorini tizimli o'rganish va to'plashga asos soldi. Folklorning to'plangan namunalari asosida qoraqalpoq olimlarining xalq og'zaki ijodi, xususan epik merosni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlari paydo bo'ldi.

**B a x s i ( B a x s h i )** v a jiraularning (jirovlarning) ijrochilik san'ati qoraqalpoqlar ijodiy faoliyatinnig yetakchi yo'nalishi bo'lib, u qoraqalpoq eposi musiqiy tilining xususiyatlarini madh etadi. Baxsilar asosan lirik mazmundagi, jiraular esa qahramonlik dostonlarini ijro etadilar. Baxsilarning musiqiy cholg'usi dutor bo'lsa, jiraularniki – qo'bizdir. Bu asnoda qoraqalpoq eposining spesifik xususiyati - unda

qahramonlik dostonlarining ustunlik qilishidir.

Ma'lumki, jirau san'ati qadim zamonlardan O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari orasida ham joriy bo'lgan edi. Jirau ijrochilik an'alarining turkiy xalqlar orasida ommalashganligi xususida XIX asrda mashhur olimlar V.Radlov, I.Budagov, Ch.Valixanovlar yozgan edilar. Ular o'z tadqiqotlarida "jirau" ("doston aytuvchi", "baxshi") so'zi "jir" ("epos", "epik poema") so'zidan olingani, "jirlau" so'zi esa "qo'biz jo'rligida epik poemani ijro etish"ni anglatganligini ishonchli tarzda isbotlaganlar.

Qo'biz – turkiy xalqlar musiqiy an'alarida joriy bo'lgan eng qadimiy cholg'u. Bu cholg'uning kelib chiqishi xususida jiraular dostonlarida ko'plab rivoyatlar mavjud bo'lib, ularda cholg'uning yaratuvchisi Qo'rqut hisoblanadi. Qo'bizning qadimiy kelib chiqish ildizlari xususida shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning (XI) "Devonu lug'otit turk" asarida ham ma'lumotlar keltiriladi. Qo'biz chalayotgan odam lug'atda "qo'buzlug'" (qo'bizli) deb nomlangan, bu shubhasiz, ijrochilik san'ati mazkur turining qadimiy ildizlari turkiy mamlakatlarda kelib chiqqanini isbotlaydi[4:368].

Jirau ijrochilik manerasining xususiyatlari "tomoq bilan" (ichki yopiq ovoz bilan) kuylash bo'lib, u qo'biz jo'rligida tinglovchini maftun qiluvchi g'aroyib muhit yaratadi.

Qoraqalpoq epik ijodi rivojlanishining ikkinchi davri lirik dostonlarning paydo bo'lishiga ulanib ketadi. Qoraqalpoq eposi lirik tarmog'ining asosiy farq qiluvchi xususiyati – uning interpretatsiya usulidir. Qoraqalpoq folklorining tadqiqotchilari – N.Davkarayev, I.Sagitov, K.Ayimbetovlarning ta'kidlashlaricha,



baxsilar ijodi XVIII-XIX asrlar mobaynida yuzaga keldi va faol tarzda rivojlana boshladi. O'zbek, turkman va uyg'urlar baxsini "baxshi", ozarbayjonlar – "o'zan", "ashug", gruzinlar – "masagan", armanlar – "gusan" deydilar. Ushbu xalqlarning barchasida "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib", "Oshiq Najib", "Oshiq Karim" (Karam) kabi dostonlar mavjud. O'sha zamonlarda musiqachilar shaharlarni kezib madaniyatni, maishiy hayotni, musiqiy merosni o'rganganlar va ijrochilar o'rtasida musobaqalar uyushtirganlar, ular orasida baxsilar ham bor edi. Baxsi an'analari uchun ochiq ovoz bilan kuylash xosdir, unda ovoz imkoniyatlarini namoyish etish uchun ko'proq sharoit mavjudki, bu dutor jo'rligida ijro etiluvchi aytilar diapazonini sezilarli ravishda kengaytiradi.

Dostonlar ijrosining ikki turli an'analari amaliyoti qoraqalpoq epik merosining muhim xususiyatlaridan biridir. "Arxaik" va "zamonaviy" kabi ikki turli ijrochilik an'analarning harakati va o'zaro ta'siri qoraqalpoq musiqa madaniyati boyligini belgilab beruvchi eng muhim omildir.

Ta'kidlash lozimki, matnlari to'liq yozib olingan dostonlar mavjud bo'lib, adabiyotshunoslar, filolog-folklorchilar tomonidan eposning badiiy-poetik mazmunini o'rganish bo'yicha ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo uning musiqiy tomoni tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan. Nazarimizda buning sababi, xalq ijrochilari bo'lmish baxsi va jiraular musiqiy ijodining munosib baholanmagani, shuningdek, Respublikamizda musiqashunos mutaxassislarning yo'qligidir. Mazkur vaziyat epos taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatdi, ko'plab aytilar to'liq

ko'rinishda bizgacha yetib kelmadi yoki o'zgartirildi, magnit yozuvlari esa foydalanishga yaroqsiz bo'lib, ularning ko'plab qismlari yo'qotildi.

Olimlarning fikricha, baxsi va jiraular repertuari ijrochilik amaliyotida tipologik, ya'ni qonunlashtirilgan, joriy bo'lgan (turg'un) aytilar sifatida ishlovchi aytilarning muayyan miqdorini tashkil etadi. Ta'kidlash lozimki, jirau aytilarini o'rganish davomida muayyan ijrochi ijodi uchun xos bo'lgan bir qator individual aytilar mavjudligi aniqlandi. Bu asnoda ta'kidlash zarurki, u yoki bu aytinga murojaat qilish birinchi navbatda matn mazmuniga, qolaversa ijro sharoiti, auditoriyasi va vaqtiga bog'liq bo'ladi.

Aytilarning metrik uyushmasi shubhasiz, alohida qiziqish uyg'otadi, sababi u lad, metr va ritm bilan bir qatorda shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Mazkur tadqiqotda ritm keng ma'noda ko'rib chiqiladi, unda nafaqat ritmik, balki metrik jabhalar ham nazarda tutiladi.

Lirik doston aytilarida metrning roli va undan foydalanish usuli o'zgacha funksional ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat birinchi navbatda, musiqiy qonuniyatlar ahamiyatining o'sishi va avvallari hukmron bo'lgan she'riyat qonuniyatlarining ikkinchi planga chiqishi bilan izohlanadi.

An'anaviy musiqiy ijrochilik amaliyoti ko'rsatganidek, metrik ikki hissalik "tayanch" o'lchov sifatida keladi. Agar qahramonlik aytilarida qat'iy metrlar tarkibida  $2/4$ ,  $3/8$  va  $6/8$  o'lchovlari ustunlik qilsa, lirik aytilarda esa asosiy o'lchovlar bilan bir qatorda  $3/4$  va  $5/8$  ham keng tarqaldi. Shu munosabat bilan ta'kidlash kerakki,  $3/4$  va  $5/8$  ( $2/8+3/8$ ;  $3/8+2/8$ )



o'ldovlari qahramonlik doston aytimlarida birmuncha kam qo'llanilgan. Ular aytimlarning muayyan bo'limlarini ajratib ko'rsatgan holda ko'proq shakllantiruvchi rolni bajargan, va metrik "buzilish" ko'rinishida qabul kilingan. Mazkur holat metrik tadrijiyotga yorqin misol bo'lib xizmat qiladi: jiraular ijodida bunday o'ldovlar epizodik tarzda qo'llanilgan, keyinroq esa barqarorlik kasb etib, tayanchlar qatorida qo'llanila boshlangan.

Dostonlarda voqealar chizig'ini xiralashtirmaslik juda muhim, shu bois ular ijrosiga matnning rechitativ bayoni xos bo'lib, ijrochi qahramonlarning emotsional holatini, o'zining ovoz imkoniyatlarini, diapazonini ko'rsatishi, badihanavislik qilishi mumkin bo'lgan hanglar odatda matndan tashqari so'zlar va undov so'zlarga to'g'ri keladi.

Matndan tashqari hosilalar va undov so'zlarga asoslangan hanglar kuy-ohang asoslari va umuman aytimlar kompozitsiyasini ta'minlashda muayyan funksional yuklamani o'z zimmasiga oladi. Qahramonlik doston namunalaridan farqi shundaki, ularning aytimlar kompozitsiyasida paydo bo'lish joyi cheklanmagan. Matndan tashqari so'zlarga tayanuvchi hanglar umuman qoraqalpoq lirikasida, ayniqsa doston lirikasida katta o'rin tutadi. Matndan tashqari hanglar doston aytimlarida tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vositalardan biridir. Baxsilar matndan tashqari hanglarni kiritish orqali ijrochilik mahorati, ovoz imkoniyatlari va interpretatsiya usullarini namoyish etadilar.

Qoraqalpoq xalq dostonlarining metroritmik asosini tadqiq etish natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Doston – an'anaviy xalq kasbiy ijodiyotining yirik janrlaridan biri bo'lib, u qoraqalpoq musiqa merosida yetakchi o'rin tutadi. Qoraqalpoq epik ijodiyotini o'rganish shuni ko'rsatdiki, tarixiy rivojlanish va og'zaki an'anadagi musiqani boyitishda assimilyatsiya jarayonlari, musiqiy til rivojlanishiga turtki bo'luvchi madaniyat va an'analarning o'zaro ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Musiqiy - she'riy til, qoraqalpoqlarning epik merosi o'ta noyob voqelik bo'lib, qoraqalpoq eposining asosiy spesifikasi dostonchilik ijodiyotining tarixan joriy bo'lgan ikki tarmog'i – qahramonlik va lirik turlarining qo'llanilishidadir.

3. Qoraqalpoq dostonchilik ijodiyotining tiklanish va rivojlanish tarixi qoraqalpoq eposining ijodkorlari, tashuvchilari va saqlovchilari bo'lmish baxsi va jiraular ijrochilik an'analarning shakllanishidan dalolat beradi. Repertur farqi, doston aytuvchilarning janr va cholg'u tarkibini ta'kidlash juda muhim. Qahramonlik dostonlarini an'anaviy tarzda qo'biz cholg'usi jo'rligida jiraular ijro etsalar, lirik doston ijrochilari esa baxsilar bo'lib, ularga dutor cholg'usi jo'rsozlik qiladi. Bu asnoda qoraqalpoq san'atida qahramonlik eposi an'analari yetakchi o'rin egallaydi, asrlar osha kelayotgan jiraular ijodiy merosi esa qoraqalpoq musiqasining spesifik koloritini madh etadi.

4. Qahramonlik doston namalarining metroritmik uyushmasidagi rechitativlarning muhim ahamiyatini ta'kidlash zarur. Ular dostonlarning nasriy matnidan asos oladi. Doston interpretatsiyasining bunday usuli jirovchilik an'analarga xos bo'lgan doston nomalari musiqiy bayonining arxaik



va spesifik ildizlari xususida soʻzlash imkonini beradi.

5. Lirik doston namalarida bayonning kuychan-qoʻshiqsimon uslubi ustunlik qiladi. Ijrochi eʼtibori emotsional psixofiziologik holatni yetkazib berishga, vokal va ijrochilik imkoniyatlarini namoyish etish orqali amalga oshiriluvchi lirik ohangdorlikni yoritishga qaratilib, unda metroritm muhim shakllantiruvchi rolni bajaradi. Metroritmik va ladohang dinamizatsiyasi hisobiga nomalar kompozitsion uyushmasining aniqlovchi omilligi kuzatiladi.

6. Qoraqalpoq epik merosi metroritmini tadqiq etish, bir necha avlodlarning davomiylik anʼanalari bilan ifodalangan, va asrlar osha qaror topgan milliy ifoda usullariga tayanuvchi metroritmik qonuniyatlarning muayyan rivojlanish jarayonini kuzatish imkonini berdi.

7. Tadqiqotdagi muhim xulosalardan biri shu boʻldiki, doston aytimlaridagi metroritmik qonuniyatlar bevosita bir qator omillarga bogʻliq: bu sheʼriy mazmun, sheʼriy qofiya, ijrochilik maktabi xususiyatlari, interpretatsiyalar, ijrochining badihaviy yondashuvidir.

8. Dostonlarda aniqlangan metroritmik qonuniyatlar yigʻindisi umuman doston uslubining asosiy xususiyatlari va uning janr boʻlinishidagi spesifik qirralarini shakllantiradi. Bu anʼanaviy metroritmik andozalarning mavjudligida namoyon boʻladi, ular baxshilarning har bir yangi avlodi

improvizatsiyasi uchun tayanch yaratgan holda, dostondan dostonga, ijrochidan ijrochiga oʻtib, butun dostonchilik anʼanasining musiqiy tili strukturasiidagi invariant fenomen hisoblanadi.

9. Doston nomalarining umumkompozitsion tuzilishi ritmik dinamizatsiya usullarini qoʻllash toʻgʻridan-toʻgʻri baxshi va jirovlar maktabi va improvizatorlik mahoratiga bogʻliq ekanini taʼkidlash imkonini beradi. Shu oʻrinda jirovlardan farqli oʻlaroq, baxshilar uchun avvaldan joriy boʻlgan “qonunlar” xos ekanligini aytish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Xalqaro baxshichilik sanʼati festivalini oʻtkazish toʻgʻrisida”gi Qarori. 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4072873>

2. Jumladan, qoraqalpoq xalq eposining musiqiy til xususiyatlarini oʻrganish V.Vinogradov, T.Adambayeva, L.Kopbayeva, S.Xisamova, A.Azimova, R.Abdullayev, B.Matyoqubov, P.Paluaniyazov, G.Xodjametova, K.Rayxl, X.Qurbonov tadqiqotlarida oʻz aksini topgan.

3. Ocherki po istorii karakalpaskogo folkloru. T., 1977.

4. Devonu lugʻatit turk. Indeks-lugʻat. Gʻ.Abdurahmonov, S.Mutalibov ishtiroki va tahriri. T.: Fan, 1967.



## O‘ZBEK BASTAKORLIK MAKTABLARI SHAKLLANISHIGA DOIR

**To‘xtasin GAFURBEKOV**

San’atshunoslik fanlari doktori,  
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Professori

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bastakorlik maktablarining shakllanishi, bastakor va kompozitor atamalarining ishlatilishi, bastakorlik ijodiyotidagi mualliflik kabi masalalar ko‘rib chiqiladi, ularga doir amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlar taqdim etiladi, Farg‘ona vodiysi bastakorlik maktabining buyuk namoyandasi T.Jalilov ijodi bo‘yicha ayrim mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar.** Bastakor, kompozitor, maktab, plagiat, monodiya, polimonodiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как формирование композиторских школ, использование терминов композитор и композитор, авторство в композиторском творчестве, представлен ряд исследований, посвященных творчеству великого деятеля композиторской школы Ферганской долины Т.Приводятся некоторые размышления о творчестве Джалилова.

**Ключевые слова.** Бастакор, композитор, школа, плагиат, монодия, полимонодия.

**Abstract.** This article discusses the formation of schools of composition, the use of the terms composer and composer, authorship in composition, a number of studies on them, some comments on the work of the great representative of the Fergana Valley School of Composition T. Jalilov.

**Keywords.** Bastakor, composer, school, plagiarism, monody, polymonody.

**B**undan 15 yil muqaddam yakunlangan va insoniyat tarixidan o‘ziga monand o‘rin egallayotgan XX asr mobaynida O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, ayrim Kavkazorti va bir qator xorijiy Sharq, jamuljam ma’noda butkul Yaqin va O‘rta Sharq hududlarida mualliflik jihatdan turli tarzda namoyon bo‘lgan musiqiy-ijodiy jarayon asosan ikki yo‘nalish, ya’ni ko‘p asrlik asl sharqona bastakorlik va ayni mazkur yuzyillikda kirib kelgan, ba’zan zo‘ravonlarcha singdirilgan kompozitorlik ijodiyotlaridir. Ittifoqo har ikkala ijodiyot ahlining darg‘alari jahon musiqa tamadduni xazinasiga bekam-ko‘st, bir-biridan qolishmaydigan durdona asarlar taqdim etishgan. Bu ikki ijod yo‘lining tarixi va taqdiri, barkamolli va inqirozli pallalari – aynan o‘tgan yuzyillikda katta sinovlarga duchor bo‘ldi. Zero, bir tomondan, qariyb 15 asrga taalluqli asl sharqona bastakorlik ijodiyoti – bir chekkaga surib qo‘yilib, Yevropa andazalariga asoslangan kompozitorlik tamoyillariga urg‘u berildiki, buning salbiy oqibatlarini hozirgi XX-XXI asrlar kesimida ham yaqqol guvohi bo‘lmoqdamiz. Xususan, baralla O‘zbekiston kompozitorlik maktablari haqida gapiriladi, yoziladiyu... O‘zbek bastakorlik maktabi borasida og‘iz ochilmaydi.

Eslatib o‘tmoqchiman, O‘zbekistonda XX asr musiqashunosligining tamal toshini qo‘yganlardan, ayniqsa – T.S.Vizgoning “Развитие музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой” (1960) deya nomlangan doktorlik dissertatsiyasi hamda shu nomdagi monografiyasida mahalliy kompozitorlik maktabi haqida nihoyatda izchil, mo‘l va do‘l, ba’zan o‘rinsiz fikrlar bildirilgan. Muallif hatto



“O formirovanii natsionalnoy kompozitorskoy shkoly v Uzbekistane” (1964) sarlavhali maqolasini ham bir necha bor nashr ettirgan edi.

Boz ustiga aksariyat Sharq mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda, avvalambor muayyan pala-partishliklar aynan ikki asr kesimida quyidagilarda kuzatilmoqda:

Negadir hozirgi davrga kelib, “bastakor” atamasi “kompozitor” termini bilan aralash-quralash ishlatilishi oqibatida O'zbekiston davlat konservatoriyasida birinchisi ikkinchisining o'rnini egallab olmoqda. Natijada, azaliy, an'anaviy Yevropazamin kompozitsiya asoslarini o'zlashtiruvchi taalluqli kasb egasi, ya'ni kompozitor deya atalishi va hatto rasmiy hujjatlar to'g'ri ta'kidlanishi o'rniga “bastakor” (!) sifatida ko'rsatilmoqda, joriylashmoqda.

XX asrning oxirlarigacha O'zbekiston kompozitorlari uyushmasi deb atalgan davlat tashkiloti rasman – O'zbekiston bastakorlari (!) uyushmasi deb atalmoqda.

Bundayin kasbiy e'tiborsizliklar haqida bir qator musiqashunoslaru ayrim taniqli bastakor va kompozitorlarimiz bot-bot bong urishsa-da,<sup>1</sup> ahvol o'zgarmay kelmoqda.

Eng achinarlisi, bir paytlari muayyan ijodiy tamoyillarini shakllantirib, Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1851-1936) tamal toshini o'rnatgan Samarqand (N.Hasanov, D.Zokirov, Sh.Akromov), To'xtasin Jalilov (1894-1966) asos solgan vodiy (M.Murtazoev, G'.Toshmatov, K.Jabborov, F.Mamadaliyev, G'.Ro'ziboev, O.Hotamov, G'.Hojiqulov, A.Ismoilov), Yunus Rajabiy (1897-1976) boshliq Toshkent (A.Ikromov, F.Sodiqov, S.Kalonov, N.Qulabdullaev), shuningdek Xorazm (K.Otaniyozov, O.Xudoyshukurov, O.Otajonov), Buxoro (A.Boboxonov, O.Atoev) bastakorlik maktablari asta-sekin yo'qolib bormoqda. Bular o'rnini danakdan o'sib chiqqan daraxtning sho'r mevalari yanglig', o'zboshimcha, zamonaviylashtirilgan tarzda o'zbilarmon “bastakorcha”lar kun sayin ko'payib bormoqda. Oqibatda, og'zini arang ochishga qurbi yetgan (ayniqsa, hozirgi estradamizdagi) xonanda ham – “bastakor”, biror sozdan tovush hosil qilishga ulgurgan sozanda ham “bastakor”.

Bunday ko'rgilik va pala-partishliklar davrida asl bastakorlik ijodiyotiga oid adabiyotlar turli janrlar va shakllarda yaratilayotgani shubhasiz mamnunlik uyg'otadi.

Aynan ikki asr kesimidaginishrlarga murojaat etib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

1 Qarang: T.Gafurbekov: Творческие ресурсы национальной монодии... - Т.: Fan, 1987 (3-bob); Творцы монодийных произведений в Средней Азии // Традиции музыкальных культур... - М.: Сов. композитор, 1987; Барбадово искусство: суть и судьба // Борбад и художественные традиции... - Душанбе: Дониш, 1990; O'zbek bastakorligida mualliflik masalasiga doir // Musiqa ijodiyoti masalalari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2002; Полимонодия – феномен творчества узбекских бастакоров // Музыкальное искусство... Вып.2 – Астана. КазНАМ, 2006; Н.Янов-Яновская. Одна культура – две традиции // Музыкальная академия, 1999, №3. Shuningdek, marhum bastakorlarimizdan F.Mamadaliyev, O.Hotamov, kompozitorlardan F.Yanov-Yanovskiylarning intervyulari qaralsin.



Bastakorlikning umumiy muammolariga doir dissertatsion tadqiqotlar, bular asosidagi monografiyalar:

Is'hoq Rajabov. Maqomlar. – Toshkent: “San’at”, 2006 (doktorlik dissertatsiyasi).

To‘xtasin G‘ofurbekov. Milliy monodiyaning ijodiy zahiralari va ularning zamonaviy o‘zbek musiqasida singdirilishi. – Toshkent: Fan, 1987 (doktorlik dissertatsiyasi).

Soyibjon Begmatov. Farg‘ona vodiysi hofizlik san‘ati an‘analari. – T., 1995 (nomzodlik dissertatsiyasi).

Botir Matyoqubov. Xorazm dostonlarining musiqiy xususiyatlari. – T., 1996 (nomzodlik dissertatsiyasi).

Otanazar Matyoqubov. Maqomot. – T.: “Musika”, 2004 (nomzodlik dissertatsiyasi).

Oqilxon Ibrohimov. Farg‘ona-Toshkent maqomlari. – T.: “MEDIA LAND”, 2006 (nomzodlik dissertatsiyasi).

Ayrim bastakorlar ijodini tahlil etuvchi monografiya, maqola va diplom ishlari:

Dilnoza Oripova. Fattohxon Mamadaliev. – T., (Ilmiy rahbar – T.B.G‘ofurbekov), 1994.

Karima Olimboeva-Ahmedova. Mirzajon Tillaev, Muxtorjon Murtazoev, Orifxon Hotamov // O‘zbek ayoli hayotida musiqa. – T.: “Turondot”, 1996.

To‘xtasin G‘ofurbekov. XX asr o‘zbek musiqasi va Yunus Rajabiy // Musiqa ijodiyoti masalalari. I to‘plam. – T.: Qatortol – Kamolot, 1997.

Ravshan Yunusov. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida // Mazkur to‘plam.

Xolida G‘ofurbekova. Bastakor Komiljon Jabborov // Mazkur to‘plam.

Xolida G‘ofurbekova. Bastakor Saidjon Kalonov // Mazkur to‘plam.

Chinora Ergasheva. Imomjon Ikromov ijodi (diplom ishi – ilmiy rahbar T.B.G‘ofurbekov). – T., 1998.

Soyibjon Begmatov. Orifxon Hotamov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2000.

To‘xtasin G‘ofurbekov. Bastakorlik ijodiyoti // O‘zbekiston san‘ati (1991-2001), T.: “Sharq” NMAK, 2001.

Ulug‘bek Mamajonov. “Abduhoshim Ismoilov” (diplom ishi – ilmiy rahbar T.B.G‘ofurbekov). 2001.

Soyibjon Begmatov. Kamoliddin Rahimov. – T.: “Yangi nashr”, 2002.

To‘xtasin G‘ofurbekov. O‘zbek bastakorligida mualliflik masalasi // Musiqa ijodiyoti masalalari. 2-to‘plam. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002.

To‘xtasin G‘ofurbekov. Bastakorlik ijodiyoti shahar muhitida // O‘zbekiston urbanistik madaniyati. – T.: SITI, 2003.

Ravshan Yunusov. Faxriddin Sodiqov. – T.: 2005.

Soyibjon Begmatov, Azizjon Zokirov. Muxtorjon Murtazoev. – T.: 2006.

To‘xtasin G‘ofurbekov. Polimonodiya – fenomen tvorchestva uzbekskix bastakorov // Музыкальное искусство. Наука и образование. Вып.2. – Astana: KazNAM, 2006.

To‘xtasin G‘ofurbekov. Saylanma. – T.: “MUSIQA” nashriyoti.

Ayrim bastakor va kasbga dahldorlarning nashrlari:





Faxriddin Umarov. Meni yod et // Yozib oluvchilar N.Boqiy, H.Hamidov. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

Sherali Jo'raev. San'atim. Nashrga tayyorlovchi S.Sayyid. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

Fattohxon Mamadaliev. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. Nashrga tayyorlovchi R.Yunusov. – T.: "Yangi asr avlodi", 2001.

Sultonali Mannopov. So'nmas navolar. – "Farg'ona", 2004.

O'lmas Rasulov. An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.

Sultonali Mannopov. O'zbekiston bulbuli. – "Farg'ona", 2007.

O'lmas Rasulov. Ko'zga aylansin ko'ngil. – T.: 2012.

Ushbu muxtasar ilmiy-uslubiy tadqiqomitizni bevosita hozirgi kunda mavjud adabiyotlar sanog'i va bularning janriy-shakliy tasnifotidan boshlashimizga sabab, undan foydalanuvchi har bir o'qituvchi, ayniqsa – o'quvchilar ko'zi oldida mavzuga oid ayon o'rganilajak panorama, qamrovli manzarani hosil etish maqsadidir. Zero, aynan mazkur sanoq – tasnifotda qariyb 1,5 ming yillikka teng bastakorlik ijodiyotiga XX-XXI asr kesimida – qay darajada yondashilayotganligi aniq in'ikoslanadi, bu ijod sohasining umumiy muammolari, muayyan ijodkorlarning asarlari, mualliflik uslub va tamoyillari qandayin tarzda, qandayin qamrovda izohlanayotganligi va tahlillanayotganligi oydinlashadi. Vaholanki, so'nggi paytlarda O'zbekiston radiosi ("Mash'al" – "San'atimiz darg'alari". "Oriyat Dono" – "Barhayot siymolar" va boshqalar) hamda televideniyesi ("Yoshlar", ayniqsa "Toshkent" kanali)da eshittirish va ko'rsatuvlar g'irt ko'chirmachilik, ya'ni plagiat asosida tayyorlanmoqda.

Ma'lum mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, XX asrning avvalgi davrlarida eng yuqori minbarlardan sobiq Ittifoq musiqa madaniyatining ko'zga ko'ringan (SSSR kompozitorlar uyushmasining doimiy raisi – T.N.Xrennikovdek!) rahbarlari tomonidan xo'rlangan<sup>2</sup> va kasbiy kamsitilgan bastakorlar (demakki – oqinlar, oshuqlar) kuzatilayotgan davrda nisbatan oqlanib, bular ijodi targ'ib qilina boshlandi, ayrimlarining asarlari nota nashrlariga muyassar bo'ldi...

Biroq bu mo'jizakor ijodiyot O'zbekistonda hanuzgacha na o'rta bo'g'in, na oliy musiqa o'quv tizimidan o'rin olganicha yo'q. Vaholanki, bir qator atoqli kompozitorlar (M.Burhonov, D.Zokirov, S.Jalil) ijodi tabiatan bastakorlik tafakkuri bilan uzviy bog'liqligi isbotlanmoqda. O'z o'rnida bastakorlardan F.Sodiqov, K.Jabborov hozirgi kunda A.Ismoilov va boshqalarning asarlarida kompozitorlik ijodiyoti ta'sirida polimonodiya fenomeni shakllanib, buning ijobiy tamaoyillari Markaziy Osiyo va Kavkazorti mualliflari ijodida ham kuzatilmogda.

Yakunlanib, mavqei, mohiyati hamon muhokamalanayotgan o'tgan yuz yillik oxiri – navqiron XXI asr va umidli yangi mingyillikka qadam qo'ygan dastlabki pallalarda insoniyat salohiyatli mahsulotlari, xususan, badiiy tafakkur in'ikosi bo'lmish – musiqa ijodiyotiga ham munosabat sezilarli darajada o'zgarmoqda. Deylik, milliardlab aholi

2 Qarang: Музыкальная критика в Узбекистане. – T.: Fan. 1984. III bob.



yashayotgan Sharq mamlakatlarining ma'lum hududlarida, ayniqsa, sobiq Ittifoqning monodiyazamin madaniyatlarida, qariyb 15 asrga teng bastakorlik va nihoyasini topgan yuzyillikda astoydil, ba'zan zo'rvonlik bilan joriy etib kelingan kompozitorlik ijodiyotlariga nisbatan turlicha, ba'zan qarama-qarshi qarashlar, kuzatuvlar, xulosalar guvohi bo'lmoqdamiz. Sabab, tarix qa'riga ko'chgan avvalgi asr mobaynida deyarli bir yarim ming yil ardoqlanib kelgan bastakorlik kasbi, demakki uning jamiyatdagi o'rni, musiqa ijodiyotidagi statusi adolatsizlarcha kamsitilib, atigi 70-80 yil ichida shakllana boshlangan yangicha ijod sohibi – kompozitorlar ardoqlanib, bularga mansub har qanday, ya'ni haqiqatan badiiy yetuk va shu bilan birga o'nlab saviyasi past asarlarga urg'u berib kelindi. Oqibatda, biz kuzatayotgan ikki asr kesimida yuqoridagi jarayonning aksi alomatlari – bastakorlarga e'tibor kuchayib, kompozitorlik ijodiyotiga susayish hollari ham namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunga kelib, an'anaviy bastakorlik ijodiyotining o'nlab uslubiy tamoyillari, yuzlab shakliy tuzilmalari, janriy turlaridan nazarimizda quyidagilari saqlanib qolgan va bevosita mualliflik amaliyotida qo'llanib kelinmoqda.

Meros namunasiga muallifan yondashish:

Folklor modelini janran o'zgartirish – N.Hasanovning “Tom boshida tog'ora” asosidagi “Qizlar raqsi-I” va “Qizlar raqsi-II” (ufari), Yu.Rajabiyning “Tanovor” asosida “Yuzni oydek” va b.

Cholg'u kuylarni ashulalashtirish – I.Ikromovning “Munojot”, “Cho'li Iroq” va “Ajam”lari va b.

Meros modelini shaklan yoinki janran o'zgartirish.

Meros namunasining ladi (parda) tizimida mustaqil asar yaratish – O.Hotamovning “Qoshi yosinmu” ashulasi<sup>3</sup> va b.

Muayyan voha ijodiy tamoyillari (lad, ohanglar majmui, shakli va janri)ni asarda umumlashtirish:

Farg'ona-Toshkent tamoyillari – J.Sultonovning “Naylayin” (S.Abdulla), “Gulizorim qani?” (Lutfiy), “Tamanno” (Muqimiy), S.Jalilning “Ey yori – xush kelibsiz” (Nihoniy), “Kelmasa kelmasun netay”, A.Ismoilovning “Holim so'rma”, “Uchrashuv” kabi, N.Qulabdullaevning “O'ylamang” singari kuy va qo'shiqlari.

Buxoro-Samarqand tamoyillari – O'.Rasulovning “Dil tasnifi”, “Ko'ngil navosi”, “Parvona”, “Shiru-shakar”, O.Atoevning “Buxorcha yor-yor”, “Maza dorad labi yor”, “Zardo'z qizlar raqsi” va b.

Xorazm tamoyillari – O.Xudoyshukurovning “Birinchi muhabbatim”, “Mujgonlaring”, “Olamda bir”, O.Otajonovning “Umr o'tar...” (O.Matjon).

Muayyan voha tamoyillarida ko'p qismli turkumlar yaratish:

I.Ikromovning “Farhod” syuitasi, F.Mamadaliyevning “Munojot”, “Nasrulloiy”, “Miskin” va “Ushshoq” turkumlari, O.Hotamovning Yassaviy, Boqirg'oniy, Navoiy, Chustiy g'azallariga turkumlari va b.

3 Qarang: O'.Rasulov. Kuy ruhni poklaydi // O'zAS. 2009. 23 yanvar.



Betakror bastakor

Musiqa tarixida “Ulugʻlarning ulugʻligi vaqt oʻtgan sari oydinlashadi” degan dono naql qayta-qayta takrorlanadi. Haqiqatdan, deylik buyuk Bax yoinki Betxoven oʻz davri, oʻz vatanida kamtaronagina baholanishgan boʻlishsa, soʻnggi ikki asr mobaynida bularning ijodiy merosi nainki Germaniya, balki butun jahon miqyosida olamshumul ahamiyatga molikligi izchil isbotlanib kelinmoqda.

Bizning musiqa sanʼatimizda ham ana shunday dargʻa ijodkorlar yoʻq emas. ulardan biri va alohida taʼkidlash joizki, birinchisi – Toʻxtasin Jalilovdir. Zero, faoliyatining oʻta keng qamrovliligi, sozandalikda vodiy gʻijjakchilik maktabini yaratganligi, bastakorlikda bu ijod doirasini dangallik bilan boyitganligi, yaʼni romans, opera kabi murakkab sohalarda ibratli bitiklar qoldirganligi, jami 40 ga yaqin musiqiy-sahnaviy asarlari orqali oʻzbek musiqali dramasi deya atalmish xalqchil, asl oʻzbekona janrga tamal toshini qoʻyib ketganligi – bularning har biri olamshumuldir. Quyida, biz, ana shu serqirra faoliyat, ummondek ijodiy merosdan faqat bastakorlik bilan bogʻliq tamoyillar borasida fikr yuritmoqchimiz.

Avvalo, Toʻxtasin Jalilov vodiy bastakorlik maktabining XX asrdagi ijodboshilaridan



ekanligini teran anglab, deyarli 1,5 mingyillik moʻjizakor sanʼat anʼanalarini tiklashga



intilgan. Ittifoqo, zamon zayllaridan kelib chiqib, yangicha, baʼzan tubdan yangi ijodiy



tamoyillarni kashf etgan.



Bastakorning ilk asari – mashhur “Signal” (1920) kuyini tahlillasak, uning o‘zbek

Allegretto



musiqa merosidagi ohang va ritmik omillarini qidirsak, izlanishlarimiz “Dugoh”

Allegretto

Пах - та, пах - та фаб-рик за-вод жо-ни пах-та,  
 Шу да-в(и)р-нинг тўл-кун ур-ган ко-ни пах-та Ча-ман, ча-ман о - чил ган-да  
 пах - та-лар Ку-чок тў - либ фаб-рик- лар - да пах - та-лар.  
 Пах-та, пах-та фаб-рик за-вод жо-ни пах-та, Шу да-в(и)р-нинг тўл-кун ур-ган  
 ко-ни пах-та Фаб-рик- лар-нинг пар-ра- си да пах-та гу-ли  
 Ой-дек тў-либ я - ра- шиб-дир у бир йў- ли, Куч-ли ма-шин зарб-дор иш-дан  
 чар - ча-май Сурь - а - ти - дан кў - шик тў тур тўх - та-мас  
 Пах - та, пах - та фаб - рик за - вод жо - ни пах - та  
 Шу да - в(и)р-нинг тўл - кун ур - ган ко - ни пах - та.

Handwritten notes at the bottom of the page, including the number 68 and some illegible text.



maqomining ayrim ashula, ayniqsa, cholg'u yo'llari va bularning Shashmaqomdagina emas, balki "Mushkuloti Dugoh" deb ataluvchi surnay variantlariga borib taqaladi.

Demak, 15 asr mobaynida bastakorlik san'atida muayyan ijodiy an'ana tusini olgan, xalq orasida ma'lum kuylar asosida, bulardan semantik jihatdan tub mazmun-mohiyatni o'zgartirgan yangicha asarlar yaratishdek tamoyilni T.Jalilov nihoyatda puxta anglaganligi va mohirona foydalana olishi yaqqol namoyon bo'ladi. Boz ustiga, cholg'u "Signal" turli ansambllar, puflama sozlar orkestrlari ijrosida ommaviylashganligi bois, ana shu 20-yillardayoq keng tarqalgan qo'shiq sifatida ham mashhur bo'lib ketgan:

**"Signal" kuyi va uning omillari**  
 "Tasnifi Dugoh" (2-xona). Tojikiston  
 "Tasnifi Dugoh" (2-xona). O'zbekiston  
 "Mushkuloti Dugoh". O'zbekiston

**"Signal" (1920 yillar) kuyi**  
**"Signal" qo'shig'i**

№14

Сиз-га кўнг-лим ма-ли-ка-ла - ри. Дил-ра-бо - лар, сиз у-чун

ёл-ғиз. Кеч-миш-лар-нинг нақ-ли бу ба - ри,

Ол-тин вақ- тим а - яя-май ҳар-гиз Эз-ма мо-зи о - хан-ги-га мос

Ёз-дим да-дил қо-ғоз ю-зи - га Шўх зах-ма-тим о-линг сиз-га хос!

Уч-май ҳеч ким ол-қиш сў-зи-га **f** тезлатиб У-мид-лар-да

бў-лар-ман хуш хол Ишқ дар-ди-да ўр-тан-ган дил- бар. гу-ноҳ-кор наз

мим- га, эҳ-ти- мол. таш-лаб қў-яр ки-ё бир на - зар.



Yaqqol ko'rinib turibdiki, bastakor nisbatan torroq doiralarda, deyarli kasbiy asar sifatida ma'lum bo'lgan kuy parchalaridan ommabop (va hammabop!), tezda yodlab olinadigan kuy va uning qo'shiq variantini yaratishga muyassar bo'lgan.

T.Jalilovning bu qobiliyati, nainki o'nlab ("Dovruq", "Aziz Vatanim", "Kokiling", "O'ynasin", "Yalla", "To'ylar muborak!" kabi) qo'shiq, ashulalaridagina emas, balki bir qator musiqali dramalari va komediyalarida ham kuzatiladi.

Ilk sadolaridan hammaga tanish bo'lgan, ijodkorning shoh asarlaridan "Tohir va Zuhra"dagi "Otmagay tong" duetini olaylik. Bosh qahramonlarning asl mohiyati, ohangli qiyofalarini to'laqonli ochib beruvchi bu mo'jizakor kuy zamirida mashhur (ayniqsa, ustoz F.Mamadaliyev talqinlaridagi) "Ol xabar" xalq ashulasi bo'lib, unga T.Jalilov shunday nozik sayqal berganlarki, hozirgi kunda aksariyat ijrochilar ham mazkur jarayonni sezmaydi.

Yuqorida, benazir bastakorimiz romans janriga murojaat qilganligini ta'kidlagan edik. Haqiqatdan kompozitorlar, ya'ni konservatoriyalarda maxsus "kompozitsiya" kursini bitirib, ko'p ovozli asarlar yaratuvchilar uchun ham birmuncha muammoli bo'lgan ushbu janrda bastakorlardan faqat T.Jalilovgina ijod qilganligi bizga ma'lum.

Romans "Bag'ishlov" deb atalib, buyuk rus shoiri A.S.Pushkinning "Ruslan va Lyudmila" dostonidan olingan Mirtemir tarjimasidagi matnga yaratilgan:

Qarangki, T.Jalilov kamtarlik bilan (Ilyos Akbarov xotiralarida ta'kidlanganidek) bu asarini qayta-qayta variantlarda gavdalantirgan bo'lsa-da, hayotlik davrlarida biror xonandaga o'rgatib, ijro ettirishdan bosh tortgan ekan...

Endi, musiqa ijodiyotining eng murakkab turi bo'lmish operaga kelsak, bastakorimiz 1949 yili taniqli kompozitor B.Brovsin bilan hamkorlikda "Tohir va Zuhra" asarini yaratdi. Keyinchalik uning asosida O'zbekistondagi ilk opera-balet yuzaga keldi.

T.Jalilov va opera san'ati haqidagi kuzatuvlarimizga "Gulsara" (1949) operasini ham qo'shib qo'yish mumkin. Zero, R.Glier va T.Sodiqovlargagina nisbat berilib kelinayotgan bu asar, dastlab musiqali drama bo'lib (1936), uning aksariyat lavhalarining kuylari aynan T.Jalilov ijrosida yozib olingan.

Demak, benazir bastakorimizning sa'y-harakatlari tufayli an'anaviy bastakorlik ijodiyotiga XX asrdagi kompozitorlik tamoyillari ham kirib kelgan deyishimizga to'la asos mavjud.

Nihoyat, T.Jalilovning nihoyatda ibratli fazilatlaridan kattagina san'atkorlar sulolasini qoldirganligidadir. Qizlari – O'zbekiston xalq artisti E'tibor va Xolida Jalilovalar – an'anaviy va akademik xonandalikda, o'g'illari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Xolxo'ja To'xtasinov – bastakorlikda ("Aylagach", "Malaksan yo bashar..." kabi ashulalar, "Xumor" kuyi va boshqa asarlar muallifi), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Dehqon Jalilov – dirijorlikda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Salohiddin To'xtasinov – mohirona sozandalikda O'zbekiston musiqa madaniyatida ulkan iz qoldirishgan.



**Olimjon DAVLATOV,**  
filologiya fanlari doktori

**“KO‘NGLIM O‘RTANSUN AGAR...”**

*Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,  
Har ko‘ngul hamkim sening shavqungni paydo  
aylasa.*

*Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o‘lay,  
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.*

*O‘zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko‘zum,  
O‘zga bir ko‘z hamki husnungni tamosho aylasa.*

*G‘ayr zikrin oshkoro qilsa lol o‘lsun tilim,  
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.*

*Rashkdin jonimg‘a har nargis ko‘zi bir shu‘ladur,  
Bog‘ aro nogah xirom ul sarvira‘no aylasa.*

*Yo‘q og‘izdin nukta aytur mahwashimdek bo‘lmag‘ay,  
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.*

*Ofiyat jonimg‘a yetti, ey xushul mug‘kim, meni  
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.*

*Kelturung dafi jununumg‘a pariixon, yo‘q tabib  
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.*

*Subhdek bir damda gardun qo‘ymag‘ay osorini,  
Nogah ahli sidq ko‘ngli mehrin ifsho aylasa.*

*Dahr sho‘xig‘a, Navoiy, sayd bo‘lma necha kim,  
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa. [1.]*

Alisher Navoiy

**LUG‘AT**

*Tamanno – orzu, istak. Navmid – noumid. Nukta – hikmatli so‘z. Ofiyat – tinchlik. Mug‘ – otashparast ruhoni; majoziy - piri komil, ma‘naviy rahnamo. Xarobot - otashparastlar ibodatxonasi; mayxona; majoziy ma‘nosi - ma‘rifat darsxonasi. Pariixon – parilarni tasarruf qilib, o‘ziga xizmat qildiradigan azayimxon. Ansab – munosibroq. Ifsho – fosh, oshkor. Uzor – yonoq, yuz. Mutarro – jingalak.*

*Bu g‘azal aruzning hajazi musammani maqsur vaznida yozilgan bo‘lib, “foilotun, foilotun, foilotun, foilun” qolipiga muvofiq keladi. G‘azalni Shashmaqomning “Mo‘g‘ilchai segoh” kuyiga solib, ijro etish mumkin.*

**ALISHER NAVOIYNING  
“AYLASA” RADIFLI G‘AZALI  
BAYTLARNING NASRIY  
BAYONI**

1. Sendan o‘zgaga e‘tibor qilgudek bo‘lsam, ko‘nglim yonib o‘rtansin, dilimni sening shavqingni paydo qilganlarga qaratsam ham shu holga tushay.

2. O‘zgalar visolini istasam, noumid bo‘lay, Sening vaslingni istagan boshqa kishilar ham xuddi shunday holga tushsin.

3. Agar boshqa go‘zallarning husnu jamoliga mahliyo bo‘lsa, ko‘zim chiqsin; sening husningni tamosho qilgan boshqa ko‘z ham oqib tushsin.

4. Sening ismingdan boshqasini zikr etgudek bo‘lsam, tilim tutilsin, nomingni tilga olganlarning tili ham shunday bo‘lsin.

5. Agar ul sarviqomat go‘zalim bog‘ aro sayr aylasa, bog‘dagi nargis gullarining



unga mahliyo bo'lib turishi rashkdan jonimga tushgan olov laxchasidek bo'lib ko'rinadi.

6. Agar quyosh har bir zarrasidan bitta Iso Masih yaratgudek bo'lsa hamki, ularning barchasi g'oyibona og'iz bilan hikmatli so'z aytadigan sen oy kabi go'zal yorimdek bo'lmagay.

7. Bir maromda kechayotgan hayot jonimga tegdi, qaniydi ul mug' (piri komil) bir qadah may berib, bu xarobotda mastu rasvo aylasa.

8. Devonaligimni davolash uchun tabib emas, parixon (duoxon) keltiring;

pariyning ishqiy devona-yu shaydo qilganni faqat u davolashga qodirdir.

9. Agar siddiqlar – valiy zotlar ko'ngillaridagi quyoshning nurini oshkor etgudek bo'lsa, falak tong yog'dusi kabi oz fursatda jamiyki nur sochuvchi jismlarini yig'ishtirib oladi.

10. Ey Navoiy, davr sho'xiga oshiq bo'lib, unga bog'lanib qolma, Kun yuzini ko'rsatib, tunde qora sochini jingalak-jingalak qilib, yoyib, har qancha go'zalligini namoyon etsa ham uning domiga tushib qolishdan o'zingni asragin.

## G'AZALNING ZOHIRIY VA BOTINIY SHARHI

Ushbu g'azal zohiran majoziy ishqqa mansub bo'lsa ham, botinan tasavvuf ta'limoti talablari asosida yozilgan, Allohga munojot va bandalik hissiyotlari tarannumidan iborat asar sanaladi. Bunday mazmundagi g'azallarni ikki qavatli ma'noga ega deb hisoblash lozim. Zohiriy ma'noda oshiq o'z sevgilisiga "Sendan o'zgaga e'tibor qilgudek bo'lsam, ko'nglim yonib o'rtansin, dilimni shavqingni paydo qiladiganlarga qaratsam ham shu holga tushay" demoqda. Ya'ni, men faqat seni sevaman, sendan g'ayri kimsalarga beparvoman. Meni rashq qilib, o'zgalarga ham qarasa kerak, deb mendan shubhalanib yurma.

Xuddi shuningdek, o'zgalalar visolini istasam, noumid bo'lay, Sening vaslingni istagan boshqa kishilar ham xuddi shunday holga tushsin. Ya'ni sendan o'zga kimni derman, yaxshi jononim o'zingsan.

Agar ko'zim boshqa go'zallarning husnu jamoliga mahliyo bo'lsa, ko'zim shikastlanib, ishdan chiqsin; sening

husningni tamosho qilgan boshqa ko'z ham oqib tushsin. Senga nisbatan sadoqatimni tanamdagi har bir a'zodan talab qilaman. Ularga ko'zimga beradigan jazoimni beraman.

Sendan boshqa g'ayri narsayu odamlarni oshkoro tilga olib, zikr qilsa, u gapira olmaydigan gung-lol bo'lsun, qaysi bir til sening zikringni boshqalarga oshkoro aylasa ham tildan qolsin,

Agar ul sarviqomat go'zalim bog' aro sayr aylasa, bog'dagi nargis gullarining unga mahliyo bo'lib turishi rashkimni qo'zg'aydi, bu rashk o'ti jonimga tushgan olov laxchasidek bo'lib ko'rinadi.

Agar quyosh har bir zarrasidan bitta Iso Masih yaratgudek bo'lsa hamki, ularning barchasi jonbaxsh og'iz bilan hikmatli so'z aytadigan sen oy kabi go'zal yorimdek bo'lmagay.

Bu – muhabbat va sadoqat bilan payvasta rashk izhori. Har bir bayt oshiqning sadoqat va vafoga oid qasamyodi kabi jaranglaydi. Uning





ko'ngli faqat mahbusaning yodi bilan masrur, ko'zi faqat yor sari termiladi, bor vujudi bilan faqat yor visoliga talpinadi; tili hamisha yorning vasfi bilan band... Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Mabodo oshiqning ko'ngli, ko'zi yo tiliga o'zgalarning xayoli yo havosi yo'l topgudek bo'lsa, u o'zini eng og'ir jazolarga munosib deb hisoblaydi. Lekin biror holatda oshiq o'z yorini ayblamaydi, unga shart qo'ymaydi – u sevgan mahbuba barcha aybu nuqsonlardan pok, barcha shart va ehtiyojlardan ustun qudsiy bir xilqat. Ayniqsa, oltinchi bayt mazmunidan vasf etilgan mahbuba oddiy go'zal emasligi oydinlashadi:

*Yo'q og'izdin nukta aytur  
mahvashimdek bo'lmag'ay,  
Gar quyosh har zarrasidin  
bir Masiho aylasa.*

Baytda qo'llanilgan og'iz, nukta, mahvash, quyosh, zarra, Masiho timsollarining o'zaro mantiqiy bog'liqligini, so'zlar va ma'no tanosubini bilishimiz uchun dastlab nisbatan tushunarli bo'lgan Masiho obraziga murojaat qilamiz. Manbalardan ma'lumki, so'zi bilan marhumlarni tiriltiruvchi Iso Masih (a.)ni kofirlar o'ldirmoqchi bo'lishganda, Alloh taolo uni osmonga – Quyosh manzili hisoblanmish to'rtinchi falakka olib chiqadi. Lekin agar Quyoshning har bir zarrasi (atomi)dan bitta o'likka jon bag'ishlovchi Masihlar yaratilganda ham, zarradan ham kichik og'zi yo'qdek ko'rinadigan oyjamol dilbarimga teng kelolmaydi, deydi Navoiy. Mubolag'aning oliy ko'rinishi namunasi hisoblanmish bu o'xshatish zamirida e'tiqod masalasiga daxldor nozik hikmat yashirin.

Ammo oshiqning yorsiz yashashidan ma'no yo'q. Bu hol ko'p zerikarli Shuning uchun “Bir maromda kechayotgan hayot jonimga tegdi, qaniydi ul mug' (piri komil) bir qadah may berib, bu xarobotda mastu rasvo aylasa. Ayriliq alamidan bir oz bo'lsa ham qutilsam. Chunki bunday hijron azobidan bemor bo'ldim. “Devonaligimni davolash uchun tabib emas, parixon (duoxon) keltiring; pariyning ishq devona-yu shaydo qilganni faqat u davolashga qodirdir”. Yaxshi ham dunyoda ahli muhabbat bo'lmish sodiqlikda ustivor, yolg'onsiz yashovchi insonlar bor. Ularning suhbatidan bahramand bo'lib, ovunaman. Zero agar siddiqlar – valiy zotlar ko'ngillaridagi quyoshning nurini oshkor etgudek bo'lsa, ushbu mehr quyoshi kifoya qiladi deya falak tong yog'dusi kabi oz fursatda jamiyki nur sochuvchi jismlarini yig'ishtirib oladi.

Ey Navoiy, sen bilan zamondosh barchani o'z suhbatiyu jozibali harakatlari bilan maftun etuvchi dahr sho'xi dunyo sho'xi bor. Sen boshqalarga o'xshab o'sha davr sho'xiga oshiq bo'lib, unga bog'lanib qolma, Kundek yuzini ko'rsatib, tunde qora sochini jingalak-jingalak qilib, yoyib, har qancha go'zalligini namoyon etsa ham uning domiga tushib qolishdan o'zingni asragin.

Endi g'azalning botiniy ma'nosiga biroz nazar tashlashga intilib ko'ramiz.

Tarix fanlari doktori I.Ostonaqulov o'z monografiyasida shunday yozadi: “Tasavvufda insonni Alloh zikridan, ibodatidan chalg'ituvchi barcha narsalar g'ayri narsalar deb tushuntiriladi. “G'ayriga parvo aylash” dunyoning hoyi–havaslariga berilish, binobarin



Yaratganni bir qadar unitish, unga nisbatan bee'tiborlik sanaladi. Ya'ni, Tangri taolodan ko'ra o'tkinchi dunyo lazzatlariga muhabbat qo'yish bo'lib hisoblanadi. Tasavvuf qirq maqomidagi Tariqat bosqichining 10-maqomi "Tafrid"dir. Tafrid bo'lish solikning Xudo yodi va zikri bilan mashg'ul bo'lishi, undan chalg'ituvchi g'ayri narsalardan o'zini holi tutishga intilishi demakdir. Bu holatni Alisher Navoiy "Ko'nglim o'rtansin agar g'ayringga parvo aylasa" deb boshlanuvchi g'azalida yorqin ifodalagan. Demak, bu g'azalni bitish orqali shoir o'zining tafrid maqomini bosib o'tishda solik nimalarga e'tibor berishi lozimligini bayon etgan.[2.122.]

Darhaqiqat, g'azalda Alloh so'zi ishlatilmay "Sen" olmoshi to'g'ridan to'g'ri ishlatilgani uchun tasavvufiy so'z o'yinidan bexabar kishi xitob faqat insonga qaratilgan deb o'ylaydi. Ammo mushohada qilib Allohga xitob sifatida fikr yuritilsa, misra mazmuni ilohiy o'zanga tusha boshlaydi.

Bu ayniqsa, "Sening ismingdan boshqasini zikr etgudek bo'lsam, tilim tutilsin, nomingni tilga olganlarning tili ham shunday bo'lsin" degan misrada yanada ochiq namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, yettinchi baytda ofiyat – xotirjamlikdan bezib, rasvolik va mastlik tilagida xarobot – mayxonaga yuz tutmoq niyati bildirilgan. Ofiyat – tinchlik va sog'lik kabi insonning hayoti uchun eng muhim ne'matlardan. "Ikki ne'mat borki, zavol topgandan keyingina odamlar qadriga yetadi. Bular – sog'lik va ofiyatdir", degan hikmat – asrlar davomida hamisha o'z isbotini topib kelayotgan haqiqat. Navoiy bu baytda

ofiyat deb, g'ofillik va jaholat tufayli paydo bo'lgan yakrang hayotni nazarda tutgan. Insoniylik maqomi va vazifalarini unutgan nodon va johil odam faqat o'z nafsining oromini istaydi. Unga oqibat va oxirat, diyonat va millat tashvishlari begona. Foni bu dunyoda o'zlarini mangu yashaydigandek bilgan bu toifa uchun ma'rifat ahlining ko'ngil obodligi, oxirat manzilining ma'murligi, xalqning og'irini yengil qilish yo'lidagi intilishlari, barcha ishlarni Haq taolo roziligi uchun moslashtirishlari aqldan ozgan kishilarning qilmishidek ko'rinadi. Ana shunday kimsalarning nazdidagi "rasvolik" va bexudlik, o'z mohiyat e'tibori bilan hushyorlikdan ming marta afzal ma'rifat mastligini tilagan shoir xarobotga yuz tutadi:

Ofiyat jonimg'a yetti, ey xush ul mug'kim, meni

Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.

Navoiy yuz tutgan xarobot – sidq ahlining makoni. Ularning qalbidagi quyosh hech qachon zavol topmaydi. Ko'ngillaridagi ma'rifat quyoshi kecha-yu kunduz porlab, irodat va ixlos ahlining ma'naviy yo'lini charog'on etadi. Ularning bunday darajaga yetishini asosiy omili – sidqu safo. Haq taoloning buyurganiga sodiqlik bilan amal qilib, hech qanday ikkilanishsiz hidoyat topilganlari bois haq yo'lidan zarracha chalg'imag yashaydilar. Zohir olamida boshqalardan zarracha farq qilmaydigan bu zotlarning ko'nglidagi quyoshini agar falak ko'rgudek bo'lsa, Quyosh, Oy va jamiyki sobitu sayyoralarini yig'ishtirib oladi hamda yolg'onchi tongdek yuzi qora bo'lib qoladi:



Subhdek bir damda gardun qo'ymag'ay osorini,

Nogah ahli sidq ko'ngli mehrin ifsho aylasa.

Navoiyning siddiqlar – valiysifat zotlardan anglagan saboqlaridan biri – dunyoga ko'ngil bermaslik. Dunyo go'zalligiga zarracha shubha yo'q. Har lahzada minglab jilva bilan manaman degan ko'ngilni sayd qila oladigan bu go'zallikning bir nuqsoni bor. U ham bo'lsa, bebaqoligi va vafosizligi. Shu sababdan, boqiy va zavol topmas go'zallikka intilmoq kerak. Bu esa,

dunyoda yashab turib, unga muhabbat qo'yishdan voz kechish orqali amalga oshadi.

#### Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 3-tom. O'z FA "Fan" nashriyoti. T.: 1988.

2. Ostonaqulov I. Muhammad Siddiq Rushdiy va uning "Tazkirat ul avliyai turkiy" asari. Monografiya. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.: 2007.



## ARUZ ILMI SABOQLARI

## 1-SABOQ

**Hamidulla BOLTABOEV,**O'zbekiston Milliy universiteti  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Annotatsiya.** Maqolada mumtoz adabiyot va san'atning muhim sarchashmalaridan biri aruz vazni, uning vujudga kelishi va u haqdagi ilmnining shakllanishi hamda arab-fors-turk (o'zbek) aruzi xususiyatlari haqida so'z boradi. Muallif aruz ilmi saboqlaridan so'z ochib, ushbu tushunchaning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, ritmik birliklari: harf, hijo, rukn, bayt va vazn xususida so'z yuritadi. Har bir birlikning nazariy asoslari va aruz ilmidagi o'rnini sharhlaydi. Aruz vaznining musiqiylikni ta'minlagan akustik va ritmik elementlarning aruz nazariyasidagi o'rnini tushuntirib beradi.

**Kalit so'zlar:** mumtoz adabiyot, san'at, aruz vazni, arab-fors-turk (o'zbek) aruzi, tushuncha, lug'aviy va istilohiy ma'nolar, ritmik birliklari: harf, hijo, rukn, bayt va vazn, nazariy asos, musiqiylik, akustik va ritmik element, aruz nazariyasi

**Abstract.** This article discusses one of the most important sources of classical literature and art, about aruz, its origin and the formation of science about it, as well as the features of the Arabic-Persian-Turkish (Uzbek) aruzs. The author writes about the science lessons of aruz, lexical and terminological meanings of this concept, rhythmic units: hijo, rukn, byte and aruz. He author explains the theoretical foundations of each unit and its place in aruz science. The place of acoustic and rhythmic elements in the theory of aruz, which provided the musicality of the aruz is also highlighted in the article.

**Keywords:** classical literature, art, aruz, Arabic-Persian-Turkish (Uzbek) aruz, concept, lexical and terminological meanings, rhythmic units: harf, hijo, rukn, byte and weight, theoretical basis, musicality, acoustic and rhythmic element, aruz theory.

**Аннотация.** В статье рассматривается один из важнейших источников классической литературы и искусства – стихотворный размер аруз, его происхождение и становление науки о нем, а также особенности арабо-персидско-турецкого (узбекского) аруза. Автор рассказывает об уроках арузоведения, лексических и терминологических значениях этого понятия, ритмических единицах: харф, хиджо, рукн, байт и размер. Разъясняет теоретические основы каждого раздела и его место в науке об арузе. Объясняет место акустических и ритмических элементов в теории аруз, обеспечивших музыкальность размера аруз.

**Ключевые слова:** классическая литература, искусство, размер аруз, арабо-персо-турецкий (узбекский) аруз, понятие, лексико-терминологические значения, ритмические единицы: хиджо, рукн, байт и размер, теоретическая основа, музыкальность, акустико-ритмический элемент, теория аруза.

Har bir millatning o'z tili, tafakkuri, shuuri, sajiyasi bo'lgani kabi uning o'ziga xos san'ati: musiqasi, she'riyati va uning betakror ifoda usullari bo'ladi. Turk she'riyatining ildizlari ko'proq bizga to'rtlik shaklida etib kelgan xalq qo'shiqlari, barmoq (hijo) vaznida yaratilgan qadimgi nazm parchalariga

borib taqaladi. O'zbek (turk) she'ri arab she'r tizimiga kirgunga qadar ham musiqi bilan bog'liq holda taraqqiy etganini xalq og'zaki ijodidagi yir (jir), qo'sh (qo'shiq), ko'g (kuy), bashiq (madh) kabi janrlar mavjud bo'lganidan ham bilish mumkin [1:54].



Arab istilosi tufayli turk (o'zbek) larning e'tiqodi, madaniyati, adabiyoti va san'ati ham o'zgarish davriga kirdi. Turk musiqasining ritmik xususiyatlari o'zgargani kabi mumtoz she'rning vazn xususiyatlari ham barmoq vaznidan aruz vazniga qarab o'zgarishi barobarida uning musiqiyliги yanada ortdi. Turk she'ridagi vazn o'zgarishi tizim o'zgarishiga ham sabab bo'ldi, natijada u sillabik tizim (barmoq vazni) dan metrik she'r tizimi (aruz vazni) ga o'ta boshladi. Bu o'tish jarayonida ikki she'r tizimining umumiy va farqli xususiyatlarini prof. Fitrat ko'rsatib o'tgan: "She'r vaznini ta'rif qilmoqchi bo'lganda, qoidaga muvofiq suratda o'lchangan va o'lchovlari mushtarak bo'lgan gap parchalarining ma'lum qoida bilan ketma ket tuzilishi, desak har holda haqiqatdan juda uzoqqa bormaymiz" [2:16]. Olimning ko'rsatishicha, "barmoq vazni bilan aruz vaznlari ikkalasi ham vazn o'lchamak uchun hijoni oladi. Bu nuqtada oralarida ayirma yo'q. Asil ayirma hijolarning kayfiyatlarini nazar e'tiborga olishdan iboratdir. Bu o'rinda barmoq vazni she'r misralaridagi hijo (bo'g'in)lar kamiyati (miqdori) ga asoslansa, aruz vazni esa baytdagi hijolar kayfiyati (sifati)ga asoslanadi. Barmoq vaznidagi she'rga nisbatan aruziy she'rning musiqiyliğining sababi ham ana shunda. Demak, turk she'r tizimiga aruz vazni kirib keldi. Biroq bungan qadar u arab va fors aruzshunoslari tomonidan ishlanib, sayqallanib, qoidalari qat'iy qolip (andoza)ga tushgandan keyingina o'zbek she'rida bo'y ko'rsata boshladi.

Arablarda vazn tushunchasi juda qadimdan mavjud bo'lgan esada, biroq arab xalq she'ri johiliyya davri shoirlarining ijod namunalarini

ham, saodat asri nazm namunalarini ham izchil ilmiy tizimga solgan, uning kat'iy ko'rinishlariga qonuniy tus bergan, aruzshunoslikni fan sifatida shakllantirgan olim Xalil ibn Ahmad (718-786) hisoblanadi. Olimning «Ayn kitobi», «Mo'jam fi ilmu-l-aruzi» («Aruz bilimi qomusi») kabi asarlarida aruz ilmining asosini yaratilgan. Biroq bu asarlar bizgacha to'liq etib kelmagan. Xalil abn Ahmadning shogirdi Sibavayh (vaf. 796) «al-Kitab» asarida «Mo'jam fi ilmu-l-aruzi» asarini sharhlagan, «Ayn kitobi»ni esa Lays ibn Muzaffar va Abul Hasan ibn Sa'id Axfash (vaf. 830) ilmga ma'lum qilgan [3:32]. IX asrdan boshlab Nadr ibn SHumayl, Ibn Kannosa, Asmoiy, Ali Rayhoni, Qosim Salom, Ahmad Baxiyli, Abul Umaysal, Ibn Qutayba, Buxturiy, X asrda Abul Abbos Sa'lab, Ibn Jinniy, Ibn Sarroj kabi arab olimlari she'r ilmiga doir asarlari tarkibida aruz masalalarini yoritgan. SHunday qilib, arab adabiyoti va san'atida aruzshunoslik fani vujudga kelgan va u Sharq mumtoz poetikasining she'r tizimida qat'iy o'rinishgan [4:28].

Arab aruzi Abu Abdullah Rudakiy (858-941) ijodi orqali fors she'riyatiga kirib kelishi barobarida fors aruziyalari tomonidan bir necha o'nlab asarlar yozilgan. Fors aruzining tizimli holga kelishida SHamsiddin Qays Roziyning "Al-Mo'jam fi ma'oyir ash'orul-Ajam" («Ajam she'rlari me'yorlari jamlangani»), Nosiriddin Tusiyning "Me'yoru-l-ash'or" ("She'rlar me'yori"), SHamsi Faxriyning "Me'yoru-l-nusrati" ("Surat o'lchovlari") va "Me'yoru-l-jamoli" ("Go'zal o'lchovlar"), Vohid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" ("Qisqa to'plam"), YUsof Aziziyning "Aruz", Abdurahmon Jomiyning "Risolayi aruz" va Sayfiy



Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" singari asarlari ahamiyatli [5:17].

Aruz vaznining turk she'riyatiga kirib kelishi X asrdan deb ko'rsatilsa-da, biroq Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari (1068) tarkibidagi nazm parchalari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni (1070) bevosita turk aruzi shakllangan davr namunalari sifatida tilga olinadi. Turk (o'zbek) aruzi manbalari sifatida Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" ("Balog'at fanlari", XV asr), Alisher Navoiyning "Mezonu-l-avzon" ("Vaznlar o'lchovi", 1492), Boburning "Aruz risolasi" (1524), Furqatning "Ilmi she'rning qoidai avzoni" (1890), Fitratning "Aruz haqida" (1936)gi risolalari keltiriladi [6:532].

Qariyb o'n uch asrdan beri muhtasham ilm turi sifatida qaralib kelgan aruzga xos jihatlar nimalarda ko'rinadi, degan savol tabiiyki, ham she'riyat, ham musiqa tarixi bilan mashg'ul olimlarni qiziqtirib kelgan. Ana shu ilmiy savolga javob izlash barobarida Aruz ilmi haqida umumiy ma'lumot berish bilan cheklanamiz.

ARUZ (arabcha: **ضورع** – vodiy) – she'r tizimi, baytdagi hijolarning miqdori va sifati (ohangdorligi)ga asoslangan ilmdir. Arablarda aruz vazn tushunchasi sifatida johiliyya davrida ham mavjud bo'lgan, hatto islomga qadar bahr atalgan vazn turlari ham mavjud bo'lgan. She'r o'lchov tizimi sifatida arab she'riyatida VIII asrdan mavjud. Bu haqda Alisher Navoiy: "Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fan (aruz)ning voziidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani "Aruz" derlar emish va ul vodiyda a'rob uylarin tikib, jilva berib, bahog'a kiyururlar ermish" ("Mezonu-l-avzon") deb ma'lumot beradi [7:540].

Aruz tizimi cho'ziq va qisqa hijolarning ritmik asosda muayyan guruhlar bo'yicha takrorlanib turishiga asoslanadi. Aruz tizimidagi eng kichik ritmik birlik harf bo'lib, u sokin, ya'ni mustaqil undosh yoki cho'ziq unli va mutaharrik, ya'ni harakatli (undosh va qisqa unli) harflardan iborat. Ularning o'zaro birikuvidan sabab, vatad, fosila deb nomlangan rukn (arabcha: ustun) yoki juzv (arabcha: qism) bo'laklari hosil qilinadi.

Aruz vaznining asosiy xususiyati hijolarning talaffuziga ko'ra cho'ziq va qisqaligiga asoslanganligidir. Arablarda harflar ikkiga bo'linadi:

1. Mutaharrik - "harakatli" ma'nosida bo'lib, uning oxiriga bir unli ko'shiladi, biroq yozuvda ko'rsatilmaydi (osmon - osimon).

2. Sokin - "ohista" ma'nosida bo'lib, bo'g'inni yopuvchi undosh sanaladi. [8:18].

Undosh bilan tugagan yopik bo'g'inlar hamda cho'zik talaffuz qilinuvchi unidan iborat bo'lgan yohud u bilan tugallanuvchi ochiq bo'g'inlar cho'ziq hijo hisoblanadi. Cho'zik hijo (-) belgisi bilan ko'rsatiladi. Qisqa talaffuz qilinuvchi unidan iborat bo'lgan yoki u bilan tugallanuvchi bo'g'inlar qisqa hijolar hisoblanib, ular (v) belgisi bilan ko'rsatiladi. Biroq bu beliganishlar (-, v) XX asr boshlaridan prof. Fitrat tomonidan aruz ilmiga nisbatan qo'llanilgan, unga qadar hijo va ruknlarning sifatidan kelib chiqib, muayyan so'zlar yasalgan. Masalan, ma (v) fo (-) iy (-) lun (-) yoki fo (-) i (v) lo (-) tun (-) kabi.

Tarkibida cho'ziq unlisi bo'lgan, shuningdek, qo'sh undosh bilan tugallanuvchi bo'g'inlar 1,5 cho'ziq bo'g'in (o'ta cho'ziq hijo) hisoblangan.



Bunday hijolar misra o'rtasida kelsa va undoshdan oldin tursa (- v) belgisi bilan, misra oxirida kelsa, (~) belgisi bilan ifodalangan.

Aruzning murakkabligi shundaki, hijolarning cho'ziq-qisqaligi yozilishiga ko'ra emas, balki she'r misralarining ma'lum vaznga muvofiq o'qilishiga karab aniqlanadi. O'qish davomida esa harflar va bo'g'inlar zarur

bo'lgan holda bir-biriga qo'shib yuborilaveradi. Xatto, vazn talabiga ko'ra, qisqa unlilar uzun, uzunlari esa qisqa talaffuz qilinishi, ba'zi so'zlar noto'g'ri o'qilishi (guliston - gulsiton) ham mumkin.

Aruzda mutaharrik va sokin harflarning turli tartibda birikuvidan hosil bo'ladigan bo'laklar juzvlar deb ataladi. Juzvlar sabab, vatad va fosila deb nomlanadi. Agar ularning lug'aviy ma'nosini aniqlamokchi bo'lsak, sabab - arqon, vatad - qoziq, fosila - palos ma'nolarini beradi. Bu tushunchalar arablarning ko'chmanchi turmush tarzi bilan bog'langan holda aruz istilohotiga kirib kelgan. Har bir juzv, o'z navbatida, ikki turli bo'ladi.

Sabab juzvi ikki xil: sababi xafif (engil sabab) va sababi saqiyl (og'ir sabab)dan iborat bo'ladi.

Sababi xafif - bitta cho'ziq hijo - (kun)

Sababi saqiyl - ikkita qisqa hijo; v v (ya-na)

Vatad ham ikki turli bo'ladi: vatadi majmu' (qo'shilgan vatad) va vatadi mafruq (ajratilgan vatad)

Vatadi majmu' - qisqa va cho'ziq hijo; v - (va-tan)

Vatadi mafruq - cho'ziq va qisqa hijo; - v (xan-da)

Fosila ham o'z navbatida ikki turli: fosilayi sug'ro (kichik fosila) va fosilayi kubro (katta fosila)dan iborat bo'ladi.

Fosilai sug'ro - ikkita qisqa va bitta cho'ziq hijo; v v - (a-la-min)

Fosilai kubro - uchta qisqa va bitta cho'ziq hijo: v v v - (qa-ra-ma-dim)dan iborat.

Juzv turlarini yod olish qiyin bo'lgani tufayli Alisher Navoiy "Mezonu-l-avzon" risolasida juzvlarni yodda saqlash usulining shunday tartibini yaratadi:

*Ul ko'zi qaro dardi g'amidin chidamadim*

- v v v - - v v - - v v v -  
 sababi sababi vatadi vatadi fosilayi fosilayi  
 xafif saqiyl majmu' mafruq sug'ro kubro

Mumtoz adabiyotshunoslikda vaznni aniqlashda harf juzv rukn b a y t usulidan foydalanganlar. Lekin arab yozuviga mo'ljallangan bu usul murakkab bo'lgani uchun hozirgi aruzshunoslar uning asosiy qismini saqlagan holda hijo rukn bayt usulini qo'llashmoqda.

Juzvlarning muayyan tartibda birikuvidan ruknlar (arabcha: ustun) yuzaga keladi. Aruz tizimining asosini tashkil etuvchi sakkizta asl rukn (asllar) quyidagilardir:

1. Fauvlun 2. Foilun

v - - - v -

3. Mafoiylun 4. Foilotun

v - - - - v - -

5. Mustaf'ilun 6. Mutafoilun

- - v - v v - v -

7. Mafoilatun 8. Mafuvlotu

v - v v - - - - v

Asliy ruknlarning har biri zihoflar - o'zgarishlarga uchrab, o'zidan tarmoq ruknlarini hosil qiladi. SHundan kelib chiqib, ruknlar solim (sog'lom) va muzohaf (o'zgargan) bo'ladi.

Ruknlar baytda quyidagicha nomlanadi:

Sadr - birinchi misraning bosh rukni.

Aruz - misraning oxirgi rukni.

Ibtido - ikkinchi misraning bosh rukni.



Hashv – o‘rtadagi rukn yoki ruknlar.

SHu holatni shaklda ifodalasak:

Birinchi misra': v - - - v - - - v -  
- - v - - -

sadr h a sh aruz

Ikkinchi misra': v - - - v - - - v  
- - - v - - -

ibtido zarb

Bundan belgilanishlarni o‘z ismlari bilan yodlab olish orqali keyingi ishlarga, ya’ni har bir baytni taqti’ (kesish) qoidalariga mos holda tahlil qilish uchun tayyorgarlik vazifasini o‘taydi. Mavzudan maqsad, ritmik birliklarni harf – hijo – juzv – rukn – bayt tartibida o‘zlashtirishdir. CHunki aruz vaznida yozilgan she’rni tahlil qilishda dastlab undagi harflar kayfiyati (sifati)ga ko‘ra hijolar aniqlanadi. Aniqlangan hijolar cho‘ziq (-) va qisqa (v) ekani ma’lum bo‘lgach, uning yordamida rukn (v - -) hosil qilinadi. Ruknlarning soni orqali uning vazn sifati namoyot bo‘ladi, ya’ni bir misrada shunday (v - - - / v - - - / v - - - / v - - -) mafoiylun deb o‘qiladigan to‘rt rukn borligi belgilandi. Biroq aruz vaznida ritmik birlik sifatida

bayt (arabcha: uy) olinadi (barmoq vaznida esa misra birlik sifatida tanilgan edi). Endi bir baytdagi ruknlarni qo‘shib chiqsak, shunday ko‘rinish hosil bo‘ladi.

Mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun (birinchi misra)

v - - - / v - - - / v - - -  
- / v - - -

Mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun (ikkinchi misra)

v - - - / v - - - / v - - -  
- / v - - -

Uning g‘azal janridagi holati shunday:

Meni men is / tagan o‘z suh / batig‘a ar / jumand etmas,

v - - - / v - - - / v - - -  
- / v - - -

mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun

Meni istar / kishining suh / batin ko‘nglum pisand etmas

v - - - / v - - - / v - - -  
- - / v - - -

mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun

(Alisher Navoiy)

#### Adabiyotlar:

1. Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. М.: Восточная литература, 2012.
2. Fitrat. Aruz haqida (nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi H.Boltaboev). T.: O‘qituvchi, 1997.
3. Talabov I. Aruz. T.: MUMTOZ SO‘Z, 1997.
4. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboev talqinida. T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
5. To‘uchieva G. Aruz в контексте газелей Амир Хосрава Дехлави. T., 2005.
6. Boltaboev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2015.
7. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon / To‘la asarlar to‘plami. T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
8. Zohidova D. Aruz saboqlari. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.





## DOSTON VA MAQOM MUSHTARAKLIGI

**Batir MATYAKUBOV**

O'zbekiston Davlat  
Konservatoriyasi, Yunus Rajabiy  
nomidagi O'zbek milliy musiqa sanati institusi  
Professori v\ b. SFN, Ardahan  
(Turkiya) Universiteti,  
G'uzal Sanatlar Fakulteti Prof. Dr.

### **Annotasiya:**

**Maqolada qadimgi** xalq afsonalari, rivoyatlar, dostonlar va hikoyalar jamiyatning tarixga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqanligi va kishilar ijtimoiy ongini shakllantirishga xizmat qilganligi, ularning tub ildizlari va shu jumladan musiqiy ibtidosi ham shamanlikka borib taqalishi hikoya qilinadi. Shuningdek, doston va maqom so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolariga ham izoh berib o'tiladi. Dostonlar o'tgan zamonlarda Qora dengiz, Rum eli, Xazor degizi bo'yi, Kavkaz oldi va ikki daryo oralig'i hududlarida paydo bo'lgan. Ular dastlab cholgu jo'rligisiz aytilgan Ushbu maqolaning boshqalaridan farqi, mavzuni yanada to'liq anglash, qiyosiy taqqoslash uchun keltirilgan asarlarni tinglash va ko'rish maqsadida QR kod dasturida giper iqtibos orqali telefondagi skaner dasturi orqali asar jonlantiriladi. Namunalar soni o'n oltita bo'lib, ularning davomiyligi bir soatu ellik besh minutni tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** doston, maqom, o'zan, jirov, oshiq, baxshi.

**Аннотация:** В статье рассказывается о том, что древние народные мифы, предания, дастаны и рассказы возникли из потребности общества в истории и служили формированию общественного сознания людей, их корни, в том числе рассказывают о восхождении музыкальной первобытности к шаманству. Также комментируются лексические и этимологические значения слова дастан и маком. Дастан возник в прошлые времена на территории Причерноморья, Прикаспийской низменности, Предкавказья и Междуречья двух рек. Их изначально исполняли без сопровождения инструмента. Узан, жиров, Ашик и Бахши (кубыз, думбира, дутор, гултук саз и др), которые впоследствии стали создателями эпосов и музыкальных историй, пели слова открытым и внутренним голосом, эпических поэм и диваний.

**Отличие данной** статьи от других заключается в том, что с целью более полного понимания темы, прослушивания и просмотра ситируемых работ для относительного сравнения работа анимируется с помощью программы сканера на телефоне посредством гиперссылки в программе QR-кода. Количество образцов — шестнадцать, а их продолжительность — один час пятьдесят пять минут.

**Ключевые слова:** дастан, маком, озан, жиров, ашик, бахши.



Qadimgi xalq afsonalari, rivoyatlar, dostonlar va hikoyalar jamiyatning tarixga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan va kishilar ijtimoiy ongini shakllantirgan desak xato bo'lmas. Har bir afsona zamirida turli zamonlar va turfa xil urug' hamda qabilalarning qahramonlar qiyofasini uchratish mumkin. Bunda turli urf-odatlar, diniy, axloqiy, mahalliy udumlar, tarixiy voqealar, bahodirlik ertaklari o'z ichida mazmun-mohiyati bilan yuqoridagi jihatlarni birlashtirgan singari murakkab majmua bo'lib, tafakkur va tasavvur asosida yaratilgan va so'z orqali kishilar ongiga yetkazilgan.

Elat va qavmlarning yashash tarzi, tafakkur va e'tiqodlarini tadqiq etishda milliy doston, rivoyat va afsonalar tarixiy vositalar sifatida qimmatli manbaga aylanadi. Ular nafaqat tarixning bo'sh yerlarini to'ldiradi, balki ijtimoiy ruh in'ikoslarini, tushuncha va ishonchlarini o'rganish nuqtaiy nazaridan g'oyat muhim

va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Insonda ilk bor tabiat va hayot sirlarini bilib olishga intilish bilan birga dastlabki tasavvurlar ham paydo bo'la boshlagan. Ular asotirlar (mifologiya) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, totemizm, animizm, fetishizm, baxshilikning shamanlik tomonlari — seherjodu (magiya) kabi ilk diniy tasavvurlarni shakllantirgan. Dostonlarning tub ildizlari va shu jumladan musiqiy ibtidosi ham shamanlikka borib taqalishi olimlarimiz tomonidan e'tirof etib kelingan. «Shamanlik — tunguscha so'z bo'lib - «ruh - pari»larga ishonuvga asoslangan qabila dini. Bunda shaman boshqaruvidagi ruhlarni orqali unga sig'inuvchilarning murodi hosil bo'ladi deb ishoniladi. Shuningdek, Shaman - ruhoniy, qabila ruhoniysi ma'nolarini bildiradi»[1.102.]. (1-rasm) Bu atama oldin ruslar, ular orqali Sibir va XVIII asrda esa G'arbiy Yevropaliklar tiliga kirgan. Geradotning ta'kidlashicha shamanizm tarixi miloddan avvalgi XI asrga borib taqaladi.

Shamanizmning totemizm, anemizm va fetishizmdan farqi shundaki, agar yuqoridagilarda odam insondan boshqa barcha jonli va jonsiz narsalarga, ruhlarga sig'ingan bo'lsalar, shamanizmda faqat odamga, ya'ni shamanga sig'inganlar. Diniy tasavvurlar taraqqiyotida bunday sig'inish juda katta yangilik bo'lib, keyinchalik Xudoga, Payg'ambarlarga, avliyolarga sig'inishning kelib chiqishida dastlabki asos deb qaralgan.

Eski turklarda payg'ambar va muqaddas kitoblar bo'lmagani sababli shamanlarni «Qom» deyishgan. Mangu





xon «Tangri sizga kitoblar, bizga esa Qom (shaman-kohin) lar berdi. Biz ularning aytganini qilamiz va osuda yashaymiz» deydi. Bunday ishonch ilmga muqobil bo'lib, ishonuvchiga yashash va turmush qiyinchiliklarini yengish uchun kurashishda najot beradi.

Tajribali shamanlar odatda iste'dodli sehrgar, folbin, ko'zbo'yamachi, qo'shiqchi, baxshi-shoirilar bo'lishgan. Ular yay, yada, jada (yomg'ir chaqiruvchi maxsus tosh) toshi yordamida yomg'ir va qor yog'dirishgan.

Shaman — Qomlarning usullari sehrjodu bilan yo'g'rilgan bo'lib, uni aql bilan idroklash juda mushkul. Shunday yo'llardan biri ruhiy kasallarni davolashda shamanlar o'z san'atlarini ishga solishgan va bunda ko'pincha doira chalish, kuy, qo'shiq, jahr kabi turli his-hayajonlar ko'zg'atuvchi uslublardan foydalanganlar. Shamanlarning duo va qo'shiqlari matni hozirgi davrgacha saqlanib qolmagan. Chunki ular o'zidan kechish (ekstaz) holida duo va qo'shiq aytishgani uchun ham o'zlariga kelgandan keyin hech narsani xotirlay olishmagan.

Ko'hna san'at turlarida shamanizm asoratlari mavjud bo'lib, ular ruhiyat bilan bog'liqdir. Buni yanada ko'proq baxshilikda sezish mumkin. Zero shamanizm musiqa, dostonchilik, baxshi - shoirlik umuman ijod ahli bilan bog'liqligining asosiy sababi, ruhlarni chaqirish, ular bilan muloqot qilish, ilhom parisining kelishi va ilhom bag'ishlashida kuzatiladi. Bu xislat esa, shamanizmdan qolgan eng qadimiy, eng aziz, ardoqli bir kashfiyotdir!

Talantli shamanlar o'z muhlislariga turli diniy va dunyoviy hikoyalar,

sarguzashtlar, rivoyatlarni so'zlab berishgan. So'z va she'rning ko'payishi, tinglovchilar qiziqishining ortishi natijasida dostonchi qo'liga jo'rnavoz soz-cholg'u olish ehtiyoji tug'ilgan. Va tobora bunday janr o'ziga xos dostonlarga aylangan.

Dostonlar o'tgan zamonlarda Qora dengiz, Rum eli, Xazor degizi bo'yi, Kavkaz oldi va ikki daryo oralig'i hududlarida paydo bo'lganligi tarixdan ma'lum. Ular dastlab cholg'u jo'rligisiz aytilgan. Keyinchalik doston va musiqiy hikoyalarning yaratuvchilari bo'lgan ozan, jirov, oshiq va baxshilar (qo'biz, qo'shtor, do'mbira, dutor, go'ltuq saz va boshqa) jo'rnavoz sozlarini doston sh'eri kuy-nomalariga slogan holda kuylab kelganlar.

Dostonlar bo'yicha musiqiy tadqiqotlar boshlang'ich darajadan nariga o'ta olmayapti. O'zbek, turk va rus tillaridagi nashrlarida uchraydigan musiqaga oid sharxlardan qanoatlanish qiyin. Chunki bu izoxlarning askariyati Sharq xalqlarining ko'p asrlik musiqa an'analari tajribasidan yiroqda. Ammo ba'zi manbaalarda qimmatli dalillar uchraydi. Masalan: E.Ye.Berteles bergan ma'lumotlarga qaraganda: - XI asrning birinchi yarmida Unsuriy degan forsig'o'y shoir yashagan. U lirik sh'erlar yozish bilan birgalikda xalq og'zaki ijododan uchta doston ham yozib olgan. Unsuriy Beruniyga zamondosh bo'lib, u xalq og'zaki ijodi namunalari asosida "Vomiq va Uzro", "Xing but-u surx but" (oq Sanam va qizil Sanam), "Shodbaxru aynul hayot" kabi dostonlarni Beruniyga ko'rsatgan. Beruniy ushbu dostonlarni arab tiliga tarjima qilgan. "Vomuq va Uzro" dostoni



bizning davrimizgacha etib kelgan. Demak, X- asrlardayoq turli asotirlar negizida dostonlar ijod qilish, ularni tarjima, targ`ib etish faol rivojlangan.

Asrlar davomida yaralib, rivojlanib, shakl topib bizgacha yetib kelgan doston ijodiyoti va namunalari so`z, ovoz va soz munosabatlarning mushtarak mumtoz ko`rinishidir. Ma`lumki, ko`pincha Sharq, jumladan turkiy xalqlarning o`zanlari, roviylari, go`yandalari, baxshi, shoir va dostonchilari ana shu mushtaraklik tarkibidagi hikoya, nasr bo`limlarini badiiy ifodali nutq tarzida, nazm (she`riy) parchalarini esa o`ziga xos cholg`ular jo`rligida kuyga solib aytganlar. Bunday asarlar doston deb nomlangan. «Doston» forscha so`z bo`lib, lug`aviy jihatdan turlicha ma`nolar kasb etadi: 1. «Doston» fors—doston-afsona, hikoya, rivoyat»[2.602]. 2. «Nasr yo nazmiy matnga asoslanib musiqa bilan aytiladigan poema, ertak, tarix»[3.102.] «Doston» fors — musiqa cholg`usining dastasi, grifi»[4.620.] . 4. «Cholg`u asboblarida barmoq o`rni va ushbu joyda hosil qilinadigan parda»[5.64.] degan ma`nolarni bildiradi. Maqom so`zining ham arabchadagi «qo`l o`rni, barmoq o`rni» degan lug`aviy ma`nosiga qaraydigan bo`lsak, bu kalimalarning birisi forscha, ikkinchisi arabca ayni ma`nolarni bildirishini ko`ramiz.

Doston so`zining istilohiy ma`nosini A.Fitrat quyidagicha ta`riflagan: «Burungi turklarning shulon-shilon (shodiyona bazm, ziyofat), motam, to`y kabi umumiy yig`inlarida, ibodatlarida baxshilar qo`buzlarini chalib, o`rnuga yarasha dostonlar (qahramon hikoyalari),

maxtanishlar (faxriyalar), ashulalar, marsiyalar o`qur ekanlar»[6.37.]. Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, adabiyot, she`riyat, musiqa, tomosha va boshqa qator san`at turlarini o`zida mujassamlashtiruvchi dostonlar Sharq xalqlari madaniyatida shaklan va mazmunan barkamol ko`p qismli adabiy asar hisoblanadi. Turk xalqlari dostonlarining ilk namunalari oldin soz keyinchalik qo`shiqdan boshlangan.

Dostonchilik asosiy aholi chorvachilik bilan shug`ullanuvchi, ko`chmanchi va o`troq turmush kechiriladigan hududlarda, insonning yagona oshnosi hayol bo`lgan yerlarda rivojlangan. Buni shu bilan izohlash kerakki, sahro joylarda, shahardan uzoq qishloq va ovullarda odamlar kun bo`yi qilingan mashaqqatli mehnatdan keyin o`zlarini ovutish, ko`ngil ochish, hayot tashvishlaridan bir nafas forig` bo`lish uchun oqshomlari bir joyga to`planganlar. Buning natijasida xalq qo`shiqlari, termalari, kuylar va nihoyat dostonlarning yaralishiga ehtiyoj tug`ilgan va ular bora-bora inson ma`naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Dostonchilarni tinglovchilar va shinavandalar moddiy va ma`naviy jihatdan rag`batlantirganlar. Zotan, dostonlar adabiyot, she`riyat, musiqa, badiiy so`z va sanoyi nafisaning boshqa



turlarini o`zida mujassam etgan qudratli, ta`sirchan tarbiya vositasi bo`lgan.



Turkiy xalqlar og'zaki ijodiyotidagi dostonlar ijroviy-uslubiy an'analari jihatidan ikki turga bo'linadi:

a) «Ichki ovoz» bilan Alpomishni aytish uslubidagi she'riy shaklda qo'biz yoki do'mbra jo'rligida kuylash. Bunday kuylash uslubining yanada o'zgacha



turi Oltoy, Boshqirdiston, Tuva va boshqa o'lkalar turk xalqlarining eng qadimgi doston ijrochiligida kuzatiladi va «O'zlov»[7.665.] (ovozlov ya'ni ovoz o'ynatish), boshqirdlarda «tomoq quray» (qurayga o'xshatib tomoqdan ovoz chiqarish) deb nomlanadi.

Bunday kuylash uslubida ijrochining bo'g'izi va burun rezonatorlari orqali bir vaqtning o'zida ikki xil ovoz hosil qilinadi. Bu ovozlarning biri kuy yo'nalishini ifodalasa, ikkinchisi davomli cho'zilib jo'r bo'lib turuvchi past(yo'g'on) tovush vazifasini bajaradi. Kuylashning bunday turiga erishish uchun juda uzoq vaqd ijrochilik nafasini rivojlantirish ustida mashq qilish, ovoz boylamlari, tomoq, burun, tanglay og'iz bo'shlig'i va ko'krak rezonatorlarini mohirona ishlata bilish katta ahamiyatga ega va bunday kuylash san'ati o'ziga yarasha mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Ko'pchilik olimlar o'zlovni qadimiy negizlari shamanlar marosimidan kelib chiqqanligini, tabiatdagi barcha tovushlar, qushlarning sayrashi, turli jonzotlarning ovoz chiqarishi inson ruhiga singib, uning ovozida umumlashib o'z aksini topganligini natijasi deb ta'riflashadi. Ya'ni shamanlar inson ovozidan eng

mukammal cholg'u asbobi sifatida foydalanganlar desa bo'ladi.

1. *Qalmiq baxshi bolaning ichki ovoz imkoniyati, hissiyoti va ijrosini QR kodda tinglab tahlil qilish tavsiya etiladi.*

Janubiy O'zbekiston xususan, Qashqadaryo-Surxandaryo va Samarqand baxshi-shoirilarining «ichki ovoz» uslubda doston aytishi, Chovdir turkmanlarining «alqim sas», qadimgi jirovlarning bo'g'iq - yopiq ovozda kuylash uslublarining tub negizlari qadimiy o'zlov shaklida aytish bilan umumiylik kasb etadi desak xato qilmaymiz.

2. *Abdunazar baxshi.*

Ichki ovozda kuylaydigan baxshilarni tadqiqotchi olim Abdimo`min Qahhorov uch toifaga ajratadi: birinchisi havaskor baxshilar. Bular har xil dostonchilardan eshitganlarini o'zlaricha o'rganib, chalib, aytib yuradigan ustoz ko'rmagan baxshilar. Ikkinchisi, taqlidchi baxshilar, bular o'z ustozidan o'rgangan doston va nomalarni o'zgartirmasdan, buzmasdan, ustoz qanday ta'lim bergan bo'lsa shundayligicha ijro qiladilar. Uchinchisi, professional ijodkor baxshilar, bular ustozlaridan o'rgangan doston va nomalarni ijodiy yondoshgan holda o'zgartirib, badihago'ylik tarzida talqin etadilar.

b) ochiq ovoz bilan ishqiy ta'rifdagi («Oshiq G'arib va Shohsanam», «Oshiq Mahmud» va boshqa), ya'ni nasriy matni hikoya tarzida va she'riy matni qo'shiq shaklida, ko'pincha dutor (keyingi paytlarda tor va ansambl) jo'rligida ijro etiladigan turlaridir. So'nggi ko'rinishi badiiy jihatdan barkamol, ma'lum she'riy-musiqiy yo'l sifatida gavdalangan



va bir-biridan ajralib turadigan shaklan tugal qo'shiq-nomalarni tashkil qiladi. U shimoliy O'zbekiston dostonchiligida asosiy o'rin tutadi. Biroq, Safarboy Ro'zimboevning yozishicha, XVI asr boshlarida shimoliy O'zbekiston baxshilarining dostonchilik an'analari Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo dostonchilarining ijrochilik an'alaridan farq qilmagan va keyinchalik shahar madaniyati xalq ashula va maqomlarning ta'siri natijasida asta-sekinlik bilan «ichki ovoz»dan erkin-ochiq ovozda kuylashga o'tilgan. Kuy-nomalari ham Shirvoniy uslubdagi doston kuylari hisobiga boyigan va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatgan [8.245.].

Og'zaki ijoddagi dostonlarning juda qadimiyligidan darak beruvchi bir qancha dalillar bor bo'lib, jumladan Xorazmda xarobaga aylangan XIII-XIV asrlar me'morlik yodgorliklari mavjudki, bular ba'zi bir doston qahramonlarining tug'ilgan shaharlari, yoki ularning o'z nomlari bilan bevosita bog'liqdir. Bundaylardan masalan, hozirgi Shovot tumanidagi Vayangon qal'asi – Avazxonning tug'ilgan shahri deb ta'riflanadi. Ko'hna Urganchdan janubiy g'arbda joylashgan Diyorbokr (Yorbokr) qal'asi – G'aribning tavallud topgan shahri hisoblanadi. Shuningdek Shoxsanam, Aqcha galin-Gulinaxor, Shirvon, Shamoxa qal'alari «Oshiq G'arib», «Go'ro'g'li» dostonlarining uzoq o'tmishga borib taqalishi bilan birga, tarixiy voqealar asosida keyinchalik dostonlarga aylanganligini tasdiqlaydi. Ular haqidagi ta'rifu tavsiflar zukko baxshi va shoirlar xotirasi orqali bizgacha yetib kelib, xalqimizning dunyoqarashi, hayotga

bo'lgan estetik munosabatlarini o'zida mujassamlashtirgandir.

Turk xalqdarida doston aytuvchilarni qadimda O'zan (o'zan, o'zmoq-o'zib ketmak, oldinda boruvchi, aqlli shoir) deb yuritilgan [9.248.].

Jirov tushunchasini Mahmud Qoshg'ariy quyidagicha ifodalaydi : Jirov – yirg'ov, she'r to'quvchi sozanda, dono oqsoqol. Jirovlar aytadigan eng sevimli janr bu to'lg'ovdir (to'lg'ov – o'ylanish, fikr yuritish) [10.96]. Oshiq, ba'zi turkshunos (A.Nabiev, V.Radlov, M.Taxmasib) olimlarning fikriga ko'ra «Oshiq» va «Ashula» (Oshila - yedir, hazm qildir) so'zlarining asosiy o'zagi bir bo'lib, qadimgi turkiy «Osh» oshilamoq, hazm qildirmoq, (o'z fikrini, maqsadini, xoxishini), singdirmoq, ruhiyatini to'yintirmoq degan ma'nolarni anglatadi [11.96.]. Baxshi – mo'g'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha-o'qituvchi, Sanskritcha qalandar, darvesh, ustoz, ma'rifatchi [12.2 jild 167.]. Bizningcha baxshi so'zining ma'rifatchi, ustoz ma'nolari arabcha oshiq-sevuvchi, yaxshi ko'ruvchi ma'nolariga qaraganda yuqorida ta'riflangan oshiq, ya'ni oshilamoq, hazm qildirmoq (o'z fikrini, maqsadini, xoxishini), singdirmoq, ruhiyatini to'yintirmoq iborasiga ko'proq hamohangdir [13. 169].

Professor A.Fitrat ta'rificha: - «Turk musiqasining bizda qolg'on eng burungi so'zlari baxshi, o'zan, qo'biz so'zlaridur. Baxshi so'zining burungi ma'nosi el shoiri, cholg'uvchisidir. El orasinda qo'biz yo do'mbra chalib dostonlar o'qub yurgan kishilar shoir, cholg'uchilar bor, biz shularg'a baxshi deymiz. Holbuki Navoiy zamonida bu so'z uyg'urcha yozg'on kotib



ma'nosida ishlatilar edi. Ko'pirlizodaning «Zich ilxon»i dan ko'chirmasiga ko'ra «Baxshilar har oyda uch kun parhez tutub ibodat qilalar va belgili yemaklar yeyarlar emish». Demak bular bir turli folchi avliyolar ma'nosida ishlatilgan bo'ladir» [13. 165.].

Qozoqlarda ham baxshi atamasi xalq tabibini anglatgan. Qadimda qozoq baxshilari qo'biz chalib ruhlarni chaqirgan.

Yuqoridagi dalillarga tayanadigan bo'lsak xalq tabobati bilan shug'ullanuvchi (parixon, shaman, folbin) larga baxshi deyilgan va taxminan XIV - XV asrlardan keyin ushbu atama dostonchi - qo'shiqchi sifatida istifoda qilinganligi ehtimoli bor.

Shuningdek, bunga Lutfiyning «Gul va Navruz» dostonidagi:

Yanadur o'xshatdim bir yaxshilardin,  
Mo'gul savtin bilgan baxshilardin.  
[14.225 b 5 s]

deb, baxshilarni savt, kuy va qo'shiq biluvchilar qatorida keltirib o'tganligi ham fikrimizning dalili bo'lishi mumkin.

Islom dinining kuchli ta'siri ostida bunday avliyosifat baxshi, parixon va folbinlar zamonlar o'tishi bilan o'z mavqelarini mullalarga bo'shatib bera boshlagan. Chunki ularning qarashlari, mafkurasi va xalq orasidagi tutgan o'rni o'ziga xos. Ya'ni, ikkalasi ham bir dinda bo'lib, bir - birini inkor qilmasada boshqacha g'oya va boshqacha qarashlarda bo'lganlar. Xususan, mullalar «taqdiri azal»dan tonib bo'lmasligini targ'ib qilsalar, baxshilar isyonkorona ruhda ijod qilganlar. Buning dalili sifatida janubiy O'zbekiston dostonchilari orasida xozirgacha shunday qarashlarni

ifodalaydigan maqol va she'rlar uchraydi, masalan,

Baxshili el botir el.

Mullali el qo'rqoq el.

Yoki Maxtimqulining:

Davlat ela galar bo'lsa,

Boshdan - burun o'zan galar.

Davlat eldan getar bo'lsa,

Mulla bilan to'zon galar [15.66]

kabi maqol va she'rlar yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Baxshi atamasi shimoliy O'zbekiston va turkmanlarda hozirgi kunda ham ashulachi va go'yanda s i f a t i d a g a v d a l a n a d i . G o ' y a n d a - f o r s c h a - a y t u v c h i . Boburnomada - «Sozandalar go'yandalar soz chaldilar, go'yandalar n o m a a y d i l a r » d e y i l a d i [ 1 6 . 7 5 ] .

Bu ibora ashulachilarga n i s b a t a n X o r a z m d a x o z i r h a m i s h l a t i l a d i . M . A u e z o v q i r g ' i z m a n a s c h i l a r i n i b o ' l a d i .

ikki turga b o ' l a d i . Birinchisi Jomoqchi - (jomoq - ertak, hikoya), dostonni to'liq biladigan badixago'y (improvizator). Ikkinchisi Yirchi - (yir - jir, qo'shiq), dostonlardan parchalar yodlab aytib yuradigan qo'shiqchilar [17.202]. Bulardan tashqari Soqiy, Yuzboshi, ayol dostonchilarni Qiz baxshi, Xalfa va boshqa nomlar bilan ataganlar.

Baxshilar doston yaratish bilan birgalikda ularning ichidagi sherlarga kuy bastalaganlar. Bu kuylar nag`ma, sh`er bilan qo`shilganda esa noma deb yuritilgan. Nag`ma va nomalarning rang-barangligi, ozgaruvchan va qayta ishlashga moyilligi ijod sarchashmasi





sifatida baxshilar, sozandalar, bastakorlar va musanniflarning e`tiborini tortib



kelgan.

Bizga ma`lumki qadimdan maqomlar saroy mulki hisoblangan. Maqomlarni xato ijro qilish, buzib aytish va xondan beruxsat xalq oldida kuylagan hofiz-xonandaga xazina mulkini talon-taroj qilgan zararkunanda sifatida qaralgan va qattiq jazolangan. Bu haqda Muxammad Raximxon Feruz maxsus farmon ham chiqargan. Buxoro amiri bunday tartibga rioya qilmagan hofizni og`zini kesish bilan qo`rqitgan.



Dostonlar tog` va adrlarda istiqomat qiluvchi chorvodor ko`chmanchi va yarim o`troq xalqlar san`ati ekanligi olimlar tomonidan e`tirof etilgan. Xalq dostonlari shahar muhitiga tushgandan keyin ko`pchilik ustozlar el orasida sevib tinglanadigan doston kuy-nomalaridan xabardor bo`lishgan albatta.

Dostonlar shahar muhitiga tushgandan keyin maqomlar va mumtoz ashulalar bilan bir-biriga ta`sir qilgan va boyitgan. Matyoqub Fozachidek ijodkorlar

Xorazm musannifligida «Naqshi Rost», «Naqshi Navo», yirik ashulalardan «Feruz» va uning savtini eshitib kuzatadigan bo`lsak, asosan doston kuy-nomalardagi yakuniy va muqaddima qismi, ya`ni «Sayqal»lar maqomlardagi «Namud»lar kabi asar



rang-barangligini oshirishga xizmat qiladi. Ziddiyatni kuchaytiradi. Sayqallar yordamida musanniflar (sinflashtiruvchi, tartibga keltiruvchi) mavjud asarlarni go`zal qilib bezaydilar.

Bunday holatni «Go`ro`gli» dostonning turkcha namunasida ham ko`ramiz. Ya`ni doston boshlanishida «Hey-hey» degan Go`ro`glining hayqirig`i bilan boshlanadigan va «Bendan salom o`lsun Bo`lu Beyina» divaniysi «Gardoniya» maqomida kuylansa, undan keyingi aytimlar «Chorgoh», «Muxayyar», «Ushshoq» va «Rost» maqomlarida aytiladi. Dostonning ko`pgina joylarida «Mehtar» kuylaridan ham foydalaniladi. [18. 367]

Quyidagi Xorazm maqomlarning nota namunalari «Nolish» nomalari sayqali bo`lib, ular ushbu asarlarning avj qismlarida qo`llanilganligi QR kod dasturida giper iqtibos orqali tinglash va tahlil qilish tavsiya etiladi:

3,4. «Naqshi Rost» va «Naqshi Navo»  
Xorazm maqom ansambli ijrosi.

5. «Savti Feruz»ni O`zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi maqom ansambli ijrosida tinglang.

Doston nomalariga xorazmlik musanniflardan boshqa ijodkorlar ham murojaat qilganliklarini ular yaratgan asarlardan ham bilishimiz mumkin. Bu an`ana XX asr boshlarida kengroq tus





olib, Samarqandlik mashhur hofiz Xoji “Ko‘r qiz”, “Eshvoy”, “Sho ko‘chdi”, Abdullaziz Abdurasulov ijodiga mansub “Muxammas”, “Shohsanam” deyiladi va bu asarlar qatorida Eshvoy ham tilga olinadi.

«Manga ko‘rguzub necha qatlakim, Yuzda xolu zulfu dutolaring», radifiga aytiladigan «Bozurgoniy»ga «Zebo pari» avji qo‘shilib, go‘zal jilolar bilan ijodiy sug‘orilib qayta ishlangan «Naylarman II» nomasidir. Bu shoh asarning «Bozurgoniy» deb atalishining boyisi ham doston qahramoni nomiga nisbat berilganligida bo‘lsa kerak.

6. “Bozurgoniy” Hoji Abdullaziz Abdurasulov ijro qilgan.



Nazira Yusupova – “Eshvoy”.

Eshvoy baxshi asli Shovotlik bo‘lib, Olloqulixon davri (1825-1842-yillar) da yashab ijod etgan. U haqda Matyusuf Xarratov – Chokar o‘zining esdalik daftarlari – dastaklarida shunday deydi: – «Eshvoy baxshi Xorazmning Chig‘atoy urug‘idan chiqqan. Mulaqqabi Qurt durur [19.45-46]. U o‘ndan ortiq shogirdlarni yetishtirgan. Ularning ichida eng katta shuhrat topgani Matniyoz Go‘rja bo‘lib, uning ikkala ko‘zi ko‘rligidan turkmanlar orasida ismiga go‘rja ya‘ni ko‘r laqabini qo‘shishgan. Qoraqalpoqlar ichida esa uni G‘aribniyoz deb atashadi. Matniyoz o‘z ustozini Eshvoy deb atashda quyidagi she‘rni bitib, uning ustoziga bastalagan va ustoziga bag‘ishlagan «Eshvoy» kuyiga solib o‘qigan. She‘rda Eshvoyning qaysi urug‘dan ekanligi, so‘zga ustaligi mehr va dard bilan ta‘riflanadi. Sherdan parcha:

Ey yoronlar, vaspin siza aytayin,  
Haq sanosi tilindadir Eshvoyning,  
Asl zotin bir-bir bayon aylayin,  
Urug‘i haq Chig‘atoydir Eshvoyning.

«Eshvoy», «Ilg‘or» kabi Xorazm doston yo‘llariga xos kuy nomalarini, vodiya tarqalishi XVIII-XIX asrlarda Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi madaniy aloqalar mavjudligidan darak beradi. Bu

### 7. Bola baxshi ijrosida “Naylarman II”.

Nomalar sayqallarining ba‘zilari doston voqealari rivojiga bo‘ysunganligi sababli yirik ashulalar kabi va ayrimlari esa ixcham tuzilishda shakllanganligining guvohi bo‘lamiz.

Bu yerda Eshvoylar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Mulla Bekchon Raxmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodaning “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobining 45-46-betlarida Eshvoy baxshining shogirdi Matniyoz Go‘rjaning ta‘limini olgan Suyav baxshi o‘zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida g‘oyat mashhur baxshi bo‘lganidek, har tomonlama tanilgan bir zot edi. Suyav baxshining o‘zi yaratgan 7-8-turli nag‘masi bor bo‘lib, ular xalq orasida sevib ijro qilinib kelinadi. Bular: “Ilg‘or”, “Ilg‘or Sarpardasi”,



borada G'ulom Zafariyning 1930-yillarda tuzgan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Farg'ona-Toshkent sozanda va xonandalari shajarasiga oid jadvaliga ko'z tashlaydigan bo'lsak, Urganchda 18 yil ta'lim olib qaytgan Qashqarlik Xudoyberdi ustod yetishtirgan shogirdlar Farg'ona vodiysi, Qashqar, Toshkent, qisqasi, butun Movoraunnahr bo'ylab tarqalganligini ko'ramiz. Bu haqda M.Rahmonov o'zining «Istoriya Uzbekskogo teatra» kitobining 183-186-sahifalarida shunday yozadi: «Qo'qon xoni Muhammad Umarxon (1808-1822) o'z poytaxtiga Xivadan mashhur sozanda va bastakor Xudoyberdi ustodni oldirdi. Keyin xon bo'lmish Madalixon (1822-1842) Xudoyberdi ustodning maslahatiga ko'ra, Xivalik sozanda va bastakorlar

Solihbek va Mo'minbekni Qo'qonga oldirdi», deyiladi. Xudoyberdi ustodning faoliyati Qo'qonda kechganligi va o'zining atrofiga sozandalarni yig'ib ansambl tuzgani hamda ularga ustozlik qilgani to'g'risidagi ma'lumotlar professor A.Odilovning «O'zbek cholg'ularida ijrochilik tarixi» kitobining 24-betida ham keltiriladi.



Professor

O.Matyoqubovning «Maqomot» kitobini 88-92-betlarida G'ulom Zafariy jadvallari va xasos shoir Sobir Abdulla tomonidan Xudoyberdi ustod ta'riflangan «San'atimiz tarixiga bir nazar» nomli she'riy dostoni keltirilgan. Ushbu tarixiy dalillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Xudoyberdi ustod, Solihbek



Komiljon Otaniyozov (tor-ashula), Karimjon Ismoilov (doira), Karima Olimboyeva (musiqashunos) doston qo'shiqlarini yozib olish jarayoni, 1959-yil).



va Mo‘minbek Qo‘qonlik shogirdlariga birinchi navbatda o‘zlari yaxshi bilgan Xorazmcha kuy va qo‘shiqlarni o‘rgatganlar. Bu asarlar vodiylik san‘atkorlarning ijodiy yondashuvi natijasida o‘zgacha ohang kasb etgan. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidagi «Eshvoy»ga bag‘ishlangan maqola ham fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi: «Eshvoy ko‘p variantli kuy va ashulalar nomi; Farg‘ona vodiysi va Toshkent, Xorazm vohalarida mashhur. Bu kuy va ashulalar asosda aqomi yo‘llariga hamohang. D. ‘eruz» ashulasi ohangiga o‘xsh: Xorazmcha ufor usulda ijro etilgan. Toshkent va Farg‘ona vodiysida «Eshvoy» va «Kurd Eshvoyi» nomi bilan mashhur ashula va kuylar ko‘p sayqal berilganligidan dastlabki variantidan tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketgan y ashulasining Muhiddin Qor va Jamolqori G‘iyosov (o‘z faslari bilan) ijrosidagi ikki turi ufor va uch chorakli taronalar doira usulida ijro etiladi». Mazkur kuy va ashulalar tub asosini Xorazmga borib taqalishini, «Farg‘ona Eshvoyi», «Kurd Eshvoyi», «Kurd», «Ilg‘ori Kurd», «Cho‘li Kurd», «Galdir» kabi ashulalarni vodiylik sozanda va bastakorlar tomonidan o‘zgacha sayqal berib qayta ishlanganligini mashhur changchi va bastakor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Faxriddin Sodiqov ham ta‘kidlagan edi. Endi ana shu Eshvoy asosida ancha kengaytirilib, murakkablashtirib yaratilgan «Kurd Eshvoy»ni QR kod giper iqtibos dasturida eshitib tahlil qilib ko‘ramiz:



9. “Kurd Eshvoy” Ochilbek Matchonov ijrosida

Eshvoylar elda sevimli bo‘lganligidan butun Movarounnahrda yoyilgan va ayniqsa, keyingisi Toshkent-Farg‘onada ham sevimli asarga aylanib, vodiy sozandalar tomonidan qayta musanniflik qilinib “Farg‘ona Eshvoyi”ni ham yaratganlar. Ushbu “Eshvoy”ning dastlabki ko‘rinishi cholg‘u yo‘li bo‘lib, uni ustoz sozanda va bastakor Shavkat Mirzayev-Muhammedov Lutfiy g‘azaliga solib, Munojot Yo‘lchiyeva uchun moslashtirib bergan. Quyidagi QR kod giper iqtibos dasturida “Farg‘ona Eshvoyi”ni tinglaysiz:

10. “Farg‘ona Eshvoyi” Munojot Yo‘lchiyeva ijrosi.

Eshvoylarni ikki turi bo‘lib, bular “Tukma” va “Eshvoy Urganjiy” cholg‘u yo‘llaridir. Jami “Eshvoy”lar turkumi besh asarni tashkil qiladi.

Doston nomalaridan ilhomlangan ijodkorlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shular qatorida Safo Mug‘anniy ilg‘orlar asosida Fayzulla Xo‘jayevga bag‘ishlangan «Xush kelibsiz Xorazmga» va «Akmal Ikromov kelur» qo‘shiqlarini yaratib kuylaganligi uchun qatag‘on qilingan. Aka-uka Xojixon va Nurmuhammad Boltayevlarning ham «Qurboning bo‘lay» va boshqa asarlari bunga misol bo‘la oladi.



Bunday sayqallar asosan doston qo'shiqlari, xususan Shirvoniy uslub nomalariga mansubdir. Natijada ular bir-birini to'ldirgan va boyitgan. Xususan O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tomonidan doston nomalari asosida yaratilgan o'nlab mashhur ashulalari mavjudki, ularning barchasini bu kitobga sig'irib bo'lmaydi va alohida izlanishni talab qiladi.

Komiljon Otaniyozov (tor-ashula), Karimjon Ismoilov (doira), Karima Olimboyeva (musiqashunos) doston qo'shiqlarini yozib olish jarayoni, 1959-yil).

Dostonchilikni "Bir aktyor teatri" ga o'xshatish mumkin. Ya'ni doston qahramonlari (ayol yoki erkak bo'lishidan qat'iy nazar) barchasining "rol"ini ijro etish, ular nomidan so'zlash, kuylash vazifasini baxshining bir o'zi bajaradi. Bunga namuna sifatida Komiljon Otaniyozov tomonidan "Xirmondali" dostonidagi qizdan kelgan salomnoma maktubiga qarab aytilgan va alohida Farog'at Rahmatova uchun juda go'zal ashula qilib qayta yaratilgan "Salom galibdi" qo'shig'ini QR kod giper iqtibos dasturida tinglang:

11. "Salom galibdi" Farog'at Rahmatova ijrosida.

K.Otaniyozov izdoshlari va shogirdlaridan O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston va Tatariston xalq artisti Otajon Xudoyshukurov, O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti Bobomurod

Hamdamov, O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Ortiq Otajonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rahmatjon Qurbonov, Karimboy Raxmonov va boshqa xonandalar ijodidagi doston ashulalari bunga yorqin misol bo'la oladi. Bola baxshi – Qurbonnazar Abdullayevning "Baziryon" dostonidan "Oqsoq Zorinji" nomasiga "Qubon bo'lay go'zdan oqqan yoshingga" qo'shig'i 5/8 o'lchovida kuylangan. Otajon Xudoyshukurov o'sha "Zorinji" nomasi tovushqator pardalarining 2/4 o'lchovida Ibrohim Yusupov she'riga "Jayhun shamollari" ashulasini yaratgan. Quyida QR kod giper iqtibos dasturida tinglab tamosha qiling va qiyoslab ko'ring:

12. Zorinji pardasidagi "Jayhun shamollari"  
O.Xudoyshukurov ijrosi.

13. "Oqsoq Zorinji" Bola baxshi ijrosi.

Surxon-Sherobod dostonchiligining musiqiy nomalari zamonaviy estrada sohasida, ayniqsa, hozirgi kunda turli ijodkorlarning ijodi e'tiborga loyiq. Bundan doston nomalarining yana bir marta estrada, jaz oranjirovkasi, remiks, rep, armbi kabi janrlarda qayta ishlashga juda moyilligi ko'rinib turibdi. Bunga Ilhom-Surxon Mamataliyev ijodini misol qilib keltirishimiz mumkin. U qayta ishlagan, asar mohiyati, mazmuni va maqsadini, yo'nalishi va tabiatini buzmaganda yangi zamon faol



tinglovchilari talabiga mos ravishda aranjirovka qilgan. Bundan tashqari voha qo'shiqchiligi aks etib turgan mualliflik ijod namunalarini Mahmud Namozov, Ravshan Namozov, Sayyora Qoziyeva, Sayyora Qosimova, Hosila Rahimova, Toshpo'lat Matkarimov, Surxon guruhi, Lola Ahmedova, Sirojiddin Fayziyev, Nargiza Ahmedova va boshqa qator san'atkorlar ijro etgan va xalq e'tibori va olqishiga sazovor bo'lgan. Bular qatoriga: "Baxshiyona", "Gulpari", "Guldona", "Og'amjon", "Oybuloq", "Chaman-chaman", "Ohu-vo", "Qo'ng'iroti", "Armon", "Chimildiq", "Chechajon", "Alpomish", "Oypari", "O'tov", "Bo'la", "Oybarchin", "O'lan aytsam", "Polvonim" kabi ellikdan ortiq asarlar kiradi. Bu qo'shiqlar nafaqat Surxon vohasining to'y marosimlari tadbirlarining ommalashgan repertuarlariga balki, respublika miqyosida marosim qo'shiqlari tartibiga keskin o'zgartirish kiritdi. Janubiy O'zbekiston doston nomalariga ijodiy yondashilgan bunday qo'shiqlarni Surxon vohasi bastakor-musanniflari Ilhom Mamataliyev va O'ral Eshdavlatov singari ijodkorlar yaratgan. Bu qimmatbaho asarlarni ularning o'zlari turli sozlarda ijro etishgan. Bularday bastakor-musanniflar ismlari ekran va matbuotda, ijtimoiy tarmoq sahifalarida e'lon qilinmaydi. Ammo ular haqiqiy fidokorlardir. Quyida ularning asarlarida namuna keltiramiz:

16. "Surxon" guruhi ijrosida "Sirg'ali qiz.

Ijod sarchashmasi sifatida xizmat qilgan doston nomalari asosida yaratilgan yuqoridagiday asarlarni

nafaqat adabiy-badiiy, balki umrboqiy musiqiy xazinamiz durdonalaridan, desak yangilishmaymiz. Ulug'vor dostonchilik an'analari O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya qisqasi umumturk sozining dilrabo, jozibador milliy-mahalliy musiqiy navolarini o'z ichiga mujassamlashtirgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari bilan mamlakatimizda maqom va baxshichilik san'atiga berilayotgan e'tibor keyingi yillarda yanada kuchaydi. Ayniqsa "Baxshichilik san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi 304-sonli qarori bilan Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida Baxshilar maktabi, Respublikadagi bolalar musiqa va san'at maktablarida mahalliy uslublarga asoslangan baxshilar sinflari va maktab internatlari ochildi. 2020-yil Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti ish boshladi. Ushbu o'quv dargohlarida yosh maqomchilar bilan bir qatorda baxshidostonchilarni o'qitish, musiqiy savodini chiqarish yo'lga qo'yildi. Institutimizda doston va maqom kafedralarining yonmayon faoliyat yrgizishi ularning qadimdan mushtarak soha ekanligining yorqin isbotidir.

2021 yil 16-dekabrda baxshichilik san'ati YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishi bu sohaga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi.

Bu yil maqom sana'tining ta'lim tizimiga kiritilganligiga ellik yil to'ladi. Dastlab 1972 yili Toshkent davlat konservatoriyasida Sharq musiqa fakulteti sifatida Fayzulla Karomatov tashabbusi bilan tashkil etilib, sozanda ijrochilar qabul qilindi. O'tgan ellik yil davomida maqomchi sozanda va



xonandalar xalqaro tanlov, festival va konsert chiqishlaridada jahon jamoatchiligiga O'zbek maqom san'atini targ'ib qildilar. Respublikamizning turli burchaklarida yoshlarga maqom sirlarini o'rgatib kelmoqdalar. Shu ta'lim sohasini tugatgan va o'z bilimini yoshlarga o'rgatayotgan o'nlab xalq artistlari, xalq xofizlari, xizmat ko'rsatgan artistlar etishib chiqdi. Munajatxon Yo'lchieva O'zbekiston qahramoni unvoniga sazavor bo'ldi. Bunday yutuqlarni ko'plab keltirish mumkin.

Bugungi kunda Shu sohaning yagona akademigi, Buyuk xizmatlari uchun ordenining sohibi, O'zbekiston xalq artististi, musiqiy alloma Yunus Rajabiy tavalludinining 125 yilligi, ularning o'g'illari O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiyning 80 yilligi, Yunus Rajabiy uy muzeyi tashkil qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan tashkil qilinayotgan Xalqaro anjuman barchamizga muborak bo'lsin! Azizlar!

### Bibliografiya

1. «Slovar inostrannix slov» pod.red. T.M.Kapelzona. «Sovetskaya ensiklopediya» M., 1933. 102 c.(Tarjima bizniki).
2. Persidsko-Russkiy slovar pod red. Y.A. Rubinchika M., İzd. "Sov. Ensiklopediya" 1970 y., 602b.
3. Akbarov İ.A. "Muzika lug'ati" T., "G'.G'ulom" nashriyoti 1987., 102 b

4. Persidsko-Russkiy slovar pod red. Yu.A. Rubinchika M., İzd. "Sov Ensiklopediya" 1970 y., 620b.

5. Matyaqubov O. "Og'zaki ana'nadagi professional muzika asoslariga kirish" T., "O'qituvchi" 1983. 64 b.

6. Fitrat A. "O'zbek klassik muzikasi va uning tarixi". "Fan". 1993 y. 37 b.

7. "Muzikalnaya ensiklopediya". İzdatelstvo "Sov. Ensiklopediya", "Sov Kompozitor" M. 1981 g. 5 t. 665 s. (Tarjima bizniki).

8. Jirmunskiy V.M. "Narodniy geroicheskiy epos". M-L., Gos.Lit. İzdat. 1962 y. 245 b.

9. O'sha adabiyot. 248 b.

10. Taxmasib M.G. «Azerbaydjanskije narodnye dastanı» A.D.D.Baku 1965 g. 96 b

11. U.M.E. II jild. T., 2001. U.M.E. II-j. 165 b.

12. Fitrat A. «Uzbek klassik musikasi va uning tarixi». «Fan». 1993 y. Fitrat A. 13 b

13. O'sha adabiyot. 310 b

14. Lutfiy "Gul va Navro'z" O'zSSR Davlat Badiiy Adabiyot nashriyoti. T., 1960 y. 220 b. 5 satr

15. Magtinguli. "Ashgabad" 1955 y. 66 b

16. Bobur Zahiriddin Muhammad "Boburnoma" T., "Yulduzcha" 1989 y. 75 b

17. Magauin M. M. "Kobiz i kop'e" İzd. "Alma Ata" 1970. 202 b

18. Metin Ekici "" Turk Dunyasinda Ko'ro'glu". Anqara, "AQCHAG' ". 2004. – 367 s


19. M.Xarratov dastaklari. 45-46-betlar

20. Matyoqubov B. Doston navolari / Mas'ul muharrir: san.f.n., prof. R. Yunusov. – Toshkent, 2009. – 344 b. (CD ilovasi b-n).

20. Matyoqubov B. "Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari" – "Xorazm", 1999. – 51 b. (CD ilovasi b-n).



## “MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA” O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORI QABUL QILINDI

angi O‘zbekistonda barcha sohalar qatori madaniyat va san’at sohasi ham tub islohotlar davrini boshdan kechirmoqda. Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 2 fevral kuni qabul qilingan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 112-sonli qarori ham ushbu tarixshumul islohotlarning mantiqiy va izchil davomi sifatida bugungi jarayonlarning faol ishtirokchilarini tarbiyalash, yoshlar qalbini musiqa va san’at orqali boyitish, ularni tom ma’noda barkamol insonlar etib tarbiyalashga keng yo‘l ochib berishga xizmat qiladi deyish mumkin.

### **Ozodbek Nazarbekov, Madaniyat vaziri, O‘zMMSI rektori:**

“Qarorda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, ohanglarimizni xalqimiz orasida va dunyoda keng targ‘ib qilishga oid bandlar juda ko‘p. Ushbu hujjatning umumiy mazmun-mohiyati shundan iboratki, ta’limda musiqa fanini rivojlantirish orqali jamiyatimizning musiqiy savodxonligini ko‘tarishga asosiy e’tibor qaratiladi”.

### **Munojot Yo‘lchieva, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq artisti:**

“Umumta’lim maktablarda yosh avlod milliy cholg‘ularimizni mukammal o‘rganishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish haqida qarorda alohida qayd etilgan. Bu yoshlarda milliy merosimiz haqida bilimlarning shakllanishiga, ma’naviy saviyasi oshishiga xizmat qiladi. Musiqani bilgan, ma’naviyatli yigit-qizlardan hech qachon yomonlik chiqmaydi”.

### **Avaz Mansurov, O‘zDK va O‘zMMSI professori:**

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan endi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini ijro qilish mahorati o‘rgatiladi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi va Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti talabalari maktab o‘quvchilariga shu yo‘nalishda ta’lim berishga yo‘naltiriladi”.



## BAXSHICHILIK SAN'ATI YUNESKO RO'YXATIGA KIRITILDI

**B**axshichilik san'ati YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo'mitasi tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi.

Ushbu element bo'yicha nominatsion paket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan O'zbekistonning YuNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tomonidan tayyorlanib, 2020 yilda taqdim etilgan edi. Ikki yil davomida YuNESKO tomonidan o'rganib chiqilgan ushbu masala 2021 yilning 16 dekabr sanasida Fransiya poytaxti Parijda bo'lib o'tgan yig'ilishda baxshichilik san'atini nomoddiy madaniy meros deya tan olish to'g'risida qaror qabul qildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Baxshichilik san'ati namoyandalari va muxlislariga tabrik yo'lladi, tabrikda jumladan, "Bu yuksak e'tirof dunyo hamjamiyatining O'zbekistonning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga, rang-barang ijodiy maktablar va izchil rivojlanish silsilasiga ega bo'lgan noyob baxshichilik san'atiga ulkan hurmat-e'tiborining yorqin ifodasidir... Biz bu noyob madaniy merosni asrash, rivojlantirish va ommalashtirish, jumladan, baxshilarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlarni safarbar etamiz. Bu borada endi bizga YuNESKO boshchiligida xalqaro hamjamiyat ham madadkor bo'ladi" – deyiladi.

96







## “MILLIY BAXSHICHILIK SAN’ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI O‘TKAZILDI

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab, uni kelgusi avlodlarga yetkazish masalalariga yuksak darajada ahamiyat qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi (NMMMMHQ) XVI sessiyasi doirasida “Baxshichilik san‘ati” insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani munosabati bilan joriy yilning 22 fevral sanasida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi binosida “Milliy baxshichilik san‘atining rivojlanish bosqichlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.

Ushbu konferensiyani o‘tkazishdan asosiy maqsad baxshichilik va dostonchilik san‘atini rivojlantirish, “ustoz-shogird” an‘analarini mustahkamlash, o‘zbek hamda boshqa xalqlarning dostonlarini ilmiy o‘rganish, bu borada o‘zaro ijodiy hamkorlik qilishdan iboratdir.





Konferensiyada baxshichilik va dostonchilik san'ati yo'nalishida faoliyat olib borayotgan olimlar, shu sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan soha vakillari va baxshi-shoirilar "An'anaviy epik formulalar va baxshi badihago'yli", "Baxshichilik san'ati istiqbollari", "Xorazm dostonchilik an'anasining yetakchi namoyandasi", "Baxshilar san'atida sinkretizm", "Alpomish dostonida o'zbek nikoh to'yi udumlari talqini", "Baxshichilik an'analari, yangilanish yo'llari masalalari", "Baxshi ijrochilik san'atining ta'lim tizimiga tadbiq etilishi muammolari", "Baxshi kuylari va ohang yo'llari", "III Xalqaro Baxshichilik san'ati festivalini o'tkazishda yangicha yondashuv" kabi dolzarb mavzularda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va yuksak e'tibor tuyg'ularini kuchaytirishga hissa qo'shadi.



## “NAVOIYXONLIK” KECHASI

2022 yilning 9 fevral kuni O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi zalida buyuk mutafakkir, betakror shoir, davlat va jamoat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga bag‘ishlangan “Navoiyxonlik” ijodiy kechasi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti hamkorligida o‘tkazilgan ushbu nazm va navo kechasida uyushma raisi Rustam Abdullaev, Maqom markazi direktori Soibjon Begmatov, Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi ijrochi direktori Olimjon Davlatov, O‘zMMSI prorektori Azizjon Zokirovlar so‘zga chiqib Navoiy Hazratlarining ijodiy merosi, o‘zbek mumtoz adabiyoti va musiqasida tutgan beqiyos o‘rni haqida so‘zladilar.

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq artisti, O‘zMMSI professori Munojat Yo‘lchieva, O‘zbekiston xalq hofizi, O‘zMMSI professori Erkin Ro‘zimatov, O‘zbekiston xalq artistlari Furqat Ashuraliev va Elmurod Ahmedov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Komila Bo‘rieva, Nodira Pirmatova, Ilyos Arabov, Mohichehra Shomurotova, Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindorlari Shavkat Matyoqubov, Abduqahhor Jalilovlar, O‘zMMSI talabalari N.Rahmonova, A.G‘afforov, A.Muxtorov, R.Mirminov, K.Xudoyorov, M.Quvondiqovlar O‘zMMSI professor-o‘qituvchilari ansambli jo‘rligida Navoiy g‘azallariga bastalangan eng sara maqom va mumtoz ashula namunalarini ijro etdilar.





## YUNUSRAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTIDA DOKTORANTURA BOSQICHI OCHILDI



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 2 maydagi 304-son qarori talablariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2021 yil 9 noyabr kuni o‘tkazilgan Hay’at yig‘ilishi Bayoni Qaroriga asosan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida doktorantura bosqichi tashkil etildi.

Doktoranturaga qabul imtihonlari joriy yilning 14 mart sanasida O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Rustambek Abdullaev boshchiligidagi hakamlar hay’ati tomonidan o‘tkazildi.

Mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida ilmiy tadqiqot olib borish istagini bildirgan 9 nafar talabgorlar ichidan tadqiqotchilarning ilmiy rahbari, ilmiy ishi mavzusi va rejasi to‘liq asoslangan, mavzusi dolzarb bo‘lgan 2 nafar talabgor - Abror Zufarov hamda Nilufar Botirova O‘zMMSI doktorantura bosqichiga dastlabki mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida qabul qilindi.





## YUNUS RAJABIY TAVALLUDINING 125 YILLIGI MUNOSABATI BILAN XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA O'TKAZILADI

2022 yilning 19-20 aprel kunlari Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbek milliy maqom san'ati markazi va Yunus Rajabiy uy-muzeyi bilan hamkorlikda O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, O'zRFA akademigi Yunus Rajabiy tavalludining 125 yilligi, O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy tavalludining 80 yilligi, Yunus Rajabiy uy-muzeyining tashkil topganiga 25 yil to'lishi munosabati bilan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkaziladi.



Ushbu konferensiyadan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek milliy musiqasining "quyosh"i, "Maqom xazinaboni" deya yuksak e'tirof etiladigan buyuk bastakor, betakror hofiz va mohir sozanda, ajoyib tashkilotchi va rahbar, etnomusiqashunos, O'zRFA'sining haqiqiy a'zosi Yunus Rajabiyning porloq xotirasiga hurmat va uning 125 yillik tavallud ayyomini munosib nishonlash, ulug' allomaning o'zbek milliy musiqa san'atiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yosh avlod, xususan, talaba-yoshlarni voqif qilish va musiqashunoslik ilmini yanada rivojlantirishdan iborat.

Xalqaro konferensiyada maqomshunos olimlar, musiqashunoslar, musiqachilar, mustaqil izlanuvchi va talabalar o'zlarining o'zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillaridagi ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishlari mumkin.

Rasm o'rnida afisha

Materiallarni Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutimatbuot kotibi, musiqashunos Shoxbozbek Abduxoshimov tayyorladi.







Handwritten text at the bottom of the page, likely a signature or note.